

811.512
AGO

M.X.AXMEDOVA, K.A.GAYUBOVA

O'ZBEK TIJ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

M.X.AXMEDOVA, K.A.GAYUBOVA

O'ZBEK TILI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2020

UO'K: 811.512.133(075.8)

KBK: 81.2 Узб.

A 90

**M.X.Axmedova, K.A.Gayubova. O'zbek tili. (Qo'llanma). –
T.: «Aloqachi», 2020. – 212 bet.**

ISBN 978-4493-6396-9-0

Maskur qo'llanma bakalavriatning AKT yo'naliishlari boyicha ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlari uchun tuzilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida yaratilgan. Qo'llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan bo'lib, har bir matn ustida ishlash uchun turli savol va topshiriqlar berilgan. Qo'llanmada talabalarning kasbiy lingvistik dunyoqarashini kengaytirishga hamda nutqiy mahoratini oshirishga yo'naltiruvchi materiallar berilgan.

UO'K: 811.512.133(075.8)

KBK: 81.2 Узб.

Taqrizchilar:

N. Xusanov – f.f.d, prof.;

M.T.Abdurahmonova – f.f.n. dots.;

D.U.Dospanova – f.f.n. dots.


Mas'ul muharrir:

S.X.Abdullayeva.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy – uslubiy kengash muhokamasida tasdiqlangan.

ISBN 978-4493-6396-9-0

© «Aloqachi» nashriyoti, 2020.



KIRISH

O‘zbek tiliga O‘zbekiston Respublikasining davlat tili maqomining berilishi bizga istiqlol bergan buyuk ne’matlardan biridir. “O‘zbekiston Respublikasi davlat tili haqida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” gi Qarori respublikamizda yashovchi boshqa millat fuqarolarining o‘zbek tilini egallahsga bo‘lgan qiziqlislari va intilishlarini kuchaytirdi. Ayni paytda, ta’lim tizimi oldiga o‘zbek tilini o‘qitishni tubdan isloh qilish, o‘zbek tili ta’limining yangi, samarali usullarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish, yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish vazifasini qo‘ydi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeい tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

Shu bois, ta’lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o‘rin tutadi. Boshqa millat vakillarining o‘zbek tilini puxta egallashlar, milliy, madaniy qadriyatlarni o‘rganish va barcha sohalarda erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o‘zbek tilini yetarli darajada egallashlar til ta’limining asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbining madaniyati asoslari hamda notiqlik me’yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda.

O‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, o‘zbek tilini o‘rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kollejlarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrini to‘g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganish ko‘zda tutiladi. Shularni nazarda tutib, o‘quv qo‘llanma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi. Grammatik bilimlar fikr

ifodalash vositasi bo‘lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbek tili ta’limi nutqiy mavzularni ixtisoslikka moslashtirilgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi.

An’anaviy darsliklarda grammatik mavzu birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa, tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishda esa matn bilan tanishuvdan boshlash usuli ma’qullanadi. Qo‘llanmada talaba oldiga ilmiy, badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni tarjima qilish, uni shakl va mazmun jihatdan yangilash kabi talablar qo‘yildi. Bundan tashqari, har darsda umumiy mavzu bo‘yicha matnlar berilib, asosiy e’tibor matn ustida ishslashga qaratildi. Qo‘llanmada nutq uslublariga, jumladan, ilmiy, publitsistik, ilmiy-ommabop va rasmiy-idoraviy uslublarga keng o‘rin ajratilib, talabaning o‘z mutaxassisligi sohasi bo‘yicha ulardan foydalanib, matn yaratish ko‘nikmasi hosil qilinadi.

Nazariy ma’lumotlar ixcham shaklda berilib, eng muhim jihatlarigina keltiriladi. Grammatik mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar va mashqlar ishlab chiqildi. Nutqiy mavzularni hamda nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash uchun savollar, tarjima mashqlari va klaster, sinkveyn, Venn diagrammasi, T-sxema, konseptual jadval singari ijodiy topshiriqlar berildi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyushtirish, matn tuzdirish talabalarning ixtisosligiga ko‘ra belgilanadi.

O‘quv qo‘llanmada talabalar mustaqil ta’lim olishlari uchun qo‘srimcha materiallar berilgan.

1-mavzu. O'ZBEKISTON-YAGONA VATAN. O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

O'zbek tilining imlo qoidalari. O'zbek tilida so'z yasalishi

1- topshiriq. Matnni o'qing

Vatanim-katta imkoniyatlar mamlakati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, uning hududi shimoliy g'arbda, Turon pasttekisligining janubi-sharqida, Tyan-Shan va Oloy tog' tizmalarining janubi-g'arbida, Qizilqum cho'llarining bir qismini egallaydi.

Respublika shimoliy-sharqda Qozog'iston, sharqda va janubiy-sharqda Qirg'iziston hamda Tojikiston, g'arbda Turkmaniston va janubda Afg'oniston bilan chegaradosh.

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga: 12 ta ma'muriy viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 157 qishloq tumani, 123 shahar va 104 shahar tipidagi qishloq kiradi. Davlatning poytaxti-Toshkent.

O'zbekistonda 100 dan ziyod millat va elatlarning vakili bo'lgan 32 milliondan ko'proq kishi yashaydi. Aholining 72% ni o'zbeklar tashkil etadi.

O'zbekiston-katta imkoniyatlar mamlakati. O'zbekistonda hamma narsa: tabiat boyliklari, hosildor yerlar, mehnat resurslari, iqtisodiy ilmiy-texnikaviy va ma'naviy salohiyat mavjuddir.

O'zbekistonning mehnatsevar, iste'dodli va mehmondo'st xalqi Respublikaning chinakam boyligidir. Bizning davlatimiz aholining o'sish sur'atlari va mehnat resurslari yuqori bo'lgan mintaqaga hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 40% ga yaqini O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston qimmatbaho xomashyo-paxta yetishtirib beradigan jahondagi eng yirik o'lkalardan biri hisoblanadi. Xalqimiz paxtani haqli ravishda "oq oltin" deb ataydi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1. *Matndan tayanch so‘z va iboralarni ajratib yozib chiqing.*
2. *Matnga sodda reja tuzing.*
3. *Matndagi asosiy fikrni aytib bering.*
4. *“O‘zbekiston” mavzusi yuzasidan klaster (xaritali) tuzing.*



5. Rasmi va ko‘p javobli nostandard test topshirig‘ini bajaring.

O‘zbekiston ramzlarini aniqlang va ularning qabul qilingan yillarini jadvaldagи bo‘sh kataklarga joylashtiring.

- 1) 1991 yil 18 noyabr 2) 1992 yil 2 iyul; 3) 1992 yil 8 dekabr;
- 4) 1992 yil 10 dekabr.



Serquyosh hur o'lkam,
elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga
yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu
fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki
bor jahon!



2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling

O'zbekiston

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda ...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga qulqut tutardim.
Hammagini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim, aslo.
O'xhashshi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston,
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib xuddi yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.

Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o‘sadi paxta,
Barg chiqadi har bir daraxtda.
Olmazorlar gulin to‘kadi,
Meva bog‘lab shohin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to‘lar Tekstil.
Hammasing bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o‘lkada har narsa bordir,
Ko‘rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog‘i pishqirgan selda,
Arg‘umoqlar qo‘shig‘i bordir,
Bu shundayin ajib diyordir.
Daliasida o‘smas tikonlar,
Cho‘llarida chopmas ilonlar,
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o‘tsa qurimas zoti.
Chanqov qolib yo‘lovchi o‘lmas,
Har burchakda boshkesar bo‘lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go‘daklarni yutmas och o‘lim.
Odamlarga baxt-tole yordir,
Bu shundayin ajib diyordir.

* * * * *

Bunda bulbul kitob o‘qiydi,
Bunda qurtlar ipak to‘qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so‘ylaydi olqish.
Bir o‘lkaki husnga boydir,
Uning eng zo‘r ko‘zgusi oydir.
Bir parcha o‘t bo‘lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.

Botirlari kanal qaziydi,
Shoirlari g‘azal yozadi,
Kuychilari o‘qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.
Bu shundayin ajib diyordir...
Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin,
Shunday o‘lka elga yor bo‘lsin.
Omon bo‘lsin og‘aynilari,
Omon bo‘lsin do‘stlarning bari.
Doim bo‘lsin o‘lkasi omon,
Shunday bo‘lsin bu butun jahon.

* * * * *

Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim,
Gul ko‘kargan tog‘larni ko‘rdim.
Mehr qo‘yib o‘pgan sari oq,
Oppoq bo‘ldi bu aziz tuproq.
Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...

Hamid Olimjon

3-topshiriq. Matnni o‘qing va undagi asosiy fikrni aniqlang

O‘zbek tili – Davlat tili

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 oktyabrdan davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Har yili 21-oktyabr yurtimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sanaga bag‘ishlangan tadbirlarda “Davlat tili haqida”gi Qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etilib, galdeg‘i vazifalar belgilab olinishi yaxshi an'anaga aylangan.


O‘zbek adabiy tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, shuningdek, Atoiy, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiy, Alisher Navoiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin.

Til – millatimiz faxri, g‘ururidir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e’tiborda bo‘lib, uning jamiyatimizdagi mavqeini yuksaltirishga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shaylik. Zero, til bor ekan millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog‘ondir.

Matn yuzasidan topshiriq.

1. Matnga savollar tuzing.

2. Turkiy tillar guruhiga kiruvchi tillar bo‘yicha klaster tuzing.



3. “O‘zbekiston” she’ri matnidan yasama so‘zlarni ko‘chirib yozing. Ularning yasalish usulini tushuntirib bering.

Namuna: olma +zor (ot), chiroy + li (sifat).

4. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltiring. Masalan,

Zakovat ko‘rki so‘z-til ko‘rki so‘zdir
 Odamzot ko‘rki yuz-yuz ko‘rkii ko‘zdir
 Inson kim so‘z aytdi, lison tufayli,
 Yaxshi so‘z tufayli o‘zi chiroyli.

Yusuf Xos Xojib

Turk nazmina chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

A.Navoiy

Ey ona tili, aziz qadrdonim,
E'tiqodi, ruhi ravonim.
Tug‘ilgan kundan aylading ulfat
O‘lguncha ayrilmam, ey jonim.

A.Avloniy

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abu turk nafasi, oltoy chechagi.
Xun davridan omon keldi Xiroting
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.

Cho ‘lpon

Tilni mensimaslik, millatni mensimaslik, vatanni mensimaslikni
ko‘rsatadigan o‘ta noxush holdir.

Ozod Sharafiddinov

Til – so‘zlochi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

Beruniy

Tilingni so‘zlashga soz, muhayyo qil,
Tilingni o‘q qil-u, aqlni yoy qil.

Abdulqosim Firdavsiy

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining
betakror jozibasi bilan singadi.

I.Karimov

Nazariy ma’lumot

Orfografiya (imlo qoidalari)

Tilda so‘zlar va qo‘shimchalar ma’lum qoidalari asosida yoziladi. Bu qoidalari yig‘indisi **imlo** (**orfografiya**) deb yuritiladi. Imloda to‘g‘ri yozish me’yorlari o‘rganiladi. Yozma nutqda har xil yoziluvchi tovush, qo‘shimcha yoki so‘zlardan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi imlo me’yori hisoblanadi. Imlo quyidagi qoidalarga (tamoyillarga) asoslanadi:

Orfografiyaning tamoyillari

1. Fonetik yozuv (tamoyil). Bu qoidaga muvofiq ba’zi so‘z va qo‘shimchalarni eshitganimiz bo‘yicha yozish mumkin:

- 1) tog‘+ga-toqqa, ko‘k+ga-ko‘kka;
- 2) og‘iz+im-og‘zim, burun+im-burnim;
- 3) yosh+a-yasha, ong+la-angla;
- 4) ikki+ov-ikkovi, yetti+ovi-yettovi;
- 5) so‘ra+q-so‘roq, bo‘ya+q-bo‘yoq;
- 6) kes+dir-kestir, kel+dir-keltir;
- 7) ishlay ber (ishlayver), kela oldi (keloldi).

2. Morfologik yozuv (tamoyil). Bu qoidaga ko‘ra so‘z o‘zagi va qo‘shimchalari aynan, asliga muvofiq yoziladi:

- 1) ketti emas ketdi, aytipti emas aytibdi;
- 2) Toshkenttan emas Toshkentdan;
- 3) ishka emas ishga;
- 4) kulub, uchunchi, tug‘uldi emas kulib, uchinchi, tug‘ildi yoziladi.

3. Shakliy (etimologik) yozuv (tamoyil). Bu qoidaga ko‘ra boshqa tillardan kirgan so‘zlar o‘sha tillarda qanday yozilsa, shunday yoziladi: stol (sto‘l emas), zoologiya (zo‘o‘lo‘giya emas), tonna (to‘nna emas).

4. Tarixiy-an’anaviy yozuv bo‘yicha so‘z va qo‘shimchalar tarixan, an’anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo‘lsa, hozir ham shunday yozilishi mumkin: borur (borgin va borar bilan bir qatorda).

5. Differensiatsiyalash (farqlash) yozuvi (tamoyili) so‘zlarni urg‘u yoki boshqa fonetik vositalar (masalan, ayirish belgisi) yordamida farqlab yozishdir: olma-olma, sher-she’r.

1-mashq. Quyidagi so‘zlarga egalik affikslari qo‘shing. O‘zakda qanday o‘zgarish yuz bergenini tushuntiring

Bezgak, kekirdak, o‘rdak, g‘ijjak, lak, tilak, zirak, yurak, chek, oq, tank, ravnaq, blok, tashviq , nok, tok, choc, park, varaq, taroq, xaqq, zavq, oyoq, rizq, qobiq, chiviq, qoldiq, ko‘ngil, o‘g‘il.

2-mashq. – **li**, **-lik**, **-boz**, **-bon** affikslari vositasida bir necha so‘z yasang, ularning ma’no xususiyatlarini, yozilishi bilan talaffuzi o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

Ijtimoiy hayot, fan-texnikaning to‘xtovsiz taraqqiyoti bilan bo‘g‘liq ravishda o‘zbek tili leksikasi yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Til taraqqiyotining eng asosiy yo‘llaridan biri **so‘z yasashdir**. So‘z yasash-yangi so‘z hosil qilishdir.

So‘z yasalishi tilshunoslik fanining leksikologiya, grammatika kabi alohida bir bo‘limi hisoblanadi. U turli so‘z turkumlaridagi so‘zlarning yasalish usullari, qonuniyatları, so‘larning tuzilish xususiyatlarini tekshiradi.

Hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘z yasashning ko‘p qo‘llanadigan turi – affiksatsiya usuli (morphologik usul) va kompozitsiya usuli (sintaktik usul)dir. Bu ikki xil usul natijasida sodda, yasama va qo‘shma so‘zlar hosil qilinadi. Bu usullardan tashqari konversiya usuli ham mavjud: *o‘qigan o‘zar* gapida *o‘qigan* sifatdoshi ot o‘rnida (*o‘qigan odam* ma’nosida) qo‘llangan. So‘z yasalishining boshqa usullari ham mavjud.

Affiksatsiya (morphologik) usuli biror so‘zga yasovchi affikslar qo‘shib yangi ma’nodagi so‘z hosil qilishdir. Bu xildagi so‘z yasashda ikki holatni ko‘rish mumkin: 1) yasovchi affikslar yordamida bir so‘z turkumi ichida (bir turidan ikkinchi turini hosil qilish) so‘z yasash. Masalan, *kitobxon*, *betonchi*, *gulzor* kabi so‘zlarda otlar (kitob, beton, gul) ga so‘z yasovchi affikslar (**-xon**, **-chi**, **-zor**) qo‘shish natijasida yasama otlar yasalgan. Shuning uchun bunday so‘z yasalishini **ichki yasalish** deyish mumkin. 2) so‘z yasovchi affikslar qo‘shish natijasida bir so‘z turkumidagi so‘zdan boshqa so‘z turkumidagi yangi so‘z hosil qilinadi. Masalan, *ter*, *chiz*, *tosh*, *chop* kabi fe’llarga – **im**, **-ik**, **-qin**, **-qi** so‘z yasovchi affikslar qo‘shish natijasida *terim*, *chiziq*, *toshqin*, *chopqi* kabi otlar yasalgan. Shuning uchun ham bunday so‘z yasalishini **tashqi yasalish** deyish mumkin. Bir o‘zakka bir yoki bir nechta so‘z yasovchi affikslar ketma-ket qo‘shilishi mumkin. Qiyoslang: *aqli*, *so‘zla*, *ishchi*, *kursdosh*, *suvoqchi* (*suv(a)+q+chi*), *yotoqxona* (*yot+oq+xona*), *terimchilik* (*ter+im+chi+lik*).

Kompozitsiya (sintaktik) **usuli** birdan ortiq so‘zlarni qo‘shib yangi so‘z hosil qilishdir. Bunday usulda yasalgan so‘zlar qo‘shma

so‘z deyiladi. Masalan: *belbog*‘, *qo‘lqop*, *boychechak*, *Gulsara*, *Oysuluv*, *kinoteatr* kabi.

Qo‘shma so‘zlar tarkibi ko‘pincha ikki, ba’zan uch yoki undan ortiq so‘zlardan tashkil topadi: *Gultojixo‘roz*, *aytib berish*, *qo‘ya qolmoq* kabi.

Qo‘shma so‘zlar tarkibiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: ot bilan otning, ot bilan fe’lning, son bilan otning, olmosh bilan fe’lning, ravish bilan fe’lning qo‘shilishidan, shuningdek, boshqa so‘zlarning qo‘shilishidan tuziladi:

Temir yo‘l-ot+ot
O‘rinbosar-ot+fe’l
Uchburchak-son+ot
O‘ziqaynar-olmosh+fe’l
Ertapishar-ravish+fe’l

Juft so‘zlar ham kompozitsiya usuli bilan so‘z yasashning bir ko‘rinishidir. Masalan: *ota-on*, *katta-kichik*, *kundan-kunga*, *o‘g‘il-qiz* kabi.

3-mashq. “Xabar” gazetasining so‘nggi sonidagi bosh maqoladan yasama so‘zlarni ko‘chirib, affikslarni tagiga chizib ko‘rsating

4-mashq. O‘qing, yasama otlarni topib, ularning o‘zagiva affikslarini aniqlab ayting

1. Tolzor chumchuqlarga to‘la, ular tinimsiz chirqillab culoqni qomatga keltiradi. 2. Otabek diqqat va e’tibor bilan dutorni kuzatib javob berdi. 3. Hali ko‘p yashaysiz, ko‘p narsa ko‘rasiz, hozir ham chinakam yoshlarcha ishlayapsiz, otaxon. 4. Uchiraman oq kaptar – intiladi ilgari. Yarqiraydi qanotlar, oq samolyot singari. 5. Eskigina ko‘ylak, chetiga gul tikilgan ro‘molcha, ikki dona tayyorlanmagan xom do‘ppi. 6. Avaz bilan Hulkar yuqorida shildirab tushayotgan tiniq suv bo‘yida, archa bilan ayqashib o‘sgan zirk tagida o‘tirib ovqatlanishadi. 7. O‘ktam jiydazordan o‘tishi bilanoq, paxta maydonlari butun ulkanligi, kengligi, salobat va go‘zalligi bilan qarshisida ochildi. 8. Kimning o‘qishga, o‘rganishga ishtiyoqi zo‘r bo‘lsa, uning kelajagi porloq bo‘ladi.

5-mashq. Quyida keltirilgan qo‘shma va juft so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing. Qo‘shma so‘zlarning yozilish qoidasini tushuntirib bering

Asalari, Yuqori Chirchiq, temir yo‘l, el-yurt, choynak-piyola, beshiktervatar, guldasta, gultojixo‘roz, manmanlik, o‘zboshimchalik, sadarayhon, aka-uka, tun-kun, opa-singil, kinofilm, oybolta, umumxalq, mehnatsevarlik, muzyorar, uchburchak.

6-mashq. Mustaqil ravishda o‘zingiz bitta so‘zga har xil so‘z yasovchi affikslar qo‘sib, yangi so‘zlar yasang. Shuningdek, bir nechta o‘zakka bir nechta so‘z yasovchi affiksni qo‘sib, yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna:

(chi) kurs

(zor) sinf

1)gul (xan) 2) kasb (dosh)

(shan) maslak

(dor) sir

7-mashq. Ushbu matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. O‘zbek tilidagi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuziga e’tibor bering.

О языке

Слова, которыми мы пользуемся в нашей повседневной жизни, образуют очень интересный, своеобразный мир, имеют свои не раскрытые еще тайны и загадки, свою историю.

Язык-это одно из самых важных и самых древних общественных явлений. Представьте себе на минуту совершенно невероятную ситуацию: человечество вдруг оказалось без языка как средства общения людей между собой. На земле воцарился бы неописуемый хаос, последствия которого было бы невозможно предугадать даже приблизительно. Мы можем вообразить себе человечество без транзисторов и телевизоров, без газа и электричества, даже без керосиновой лампы и гусиного пера. Но мы не можем ни на минуту представить себе человеческое общество без языка

...Значение языка в истории нашей цивилизации трудно переоценить. Вот почему язык-это не менее важный предмет исследования, чем, например, небесные тела или свойства минералов, животный и растительный мир или история различных стран и народов.

Известно, что язык изучает специальная наука-языкознание или лингвистика.

2-mavzu. MUZEYLAR – O‘TMISH VA KELAJAK O‘RTASIDAGI KO‘PRIK

Tilning leksik qatlamlari. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Atamalar.

Sohaviy terminlar

Topshiriq. Matnni o‘qing.

Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

Yurtimiz tarixi, xalqimizning boy ma’naviy merosi haqida tushunchaga ega bo‘lish, undan bugungi avlodni xabardor etishda muzeylarning o‘rni katta.

Toshkentda 29 ta muzey bo‘lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi; har yili muzeylarga o‘rtacha 1,5mln.ga yaqin kishi kiradi. Toshkentdagи yirik davlat muzeylari: O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston amaliy san’ati muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi, O‘zbekiston tasviri san’at galereyasi, O‘zbek liboslari galereyasi va boshqalar.

Muzeylarda ilmiy asarlar, qo‘llanmalar va kataloglar nashr etiladi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi, planetariy muzey tipidagi muassasalar qatoriga kiradi. Toshkent korxonalari, muassasalari va o‘quv yurtlarida tashkil qilingan muzeylar davlat muzeyi tarmoqlarini to‘ldiradi. Muzeylar yo‘nalishiga mos tarixiy eksponatlarni to‘plash, ularni o‘rganish va saqlanishini ta’minlash, ilmiy tekshirish ishlarini olib borish, ekspozitsiyalar tayyorlash va ko‘rgazmalar tashkil etish, noshirlik ishlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etadi.

Shu bois, mamlakatimizda mazkur muassasalar faoliyatini takomillashtirish, ularning zamon talablari darajasida ish olib borishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2008-yil 12-sentabrda «Muzeylar to‘g‘risida»gi qonunni qabul qildi. Qonunda «Milliy muzey fondi», «Milliy muzey fondining davlat katalogi», «Muzey», «Muzey ashyosi», «Muzey kolleksiysi», «Saqlash», «E’lon qilish» kabi tushunchalarga bat afsil izoh berilgan. Ushbu hujjat Muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, ularni muzey ashyolari bilan boyitishga zamin yaratdi.

Matn yuzasidan quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima uchun muzeylarni o'tmish va kelajak orasidagi ko'prikkal qiyoslanadi?
2. Toshkentda qanday muzeylar bor? Ular haqida nimalar bilasiz?
3. O'z shahringiz (viloyatingiz)da qanday muzeylar bor?
4. Muzey shaharlar (ochiq osmon ostidagi muzeylar) to'g'risida bilganlaringizni aytib bering.

1-topshiriq. Rasmli aqliy hujum (muzeylar bo'yicha)

Quyidagi O'zbekiston muzeylari nomlarini yozing.



2-topshiriq. Nostandart test (muzeylar va shaharlarni birlashtiring).

Ermitaj	Nyu York (AQSH)
Luvr	Sankt-Peterburg (Rossiya)
Metropolitan	Madrid (Ispaniya)
Prado	London (Angliya)
Britaniya muzeyi	Parij (Fransiya)

1- mashq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Amir Temur maqbarasi

Markaziy Osiyo me’morchiligining noyob asari sifatida e’tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403-yilda boshlanib, 1424-yilda tugatilgan.

Maqbara Amir Temurning taxt vorisi deb e’lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirilgan. Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. Shahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning xonaqosida dafn qilinadi.

Maqbara sakkiz burchakli gumbaz asosida barpo etilgan. Hozirgi zamon mutaxassislarini ham birmuncha o‘ychanlik bilan fikrlashga undaydi. Binoning mo‘tadil haroratini saqlash, Sharqona qurilish uslublari orqali el ardog‘ida bo‘lgan shaxslarni o‘ziga xos hurmat bilan ulug‘lash, ularning buyukligini bejirim bezaklar orqali ifodalash kabi xususiyatlari har qanday kishini lol qoldiradi.

Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbarada (1405-yil) abadiy qo‘nim topgan.

1409-yilda Amir Temurning kenja o‘g‘li, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo otasi – Amir Temurning vasiyatini bajarish uchun otasining ma’naviy piri Mirsaid Barakaning jasadini (turbati) Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi.

1424-yilda Mirzo Ulug‘bek tomonidan maqbara sahniga qabr toshlar qo‘yilib, atrofi nafis marmartoshdan qilingan panjara bilan o‘raldi va ko‘k gumbazli galereya qurilib, ziyyoratxonaga sharq tomonidan kirilishi ta’minlandi.

Maqbaraning ichki tomoni tilla suvi yogurtirilgan bo‘rtma qog‘oz naqshi bilan bezatilgan. Bezaklarda ishlatilgan kompozitsiyada

Qur'oni Karim oyatlari islomiy, handasaviy naqshlar hamda arabiy xattotlik san'atining kaligrafik naqshlari bilan bitilgan.

Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohruh Mirzo ham dafn etilib, temuriylar xilxonasiga aylangan. 1449-yilda Mirzo Ulug'bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan.

Mustaqillik yillarida, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta'mirlash ishlari olib borildi. XIX asrning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

Bugungi kunda ushbu ziyoratgohni ko'rish uchun dunyoning turli burchaklaridan sayohatchilar Samarqandga tashrif buyurmoqdalar.

Savol va topshiriqlar.

1. *Matndagi notanish so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va tarjima qiling.*
2. *Matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering.*
3. *Samarqand shahrida yana qanday tarixiy obidalar bor?*
Ular haqida nimalar bilasiz?

2-mashq. Ushbu matnni tarjima qiling. O'zbek tilida tarixiy so'zlarining to'g'ri ishlatilishiga e'tibor bering.

Лувр

Лувр в Париже, во Франции, один из самых известных и наиболее посещаемых художественных музеев в мире. Коллекция Лувра содержит почти 35 000 экспонатов, которые выставляются на 60 000 квадратных метрах.

Дворец Лувр был построен во время правления династии Капетинов, во время правления Филипа II и, постепенно увеличиваясь в течение долгого времени, став строением, которое известно сегодня. В Лувре находятся некоторые из самых известных произведений искусства в мире, такие как Мона Лиза Леонардо да Винчи, Мадонна и младенец со Св. Анной, и Мадонна в гроте; Клятва Горация Жака – Луи Давида; Свобода, ведущая народ Делакруа; и Венера Милосская Александроса Антиоха.

История музея

Современный Лувр является результатом ряда последовательных строительных проектов, проведенных в течение последних 800 лет. Происхождение названия Лувр не известно. Во-первых, историк Поттер утверждает, что Король Филипп II Французский упомянул строение как L'ouvre (на французском языке: Шедевр), потому что это было наибольшее здание в Париже 13-ого столетия. Во-вторых, Солов предполагает, что название происходит от старого англосаксонского слова – leouar, означающего "замок" или "крепость". Эдвардс предполагал, что основа названия происходит от слова rouvre, что означает дуб, и что говорит о том, что комплекс располагался в дубовом лесу.

Независимая крепостная структура в стиле форта была построена еще при Филиппе Августе, с 1190 года до 1202 года, чтобы защитить Париж от норманнских и английских нападений. То здание было первым зданием, построенным на этом месте, хотя источники того времени именуют ранний Лувр как "Новую Башню", что указывает, что была и более ранняя "Старая Башня". Единственная часть, все еще существующая с того периода, является фундаментом юго-восточного угла строения. Впоследствии многие правители Франции вносили дополнения в комплекс, особенно Карл V, который в 1358 году построил защитную стену вокруг крепости и преобразовал Лувр в королевскую резиденцию, хотя дальнейшие монархи использовали здание, как тюрьму.



З-mashq. Ushbu matnni tarjima qiling.

Buxoro

Buxoro Markaziy Osiyoning ko‘hna shaharlaridan biridir. Bu shahar bundan 2300 yil muqaddam Zarafshon vodiysining quyi


qismida qad ko‘targan. Dastavval daryoning Zarirud nomli quyi tarmog‘ining ikki sohili paydo bo‘lgan. Qishloqning tevarak-atrofi qadimda nihoyatda xushmanzara edi. Butun vodiy bo‘ylab atrofni qoplab yotgan qalin daraxtzor va to‘qayzorlarda turli-tuman yovvoyi hayvonlar, hamda ajoyib qushlar bo‘lgan. Shuning uchun bu o‘lkani «Bug‘-oro», ya’ni «Tangri jamoli» deb aytildi.

Buxoro tarixiy obidalarga boy. Ismoil Somoniy madrasasi (IX-X asrlar), Chashmai Ayub maqbarasi (XII asr), Namozgoh masjidi (XIV-XVI asrlar), Ulug‘bek madrassasi (1417-yil), Masjidi Kalon (1514-yil), Mir Arab madrasasi (1530-yil), Ko‘kaldosh madrasasi (1578-yil), Sitorai Mohi Xosa saroyi va boshqalar Buxoroning dovrug‘ini jahonga taratgan.

Buxoro O‘zbekistonning madaniy va obod shaharlaridan biri bo‘lib qoldi.

3-topshiriq. Buxoro haqida bilganlaringizni aytib bering.

4-topshiriq. Muzey shaharlar mavzusi bo‘yicha klaster tuzihg.



5-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini aytib bering. Matndagi tarixiy leksikaga oid so‘zlarni, joy nomlarini ko‘chirib yozing, ularning ma’nosini izohlang.

Registon

Samarqand-ko‘hna tarixiy obidalarga boy shaharlardan biri. Shunday obidalardan biri-Registon uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug‘bek, Sher dor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug‘bek madrasasi 1471 yilda barpo etilgan. Bu bino Ulug‘bek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatli edi. Uning

monumental peshtoqlari yon gumbazlari va minoralari hozir ham kishini hayratga soladi. Bu madrasa o‘z davrida ilm-fanning yirik markazi bo‘lgan. Madrasada yirik olimlar, jumladan, Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergen.

Sherdor madrasasi 1619-1636 yillarda Samarqand hukmdori Yalanto‘sh Bahodirning topshirig‘i bilan qurilgan, Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular rasmi solingani uchun Sherdor madrasasi deb atalgan.

Tillakori madrasasi 1647-1660 yillarda qurilgan. U zarhal naqshlar bilan ishlangani uchun shunday nom olgan. Mazkur bino qurilishi bilan Registon maydonidagi ajoyib ansambl mukammal shakl olgan.

Hozirda bu yerga minglab sayyoohlar tashrif buyurishadi. Istiqlol davrida madrasalar qayta ta‘mirlandi. Endilikda u yerda ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. "Sharq taronasi" xalqaro musiqa tanlovi fikrimizning dalilidir.

Nazariy ma'lumot

Leksikologiyada so‘zlar, ularning kelib chiqishi (etimologiyasi), ma’nosi va ma’no taraqqiyoti (so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari), turg‘un birikmalar (frazeologik birikmalar) va bo‘shqa shu kabi masalalar o‘rganiladi.

Tilning leksik qatlami

Bizga ma’lumki, so‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga *leksikologiya* deyiladi. So‘zning grammatik ma’no bildiruvchi qo‘shimchalarsiz qismi *leksema* sanaladi. So‘z lug‘aviy ma’no (masalan: qalam-o‘quv quroli), va grammatik ma’noga ega bo‘ladi (masalan: qalam-ot, turdosh ot, birlikda, turlanmagan). Mustaqil so‘zlar ham lug‘aviy, ham grammatik ma’no ifodalaydi; yordamchi so‘zlar esa faqat grammatik ma’noni bildiradi. Lug‘aviy ma’no anglatuvchi til birliklari lug‘aviy birliklar deyiladi. Lug‘aviy birliklar quyidagilar: 1) so‘z; 2) ibora; 3) termin (atama); 4) qo‘shma so‘z; 5) tasviriy ifoda.

So‘zlar bir ma’noli (monosemantik) va ko‘p ma’noli (polisemantik) bo‘ladi. Atoqli otlar va terminlar odatda bir ma’noli bo‘ladi. Masalan: termometr, affiks, prefiks, Andijon, Samarqand, Toshkent. So‘zlarning ko‘p ma’noliligi kontekstda aniqlanadi. Demak, polisemantik so‘zda so‘z bitta, ma’no ko‘p bo‘ladi.

So‘zning o‘z ma’no va ko‘chma ma’nolari. So‘z ma’nosini ko‘chishi natijasida o‘z va ko‘chma ma’no hosil bo‘ladi.

So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘limgan atash ma’nosini o‘z ma’no (denotativ, bosh, atash ma’no)si sanaladi.

So‘zning nutqdagi boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qilinadigan yondosh ma’nosini ko‘chma ma’no (konnotativ ma’no) hisoblanadi. Masalan: odamning qulog‘i o‘z ma’noda, qozonning qulog‘i ko‘chma ma’noda.

Tasviriy ifodalar. Biror narsa, hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi. Tasviriy ifodalar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi: osmon–moviy gumbaz; qora oltin–neft.

Iboralar (turg‘un birikmalar) – ma’noviy butunlik uchun birlashgan yaxlitlangan bo‘lib, bir leksik ma’noni anglatadi. Iboralarga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma’no ifodalaydi. Masalan, ko‘zini yog‘ bosgan iborasi–“mag‘rurlangan”, yog‘ tushsa yalagudek iborasi – “toza” ma’nosini beradi, ammo bu ma’nolarni obrazli tarzda ifodalaydi.

Termin (atama). Fikrni maqsadni yaqqol aniq qilib berishda ma’nosini aniqlashgan, ishlatilish doirasiga cheklangan, aynan bir tushunchanigina ifodalab kelgan so‘zlar termin (atama) deyiladi. (lotinchadan *chegara belgisi*, *chek* ma’nosini anglatadi).

Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi

Har bir tilda o‘zining ishlatilishi doirasiga ko‘ra cheklangan, asosan birgina ma’noga ega bo‘lgan, birgina tushunchani ifodalaydigan so‘zlar ham bo‘ladi. Bunday so‘zlar, xususan fantexnika, san’at, siyosat, til va adabiyot, hunarmandchilik kabi turli sohalarda uchraydi.

Terminlarning muhim xususiyati shundaki, ular ko‘p ma’noli bo‘lmaydi, ko‘chma ma’noda ishlatalishi nihoyatda kam uchraydi. Lekin amaliyotda ba’zi bir terminlar, masalan, hozirgi zamon rus va o‘zbek tillarida operatsiya so‘zi termin sifatida:

- 1) meditsina sohasida yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini solish va shu yo’llar bilan kasallikni tuzatish, davolash ma’nosida;
- 2) harbiy sohada biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma’nosida;
- 3) davlat idoralarda rasmiy muomala (masalan, bank operatsiyasi, pochta operatsiyasi kabi) ma’nolarda qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika

Bizga ma’lum-ki, ommabop uslub-matbuot, radio, teleko‘rsatuvga xos bo‘lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e’lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo‘ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali ifodalanadi. Har bir xabarga ta’sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo‘yiladi-ki, bu hol o‘quvchining diqqatini jalb qiladi.

4-mashq. Gaplarni ko‘chirib, omonim va polisemantik so‘zlarni toping, ularning ma’nolarini tushuntiring.

1. Paxtani begona o‘t bosmasligi kerak.
2. Abdulxay, o‘zing ham to‘rga o‘t, bolam. (U. Nosir.)
3. Qalbimga o‘t yoqma.
4. Shamol daraxt boshlarini sekin tebratdi.
5. U boshini sekin tebratdi.
6. Buloq boshida dam oldik.
7. Yuz nomarddan yuz qaytar, bir mardni hamma maqtar. (Maqol.)
8. To‘dadan ajralgan to‘rga tushar. (Maqol.)
9. Mehmonlarni to‘rga o‘tkazishdi.
10. Gappa bir yosh yigitcha aralashdi.
11. Ko‘ziga yosh oldi.
12. Yoshim o‘ttizga yetdi.
13. Laylak keldi, yoz bo‘ldi, qanoti qog‘oz bo‘ldi. (Qo‘sishiq.)
14. Ukangga tez-tez xat yoz.
15. Tovuqlarga don soch.
16. Sochi oppoq bo‘lib qolgan.
17. Bugun yaxshi tush ko‘rdim.
18. Otdan tush.
19. Chaqmoq chaqdi.
20. Yong‘ojni tish bilan chaqmoq sog‘liq uchun zarar keltiradi.

5-mashq. Quyidagi so‘zlar ishtirokida gap tuzing. Bu so‘zlar boshqa gapdagi shunday so‘zlarga omonim bo‘lib kelsin.

Yer, jon, soz, tush, soch, qirq, yosh, kul, oy, ot, son, sog‘, shim, toy, et, yara, bez, , oq, oshiq, osh.

Topshiriq. Matnni o‘qing.

Aloqa tarixi muzeyi

Har yilning 18-mayi Xalqaro muzeylar kuni sifatida dunyo miqyosida nishonlanishi muzeylarning hayotimizda o‘ziga xos o‘rnini, ahamiyati borligidan dalolatdir. Haqiqatdan ham, muzeylar o‘tmishni hozirgi kun va kelajak bilan bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik sifatida muhim o‘rin tutadi. Muzeyga yig‘ilgan osori atiqalarni tomosha qilar ekan, har bir inson ajdodlarimiz qay tarzda hayot kechirganlari, tarqqiyot qay holatda rivojlanib borgani, bu yo‘lda kimlar o‘zining munosib hissasini qo‘sghanligiga guvoh bo‘ladi.

Shuning uchun ham muzeylarga odamlar, ayniqsa, yoshlari qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiruvchi vosita sifatida qaraladi va katta ahamiyat beriladi. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi rahbarlarida sohaga oid muzey tashkil etish fikrining paydo bo‘lishida ham ana shu maqsad mujassam edi.

Muzey qurilishi O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tashabbusi bilan aloqa sohasi korxonalari hisobiga qurildi. Bir yil muddat ichida zamонавиy uch qavatli bino bunyod etildi, unda milliy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlar va rivojlanish bosqichlari keng ekspozitsiyasi joylashtirildi. Muzey kolleksiyasini to‘plashda o‘zi uchun qimmatli tarixiy buyumlarni xolisona taqdim etib jamoatchilik ham o‘z hissasini qo‘shti.

Shunday qilib, Toshkent shahrida mamlakatimizda telekommunikatsiya sohasi tashkil etilishi va rivojlanishi yo‘lini namoyish etuvchi, 400 dan ortiq turli eksponatlardan jamlangan Aloqa tarixi muzeyi o‘z faoliyatini boshladi.

Uch qavatli muzey turli ekspozitsiyalarga boy: misol uchun yuqorida tasvirlangan, bir necha yuz yillar davomida foydalilanigan pochta aravasi maketi birinchi qavatda joylashtirilgan. Maket doimo

o‘z ishining ustalari deb hisoblangan Qo‘qonlik hunarmandlar tomonidan haqiqiy kattaligida tayyorlangan. Bundan tashqari, muzeyning shu qavatida mutaxassislar, olimlar, tashrif buyuruvchilar o‘rtasida muloqot va norasmiy uchrashuvlar hamda munozaralar o‘tkazish joyi tashkil etilgan.

Savol va topshiriqlar

- 1. Matndagi aloqa tarixiga doir termin va iboralarni ko‘chirib yozing va ularning ma’nosini izohlang.*
- 2. Matnning mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.*
- 3. Matnni qismlarga bo‘lib, har bir qismni nomlang.*
- 4. Muzeydagi biror eksponat haqida so‘zlab bering.*

6-topshiriq..”Termin” so‘zi namunasiga ko‘ra “Eksponat” so‘ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

- 1-qator - tushuncha - ot
- 2-qator - 2 so‘zdan iborat sifat
- 3-qator - 3 so‘zdan iborat fe’l
- 4-qator - 4 so‘zdan iborat munosabat
- 5-qator - 1 so‘zdan iborat sinonim

Namuna:

1. Termin
2. Iqtisodiy, sohaviy
3. Anglatadi, ishlatiladi, aniqlaydi
4. Birgina ma’noga ega bo‘lgan so‘z.
5. Atama.

7-topshiriq. To‘g‘ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing

“Maxsus leksik qatlamlar”

1. Neologizmlar	8. Ijtimoiy-siyosiy so‘zlar
2. Kompyuterga oid so‘zlar	9. Sinonimlar
3. Bosh harflar bilan yoziladigan so‘zlar	10. Varvarizmlar
4. Dialektizmlar	11. Teatr, kino, matbuotga oid so‘zlar
5. Onamastika	12. Antonimlar
6. Jargon so‘zlar	13. Sud-huquqqa oid so‘zlar
7. Omonimlar	14. Kasb-korga oid so‘zlar

Javob:

8-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Ichanqal'a

Ichanqal'a Xiva shahrining ramzidir. Ichanqal'a «ichki qal'a» demakdir. Bu nom shaharning tashqi devori qurilgach qabul qilingan.

Ichanqal'a maydoni o‘rta asrlardagi Xiva shahri maydoniga to‘g‘ri keladi. U mustahkam devor bilan o‘ralgan. Devorning balandligi 7-8 metrga teng, qalinligi 3-6 metr. Shimoliy darvoza-

Bog‘cha darvoza deb ataladi va Urganch yo‘liga olib chiqadi. Sharqiy darvoza «Polvon darvoza» deb atalib, Amudaryo va Xazoraspga olib chiqadi. Janubiy va G‘arbiy «Ota darvozalar» 1920-yillarda nurab ketgani sababli buzib tashlangan. 1975-yilda esa qayta o‘z holiga keltirilgan.

Ichanqal’ a ichkarisida noyob me’morchilik obidalari va hovli-joylar saqlanib qolgan.

Ichanqal’ a devorlari asosan paxsadan qurilgan. Ba’zi orinlarda xom g‘ishtlar ishlatilgan. Arxeologiya tekshiruvlari davomida qal’ a devorlari yonida qadimiy Xorazm me’morchiligining qoldiqlari topilgan.

Bu noyob san’at durdonasi davlat himoyasiga olingan bo‘lib, uni ta’mirlash ishlari olib borilyapti.

9-topshiriq. ”Termin” so‘zi namunasiga ko‘ra “lug‘at” so‘ziga sinkveyn tuzing:

“Sinkveyn” (**5-qator**) **texnikasi**:

- 1-qator-tushuncha-ot
- 2-qator-2 so‘zdan iborat sifat
- 3-qator-3 so‘zdan iborat fe’l
- 4-qator-4 so‘zdan iborat munosabat
- 5-qator-1 so‘zdan iborat sinonim

10-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid qanday atamalarni bilasiz?

11-topshiriq. Ekspress test topshiriqlarini bajaring:

Jumlalarni davom ettiring.

1.leksikologiya deyiladi.
2. Ibora bu
3. Lug‘aviy birliklar quyidagilar:
4. So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘limgan atash ma’nosi.....
5.tasviriy ifoda deyiladi.
6. Termin (atama) lotinchadan ma’nosini anglatadi.

3-mavzu. ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM

O‘zbek tilida sinonimlar. Til va terminologiya

Topshiriq. Matnni tinglang va uning mazmuni asosida quyida keltirilgan jadvalni to‘ldiring.

Oksford universiteti

Oksford universiteti Angliyaning Oksford shahrida joylashgan, ingliz tilida gaplashuvchi xalqlar orasidagi eng qadimi universitet hisoblanadi. Universitet jahondagi yetakchi akademik oliygoh sanaladi. Oliygohning tashkil etilgan sanasi aniq bo‘lmasa-da, u taxminan XI asrda tashkil etilgan deb sanalmoqda. 1209-yilda talabalar va shaharlik aholi o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik tufayli Oksfordning bir nechta akademiklari shimoli-sharqqa, Kembrijga ko‘chib ketadi va u yerda yangi universitetga asos solishadi. Shu tariqa Kembrij universiteti tashkil topgan. Hozirga qadar bu ikki oliygoh o‘zaro raqobatdadir. Oksford universiteti Russell Group, Koimbri guruhi (Yevropa universitetlari guruhi), Yevropa universitetlari Ligasi, Europaeum kabi tashkilotlarning a’zosi sanaladi. O‘qitish sifatiga ko‘ra dunyodagi kuchli o‘nlikka kiradi.

Oksford shahri XII asrning so‘ngiga kelib yirik ta’lim dargohiga aylangan edi. 1167-yilda Parij universitetida chet elliklar bilan bog‘liq ko‘ngilsizliklar ingliz olimlarining Oksfordga qaytishiga sabab bo‘ldi. Aynan ular tufayli Universitet tashkil topgan. 1188-yilda tarixchi Jerald Uels ilk ma’ruzani o‘qigan bo‘lsa, chet elliklardan Emo Frisland 1190-yilda birinchi bo‘lgan.

Universitetni ko‘pgina Britaniya universitetlari kabi kansler boshqaradi. U umrbod bu lavozimni egallaydi. Barcha xodimlar va tashkilotlar universitet kundalik faoliyatini ta’minlaydi. O‘qish uch semestr davom etadi: kuzgi – oktabrdan dekabrgacha, qishki – yanvardan martgacha va yozgi – apreldan iyulgacha.

Oksford markaziy kutubxonasi Bodlian kutubxonasi deb ataladi. Unga 1598-yilda ser Tomas Bodli tomonidan asos solingan. Ommaviy foydalanishga esa 1602-yildan boshlab ruxsat berilgan. Bu yerda 8 million tomdan ortiq kitoblar mavjud. Kutubxona Buyuk Britaniyada kattaligiga ko‘ra Britaniya kutubxonasidan keyin ikkinchi o‘rinda

turadi. Shuningdek, universitet tarkibida muzey va galereya faoliyat yuritadi. 1683-yilda asos solingan Eshmolin muzeyi Buyuk Britaniyadagi eng qadimiy muzey, jahondagi eng birinchi universitet tarkibidagi muzey hisoblanadi. Bu yerda san`at va arxeologiya buyumlari namoyishga qo‘yilgan. Ular qatorida Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Pablo Pikasso kabi mashhur rassomlar asarlarini ham uchratish mumkin.

Oksford bitiruvchilari orasida 25 ta Britaniya bosh vaziri (ular orasida Uilyam Gladstoun, Gerbert Askina, Klementa Ettli, Garold Vilson, Margaret Tetcher va Toni Bleyer kabilar bor), Norvegiya qiroli – Qirol Garald V, Iordaniya qiroli – Qirol Abdulla II, Avstraliyaning uchta bosh vaziri (Jon Gorton, Malkom Freyzer, Bob Xouk), ikki Hindiston bosh vaziri (Manmoxan Singh, Indira Gandhi), Zulfiqor Ali Bxutto, Benazir Bxutto va Bill Clinton kabi jahonga mashhur kishilar bor. Nobel mukofoti laureati Entoni Jeyms Legett, aktyorlar: Xyu Grant, Keyt Bekinseyl, Dadli Mur, Maykl Polin, Terri Jons kabilar ham o‘z vaqtida Oksford talabalari hisoblanishgan.

Matn yuzasidan topshiriq.

1. *Matnga savollar tuzing. Uning mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.*
2. *Jahondagi qaysi yetakchi oliv ta’lim muassasalarini bilasiz?*
3. *Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqida taassurot yozing.*

1-topshiriq. BBB texnologiyasi. Matn mazmuni bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

1-mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

МГУимениМ. В. Ломоносова

Московский государственный университет имени М. В. Ломоносова, основанный в 1755 году, считается одним из ведущих университетов России. С начала своего основания вуз является центром академической жизни страны. МГУ – один из двух отечественных вузов, ходящих в основные международные рейтинги университетов. В МГУ обучается более 40 тысяч студентов, 20% из которых – иностранцы. В состав МГУ входит 39 факультетов, 15 научно-исследовательских институтов, 4 музея, 6 филиалов, около 380 кафедр, Научный парк, Ботанический сад, Научная библиотека, издательство, типография, Культурный центр и школа-интернат. Основателем МГУ считается Михаил Ломоносов, именем которого Университет был официально назван в 1940 году. Изначально вуз состоял из трёх факультетов: философского, медицинского и юридического. Все студенты начинали своё обучение как философы и в последствии выбирали специализацию. В дореволюционной России в Университет могли поступать все свободные граждане, в независимости от их сословия. В стенах МГУ учились и преподавали многие выдающиеся учёные и государственные деятели, включая 11 нобелевских лауреатов. Среди них Б.Л. Пастернак, Л.Д. Ландау, А.Д. Сахаров и М.С. Горбачёв.



Qaysi universitet eng yaxshi?

Oxirgi yillarda xalqaro miqyosda oliy o‘quv yurtlari darajasini aniqlovchi tadqiqotlar o‘tkazish ommalashyapti.

O‘tkazilayotgan reytinglarda sayyoramizdagi universitet va institutlarga turli mezonlardan kelib chiqib baho berilmoqda.

Xitoyning Szyao Tun universiteti 2003-yildan buyon dunyoning eng yaxshi oliy o‘quv yurtlari ro‘yxatini tuzib chiqadi. Garchi reytinglar uyuştirish G‘arbda keng tarqalgan va Xitoy davlatiga xos bo‘limgan hodisa sanalsa-da, Szyao Tun o‘tkazayotgan tadqiqot

natijalari ilmiy doiralarda jiddiy qabul qilinadi. Jumladan, 2007 yilgi tadqiqot ham ko‘pchilikning diqqatini tortmoqda.

Garvard universiteti xitoylik tadqiqotchilar tomonidan 2007-yilda sayyoramizning eng yaxshi oliygohi deb topilgan. 500 ta oliv o‘quv yurti nomi zikr qilingan reytingning kuchli beshligidan Stenford, Kaliforniya, Kembrij universitetlari hamda Massachusetts texnologiya instituti o‘rin olgan.Szyao Tun tuzgan ro‘yxatga Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi oliygohlaridan Moskva davlat universiteti kirgan.Lomonosov nomidagi universitet reytingda 76-o‘rinni band etgan. Xitoylik tadqiqotchilar xulosasiga ko‘ra, Amerika, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniya eng nufuzli oliyohlarga ega bo‘lgan davlatlar sanaladi.

Ayrim tashkilotlar uchun o‘ziga xos mezon vazifasini ham bajarayotgan ushbu ro‘yxat qanday asosda tuzilishi o‘quvchini qiziqtirishi tabiiy. Xitoy universiteti oliyohlarni o‘rinlarga taqsimlashda ta’lim sifati (10 foiz), pedagog xodimlar kasbiy darajasi (40 foiz), ilmiy tadqiqot ko‘rsatkichlari (40 foiz) va umumiyoq raqamlar (10 foiz) ga e’tibor qaratadi.

“Vebometriks” guruhi tomonidan tuziladigan yillik reyting ham katta ilmiy doiralarda alohida e’tiborga olinadi.Ushbu ro‘yxatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u oliv o‘quv yurtlarining xalqaro kompyuter tarmog‘idagi faoliyatiga asoslanadi. Ya’ni, oliyohlarning veb-saytlari, elektron kutubxonalar bazasi, xalqaro tarmoqqa kiritilayotgan darslik, qo’llanma va boshqa ilmiy nashrlar asosida 4000 ta ilm maskaniga baho beriladi. “Vebometriks”ning yaqindagina e’lon qilingan 2007 yilgi reytingida birinchi o‘rin Stendford universitetiga berilgan.Ikkinchi o‘rinni esa Massachusetts texnologiya instituti egallagan. Shu tariqa Kaliforniya, Garvard, Pensilvaniya kabi nomdor universitetlar nufuzli reytingning old o‘rinlarini band etgan.

Shuningdek, «Times» gazetasining THES loyihasi asosida ham jahonning nufuzli oliyohlari ro‘yxatini e’lon qilish an’anaga aylangan. Ushbu ro‘yxatda nisbatan kamroq – 200 ga yaqin oliv o‘quv yurti nomi kiritiladi.Bu esa tanlov nufuzini yanada oshiradi.THES ro‘yxati dunyo miqyosida mutaxassislar o‘rtasida o‘tkaziladigan ijtimoiy so‘rov natijalariga asoslanadi.Masalan, ushbu loyiha asosida o‘tgan yilgi reytingni tuzish uchun 5000 ga yaqin mutaxassis fikri o‘rganib chiqilgan. To‘g‘ri, THESning 2007-yilgi reytingi hozircha

e'lon qilinganicha yo'q. Lekin eslatma sifatida o'tgan yili ro'yxatda Garvard, Kembrij, Oksford, Massachusets va Yel kabi oliy o'quv yurtlari yuqori o'rirlarda qayd etilganini aytish mumkin.

Aytish kerakki, yuqorida zikr qilingan barcha reytinglar ham mavjud voqelikni to'la va haqqoniy ifodalaydi deb bo'lmaydi. Deylik, Szyao Tun universiteti o'tkazadigan tadqiqotlarda gumanitar fanlarga kam e'tibor beriladi.“Vebometriks” guruhi esa faqatgina internet resurslariga asoslanadi.THES esa ro'yxatni shakllantirishda faqat ekspertlar xulosalari bilan cheklanadi.

Shundan ham bilish mumkinki, o'tkazilayotgan tadqiqotlar dunyo mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlari faoliyatiga u yoki bu nuqtai nazardan baho beradi.Aslida e'lon qilinayotgan turli nomdag'i reytinglarning foydali jihatni ham shunda.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1. *Matnni o'qing va undagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.*
2. *Matnga reja tuzing va uni reja asosida so'zlab bering.*
3. *Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida yozma ma'lumot tayyorlang.*
4. *Matndan ta'lim sohasiga oid terminlarni ko'chirib yozing.*
5. *“Ta'lim” so'ziga **sinkveyn** tuzing.*

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

- 1-qator-tushuncha-ot
- 2-qator-2 so'zdan iborat sifat
- 3-qator-3 so'zdan iborat fe'l
- 4-qator-4 so'zdan iborat munosabat
- 5-qator-1 so'zdan iborat sinonim

Til va terminologiya

Tilda shunday so‘zlar borki, ular ma’lum bir fan (masalan, tilshunoslikka oid *tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqllovchi, aniqlanmish, sifatlovhi, sifatlanmish, to‘ldiruvchi, hol, gap, undalma* va h.), texnika (*kalit, ko‘targich, qisqich, gayka, shayba, bolt* va h.), sport (*to‘p, to‘r, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol* va h.), madaniyat (*sahna, musiqa, qo‘sinq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq* va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so‘zlar atamalar (terminlar) deb yuritiladi. Ularni o‘rganuvchi soha esa atamashunoslik (terminlogiya) deb ataladi.

Terminologiya keng ma’noda leksikaning bir qatlami bo‘lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida, fan, texnika, san’at va adabiyot kabi sohalarida qo‘llaniladigan terminlarning majmuidir. Terminologiya tor ma’noda fan yoki texnika, adabiyot, san’at yoki ishlab chiqarishning ma’lum bir sohasiga oid terminlar tizimining yig‘indisini tashkil etadi.

Atamashunoslikning o‘rganish birligi atamalardir. Hech bir fan, kasb-hunar tarmog‘i atamalarsiz ish ko‘ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikning muammolari bo‘lib qolmay, u barcha fan va kasb-hunarning ham masalasidir.

Atama (termin)larni mumkin qadar milliylashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish, shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish hozirgi atamashunosligrimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq orasida keng iste’molda bo‘lgan *radio, aeroport, institut, avtobus, telefon, samolyot* kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda buyuk burilishlar bo‘lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi: *birja, diler, aksiya, audit, auditor* kabi. Ana shu yo‘llar bilan atamalar izga solinmoqda.

Har bir tilda, jumladan, o‘zbek tilida terminlar quyidagi yo‘llar bilan hosil bo‘ladi.

1. Har bir xalqning o‘z til boyligidan, undagi turli imkoniyatlaridan foydalanish assosida, *uchburchak*, *urg‘u*, *qo‘lyozma*, *ega*, *kesim*, *aniqlovchi*, *qo‘shimcha*, *so‘zlashgich* kabilar.

2. Chet tillardan, ayniqsa, rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan tayyor terminlarni qabul qilish bilan, *plyus*, *minus*, *fonema*, *biologiya*, *atlas*, *atom*, *gramm*, *leksika*, *magnit*, *kredit*, *artikulyatsiya* kabi.

Sinonimlar – birlashtiruvchi ma’nosi bir, qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlari va yozilishi har xil bo‘lgan so‘zlar. Masalan: yuz, bet, aft, bashara va h. k. Bu so‘zlar aslida bir tushunchani ifoda etib, shu tushuncha doirasidagi qo‘shimcha (emotsional) ma’no bo‘yog‘i bilangina o‘zaro farq qiladi. Sinonimlar odatda bir so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Masalan: do‘s^t, o‘rtoq, jo‘ra, birodar (ot turkumi); *yo‘ldosh*, *hamroh* (ot turkumi); *yaxshi*, *durust*, *tuzuk* (sifat turkumi) kabi.

Bir ma’no atrofida uyushayotgan sinonim so‘zlar **sinonimik qator**, shu qatorda nisbatan betaraf ma’no ifoda etgan sinonim esa **dominanta** deb ataladi. *Chunonchi*, *chiroyl*i**, *go‘zal*, *zebo*, *ko‘hlik*, *suluv* kabi so‘zlar bir sinonimik qatorni tashkil qiladi, shu qatordagi *chiroyl*i** so‘zi esa nisbatan betaraf bo‘lganligidan dominanta deb qaraladi.

So‘zlarning sinonimik qatorlarini bilish qanchalik zarur bo‘lsa, ularning biri o‘rnida ikkinchisini to‘g‘ri qo‘llash ham shunchalik ahamiyatlidir. Kishi o‘z nutqida sinonimlardan qanchalik ko‘p va o‘rinli foydalansa, uning nutqi ixcham, nafis va mazmundor chiqadi, tinglovchining, hamsuhbatining diqqatini o‘ziga jalb qila oladi, demak, nutqning ta’sirchanligi ham oshadi.

Shuning uchun ham so‘z san’atkorlari o‘z asarlarida sinonimlardan unumli foydalanadilar.

1- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qib, bir-birlariga sinonim bo‘lganlarini alohida-alohida guruhab ko‘chiring, ular ishtirokida gap tuzing.

Do‘s^t, yuz, ko‘k, kuy, katta, qoshida, kechikmoq, chopmoq, urmoq, osmon, o‘rtoq, aft, bashara, ovqat, mo‘l, buyuk, yonida, hayallamoq, yugurmoq, ulug‘, og‘a-ini, o‘lka, do‘pposlamoq, chexra, dam, sovuq, issiq, ayamoq, ayoz, iliq, tin, to‘xtamoq, charchamoq, mayda, tasalli, ildam, teng, taxmin, jadal, taskin, tez, baravar, shitob,

chama, faraz, barobar, tusmol, shaxt, sodiq, sotqin, vafodor, xoin, sirpanchiq, sekinlashmoq, toyg‘oq, susaymoq.


3-mashq. Quyidagi sinonimik qatorlardagi har bir so‘z ishtirokida og‘zaki gap tuzing va ma’no farqlarini tushuntiring.

1. Yaxshi, durust, tuzuk.
2. Do‘s, o‘rtoq, oshna, birodar, yo‘ldosh, hamroh, og‘a-ini.
3. Yuz, bet, chehra, aft, bashara, nusxa.
4. Tez, ildam, chaqqon.
5. Katta, ulkan, ulug‘, buyuk.
6. Ekmoq, o‘tqazmoq, tikmoq.
7. Yomon, yaramas, rasvo, nobop.
8. Usta, chevar, chechan.
9. Ortiq, oshiq, ziyod.
10. Qurmoq, solmoq.
11. Qaltiramoq, dirillamoq, titramoq, dildiramoq.
12. Shirin, mazali, totli.
13. Go‘zal, chiroyli, suluv, zebo, ko‘hlik,
14. Mo‘min, yuvosh, qobil.
15. Qari, keksa.
16. Qiyshiq, qing‘ir.
17. Qahramon, botir, mard.
18. Yumshoq, muloyim.
19. Qiyin, murakkab.
20. Sabr, toqat, chidam.

4-mashq. Quyida berilgan so‘zlardan terminlarni ajratib yozing va ularni qaysi sohaga tegishli ekanligini aniqlang.

Mashg‘ulot, dialog, matn, kesim, dastur, tenglama, fonema, unli, undosh, ko‘p qirrali, kredit, kitob, televizor, internet, uchburchak, vaziyat, pul, narx, qiymat, cheksizlik, kompyuter, magniy, integral, kislorod, algoritm, jadval, o‘lcham, suyuqlik, qirra, texnika, modda, natija.

3-topshiriq. Klaster usulidan foydalanib **ta’lim** tushunchasining xususiyatlarini ochib bering.



**4-mavzu. KITOB MUTOLAASI. ADABIYOT-
MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA. MEN
SEVGAN ASAR**

Nutq uslublari. Badiiy uslub. Badiiy tasvir vositalari

Topshiriq. Matnni o‘qing

Kitob-tafakkur ko‘zgusi

O‘zbek xalq adabiyotining tarbiya usullarida alohida ta’kidlanishicha, kitob-insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. Kitob – fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai. Kitob – nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas. Xalq kitobni ana shunday deb tushunadi. Darvoqe, xalq o‘rtasida kitobga, u diniymi, dunyoviyimi – baribir, ma’naviy tafakkur, xazinalar maskani, odob-axloq go‘sashi – kutubxonaga hurmat – e’tibor beqiyos. Ha, xalq qadim zamonlardan boshlab kitobni hayot darsligi, mo‘jiza, axloq – odob dasturi deb biladi.

Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoy xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Buning isboti uchun xalqimizning merosidan, kundalik hayotidan, og‘zaki ijodi asarlaridan hamda an’naviy tarbiya usullaridan juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Darhaqiqat, O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi yaratgan betakror moddiy va madaniy boyliklarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, ular orasida, M. Gorkiy ta’biri bilan aytganda, “...baxt va qudratli istiqbol yo‘lida odamzod yaratgan, ehtimol, eng murakkab va mo‘jizalar ichidagi eng buyuk mo‘jiza” bo‘lgan kitobning o‘ziga xos faxrli o‘rinni egallab kelganini ko‘ramiz. Xalqimiz ilm va fan, adabiyot va san’atga oid nodir qo‘lyozma – kitoblari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Dunyoning qaysi bir mashhur kutubxonasida bo‘lmang, xalqimizning ulug‘ allomalari – tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarning qo‘lyozmalarini ko‘rish mumkin.

O’tmish zamonlardan tortib shu kungacha ota-bobolarimiz kitobning g‘oyatda mashaqqatli mehnat evaziga dunyoga kelishini yaxshi anglab, uning oyoq osti bo‘lishiga, hatto biron-bir varag‘ining ham bekorga nes-nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Kitobga muhabbat, uni oqishga ishtiyoyq, undan bahramand bo‘lish istagi kishilarga tinchlik bermagan.

Naql qiladilar: o‘tgan zamonda bir humkdor vaziru ulamolarini chaqirib, “Dunyoda eng zo‘r, kerakli, hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?” deb savol beribdi. Kishilar u deyishibdi, bu deyishibdi; birovi dunyoda eng zo‘r narsa – qilich desa, ikkinchisi eng keraklisi non, debdi. Hamma narsadan xabar beruvchi narsa “Oynai jahon”deyuvchilar ham topilibdi.

-Uch kun muhlat beraman, -debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg‘azab bo‘lib.

Qo‘shti podshohlikda ta’rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashayotganligidan vazirning xabari bor ekan. Vazir: “Podshohning savollariga shu donishmanddan boshqa hech bir kishi javob topa olmaydi”, -deb o‘ylabdi-da, uni izlab topib podshohning oldiga olib kelibdi.

Podshohning birinchi savoliga “Kitob!”-deb hech ham ikkilanmay dadil javob beribdi donishmand. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir. Bilimli esa yengilmasdir.

-Savolningizga to‘g‘ri javob topdi, - deyishibdi a’yonlari xursand bo‘lishib.

-Dunyoda eng kerakli narsa nima?

-Kitob! – debdi donishmand hech ikkilanmay.

-Kitob?!-ajablanibdi hukmdor.

-Ha, dunyoda eng kerakli narsa kitob, - takrorlabdi so‘zini donishmand. – Inson uchun hayotda ikki narsa eng mo‘tabar va aziz. Bu non bilan kitob. Shu boisdan ham non qanchalik mo‘tabar sanalsa, kitob ham shunchalik aziz. Non rizq-ro‘z, dasturxon ko‘rki, hayot barakasi. O‘tmishdan hikoya qiluvchi-tarix, bugunni aks ettiruvchi ko‘zgu, ertangi kunni aytib beruvchi mo‘jiza esa kitobdir. Poklanish, iyomon butunligi, ruhiy boylik ham kitobdandir. Kitob insonning maslahatgo‘yi, doimiy hamrohidir. “Kitob ko‘rmagan odam nodondir, kitob kirmagan uy qorong‘u zimistondir”, -deydi donishmandlar.

-Shohanshoh, donishmand bu savolningizga ham to‘g‘ri javob qildi, -deyishibdi saroy ahli.

-Suvu-quruqlikdagi hamma joylar, dunyodagi ezgu elatlar haqida xabar beruvchi ham seningcha kitobmi? – achchiqlanibdi hukmdor.

-Ha, kitob, - dadil javob beribdi donishmand. – Dunyoni shundoqqina ko‘z oldingizga keltirib qo‘yadigan ham, hech ko‘rmagan va bir umr ko‘rolmaydigan kishilar hamda joylar bilan tanishtiradigan ham shu kitobdir. Mana meni olib ko‘ring. Men tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imdan boshqa hech bir joyda bo‘lmaganman. Ammo Marvdan-Mashriqqacha, Yamandan – Yasargacha yaxshi bilaman, desam maqtanmagan bo‘laman. Yer yuzida jamiki odamzod bor - ularning hayoti, odatlari, rasm-rusumlaridan ozmi-ko‘pmi xabardorman. Bunga ana shu kitob orqali erishganman. Qur’oni karim, hadisi sharifning mo‘jizasini aytmay qo‘ya qolaylik.

Podsho: “Saroyimda qolib bosh maslahatgo‘yim bo‘l”, - deb qanchalik yalinmasin, donishmand ko‘nmabdi, undan olgan oltinlarga esa bozordan kitob xarid qilib, qishlog‘iga qaytibdi...

Mo‘jizalar olami bo‘lgan kitobni ulug‘lovchi, uning qadr-qimmatiga yetishni ta’kidlovchi bunday afsonalar xalq o‘rtasida ko‘p. Ular xalq an’anaviy pandnomasining eng zarrin sahifalarini tashkil etadi. Xalq kitob haqida naql-rivoyatlarga emas, qanchadan-qancha maqollar, aforizmlar, topishmoqlar, hikmatlar ham yaratganki, bu kishilarning kitobga, ilm-fanga azaldan chanqoqligini ifodalaydi:

Qatra yig‘ilib daryo bo‘lur, kitob o‘qib dono bo‘lur.

Kiyim ustingni bezaydi, kitob-aqlingni.

Kitob-ko‘zgu, unda olamni ko‘rasan.

Oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim kitobdan.

Kitobsiz uy - quyoshsiz kun.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.


1. *Matnni o‘qing va undagi notanish so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Ularning rus tilidagi tarjimasini toping.*

2. *Matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*

3. *Kitob haqida yana qanday maqol va hikmatli so‘zlarni bilasiz?*


4. *Quyida berilgan so‘zlarga sinonimlar toping: bilim-..., fikr-..., donishmand-..., do‘sst-..., aziz-..., aqli-.... .*

1- topshiriq. Klaster usulidan foydalanib kitobning xususiyatlarini ochib bering.



2-topshiriq.“Nima uchun?” texnologiyasi

Nima uchun hozirgi kunda kitob o'qishga qiziqish kamayib bormoqda? Fikrlaringizni quyidagi sxemada aks ettiring.



Nazariy ma'lumot

Nutq uslublari. Badiiy nutq uslubi, uning xususiyatlari.

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni **nutq** sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatick vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ldi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: **so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.**

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik

ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdag'i san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Badiiy tasvir vositalari

So'zlovchi yoki yozuvchi o'zi bayon qilayotgan nutqni tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qiladi. Ko'pincha biror narsa belgi xususiyatini tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shunday vaqtarda so'zlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirishdan qochib, boshqa vositalardan foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviri vositalar deyiladi.

Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlikni ta'minlash uchun biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda umuman ko'chma ma'noda ishlatish **troplar** deyiladi.

1. E p i t e t-(gr.izohlash)-badiiy ifodalilikni kuchaytirish uchun ishlatiladi: oltin kuz, baxmal qir, po'lat ot kabi.

2. O'x sh a t i sh-narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berish;

Yoqut payola, suvgaga tushgan mushukday, xuddi shunday va hokazo.

3. M e t a f o r a-(gr.ko‘chim)-obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish.

a) sodda metafora: gumbaz, ilon, lochin...

b) kengaygan metafora; zangori kema, oq oltin, po‘lat qush kabi.

4. M e t o n i m i ya-(gr. boshqacha nom berish) tashqi va ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisalarning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi.

Metonimiya ko‘rinishlari quyidagicha:

narsa (idish) ichidagi narsaning ma’nosи o‘sha narsa (idishga) o‘tkaziladi: Bir tovoq (palov) bir kosa (lag‘mon), bir piyola (choy).

Muallifning nomi asarning nomi bilan qo‘llanadi: Hamzani o‘qimoq, Cho‘lponni yodlamoq kabi.

Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajarishdagi vosita, qurol bilan almashtiriladi: A.Qahhor-qalami o‘tkir yozuvchi, uning qo‘li yengil.

Biror narsa u yasalgan material bilan almashtiriladi: Atlas kiydi, qog‘ozini tekshirishdi va h.

Ma’lum mamlakatda, davlatda yoki ma’lum o‘rinda yashab turgan kishilar ma’nosи shu yerga, davlat yoki mamlakatga ko‘chiriladi: Majlisga butun qishloq yig‘ildi va h.k.

Aniq tushuncha nomi o‘rnida mavhum ma’noli ot qo‘llaniladi: Majlis raisga qaradi: yig‘ilish qaror qildi va h.

5. S i n e k d o x a -narsalarning son yoki butun qismlari orasidagi munosabatning nazarda tutilishi.

Sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

butun o‘rnida qism qo‘llanadi.

Mo‘ylov kulib qo‘ydi.Uning, har qalay, yopig‘i bor.

Qism o‘rnida butun qo‘llanadi:

Besh qo‘l baravar emas.Dasturxonga qarang.

Jins o‘rnida tur ishlatiladi: pushka-qurol, bedana-qush, sazan-baliq kabi.

A l le g o r i ya (gr. piching, kinoya)-mavhum tushunchalarni aniq narsa bilan almashtirish. Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

S i m v o l-hayotiy voqeа, tushuncha va narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z: tong-yoshlik, tun-baxtsizlik, qora-motam.

I r o n i ya (gr.kesatik)-biror shaxs yoki uning qilig‘i, hodisa ustidan kulish: Kam bo‘lmang! Qayt! Bopladingiz!

A n t i f r a z a-biror shaxs yoki narsaga xos bo‘lgan u yoki bu xususiyat kulgili ohang bilan inkor qilinadi: shirin odam, nimjon ayol (semiz) kabi.

S a r k a z m-(gr. achchiq) shaxs, narsa yoki hodisaning salbiy tomonini ko‘rsatish: farishta ayol, bejirim nusxa, yoqimli ish kabi.

1-mashq. Matnni o‘qing. Badiiy uslubga xos gaplarni toping va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Kitob haqida qiziqarli faktlar

- Imom al-Buxoriy 600000 hadis to‘plab, shundan 100000 sahih, 200000 zaif hadisni yodlagan. Bu hadislarni to‘plashda 90000 dan oshiq kishining huzurida bo‘lib chiqqan.
- Ayollar erkaklarga qaraganda ko‘p (68 %) kitob sotib oladilar.
- Dunyoda sotiladigan kitoblarning yarmidan ko‘pini 45 yoshdan oshgan kishilar sotib oladilar.
- Bitta roman yozish uchun 500 soat ketadi.
- Jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qish bo‘yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat kechgan.
- Dunyodagi eng katta lug‘at «Nemis lug‘ati» («Deutsches Wörterbuch») bo‘lib, u 1854 yili Yakob va Vilgelm Grimm tomonidan boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo‘shib, 1971-yili yakunlangan. 33 jildli ushbu lug‘at 34519 betdan iborat.
- Barcha zamon va xalqlarning eng mashhur yozuvchisi Agata Kristidir. Uning detektiv hikoyalari 50 dan ortiq tilda hamon chop etilmoqda. Kristining nashr etilgan kitoblari nusxasi 2 milliarddan oshadi.
- Dunyodagi eng og‘ir kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo‘yi 1,9 metr, og‘irligi 320 kilogrammdir.
- Google dunyoda chop etilgan barcha badiiy, publisistik, ilmiy asarlar sonini hisoblab chiqqan. Ularning soni 130 milliondan oshadi.
- Ma’lumki, qadimda kitob juda qimmat bo‘lgan. XVIII asrgacha ba’zi kutubxonalarda kitoblar o‘g‘irlanmasligi uchun zanjirga bog‘lab qo‘yilgan.

– Kitobni sekin o‘qilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqatgina 60 foiz anglanadi, aksincha, tez o‘qilganda matnning 80 foizi tushuniladi.

– Aksariyat o‘quvchilar kitobning 18-betidayoq unga qiziqishni yo‘qotadilar.

– Bolani o‘qishga o‘rgatish uchun eng qulay payt – 4-6 yoshlik paytidir. Bolani 7 yoshdan o‘qishga o‘rgatish biroz qiyin kechadi.

– Dunyodagi eng qimmat badiiy asar Leonardo da Vinci tomonidan ko‘chirilgan «Leychester kodeksi» kitobidir. Uni «Maycrosoft» asoschisi Bill Geys 1994 yili Nyu-Yorkdagi «Sotbis» auksionidan 30,8 million dollarga sotib olgan.

– Dunyodagi eng katta kitob holida chop etilgan majmua Irlandiya universiteti tomonidan 1968-1972 yillarda chiqarilgan 1112 jildli «Britaniya parlamenti hujjatlari»dir. To‘liq majmua 3,3 tonnani tashkil etadi. Uni to‘liq o‘qib chiqish uchun 6 yil ketadi.

– Dunyodagi eng qadimiy kitob Priss papirusidir. U eramizdan avvalgi 3350-yili yozilgan. Ushbu qo‘lyozma uni 1839 yili Fivadan topgan Emil Priss sharafiga shunday nomlangan. Qo‘lyozma muallifi – fir’avnning vaziri Pta-Gotep. U yoshlarning tarbiyasizligi, dangasa va axloqsizligidan noligan.


– Hozirgi paytda dunyodagi eng katta kitob – «Bu – Muhammad (s.a.v.)» deb nomlangan bo‘lib, og‘irligi 1,5 tonnadir. Kitob 429 sahifadan iborat. Uni 9 oy davomida 50 kishi tayyorlagan. 2,7 million dollar sarflangan. Kitob Dubaydagi savdo markazida saqlanadi.

3-topshiriq. Konseptual jadvalni to‘ldiring.

Nutq uslublari	Terminlar	Yozma nutq	Dialek tizmlar	Badiiy vositalar
Badiiy uslub				
Ilmiy uslub				
So‘zlashuv uslubi				

Rasmiy uslub				
Publitsistik uslub				

4-topshiriq. “Adabiyot janrlari” bo‘yicha klasterni davom ettiring.



MUHAMMAD YUSUF

Shoir Muhammad Yusuf 1951-yilda Andijon shahrida tug‘ildi. Toshkent Davlat universiteti (hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan.

Muhammad Yusuf XX asr oxiri o‘zbek she’riyatida o‘z so‘zini ayta olgan shoirlardan biri edi. Ayniqsa, uning qatag‘on qurbanlari Cho‘lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo‘jayevlarni yod olib yozgan she’rlari o‘sha yillari xalq qalbidan chuqr joy egalladi.

Muhammad Yusufning odamiylik, sevgi va vafoni ulug‘lovchi ko‘plab she’rlari kuyga solinib, xalqimiz sevgan qo‘shiqlarga aylandi.

Shoir she’rlari sodda va ravon til bilan yozilgan. Uning ijodida xalq qo‘shiqlaridagi kabi ohangdorlik bor.

Istiqlol yillari Muhammad Yusuf Vatanni madh etuvchi bir qator she'rlar yozdiki, ularga kuy bastalanib, katta-katta bayramlarda ijro etib kelindi.

Shoir qalamiga mansub “O‘zbekiston” qo‘sishig‘i mamlakatimiz yoshlarining madhiyasiga aylandi:

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,
Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni,
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston,
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi,
Tinch kuningni ko‘rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun, bir kaft tuprog‘ingga zor bo‘ladi.

Boldan shirin taxir qora bug‘doyer ham,
O‘zingdan bo‘lsa gar shohi gadoyer ham,
Bir jonu tan bir-biringdan rozi yursang,
Hudoyer ham sendan rozi, hudoyer ham.

Shoir Muhammad Yusuf 2001-yili vafot etdi. Uning qo‘sishilari, she’rlari esa xalq xotirasida hali uzoq yashaydi.

Topshiriq. Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnn o‘qing va mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matndan badiiy uslubga xos terminlarni aniqlang.
4. Matnda qanday badiiy vositalar qo‘llanilgan? Misollar keltiring.

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn bo‘yicha savol-javob qiling. Uning mazmunini aytib bering.

Oybek

Oybek 1905-yilda Toshkentning eski shahar qismida tug‘ildi. Asli ismi Muso Toshmuhammad og‘li bo‘lib, Oybek uning taxallusidir.

Oybek “Fanga yurish”, “So‘zim”, “Na’matak” kabi ajoyib she’rlar muallifi. Shuningdek, u bir qator dostonlar, jumladan “Navoiy” romanini yaratdi.

Oybek nafaqat shoir, balki, buyuk adib hamdir. Navoiy hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish natjasida 1944 yilda “Navoiy” romanini bitiradi. Bu asar ulug‘ mutafakkirga qo‘yilgan o‘ziga xos yodgorlikdir. Mazkur asar 1946 yildayoq rus tiliga tarjima qilindi. Yozuvchi romanda shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning xalq uchun baxshida hayotini chiroylishtasvirlab berdi.

Oybek nafaqat shoir, yozuvchi, balki mohir tarjimon ham. U Pushkin, Lermontov, Tolstoy kabi rus klassiklari asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Oybekning asarlari esa rus, ukrain, qozoq, tojik, fransuz, nemis, chek, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Atoqli shoir, adib, davlat va jamoat arbobi, akademik Muso Toshmuhammad og‘li Oybek 1968-yilda vafot etdi.

Oybek hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarlar ham yaratilgan. Ular orasida L.Batning biografik asarini ta’kidlash mumkin.

6-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling. Matn bo‘yicha savol-javob qiling. Uning mazmunini aytib bering.

Abdulla Qodiriy

Abdulla Qodiriy 1894-yilda Toshkent shahrida dehqon oilasida tug‘ildi.U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida o‘qidi.

Adibning ilk ijodi 1913-1914 yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratgan. Uning “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “To‘y”, “Fikr aylagil” (1914-1915) kabi she’rlari “Sadoi Turkiston” gazetasi va “Oina” jurnalida bositgan. A.Qodiriy bu she’rlarida millatdoshlarini jaholat va hurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma’rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Bu yillarda u “Baxtsiz kuyov” (1915), “Hech kim bilmasin” kabi sahna asarlarini ham yozgan. Uning “Juvonboz” (1915), “Uloqda” (1916) kabi hikoyalarida o‘z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko‘rish istagi sezilib turadi.

Adib dastlabki asarlarini turli taxalluslar ostida e’lon qilgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgani Julqunboydir.

1924-yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi.Moskvadan qaytib, “Mushtum” jurnalida ishlay boshladi. Qodiriy “Mushtum” jurnalining asoschilaridan sanaladi, u mazkur jurnal nashriyotida ancha yil mehnat qildi. Uning “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” va “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” turkumidagi hajviy hikoyalari shu jurnalda ilk bor bosildi.

1925-yilda bosilib chiqqan Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek adabiyotidagi dastlabki yirik nasriy asarlaridan biridir. Asarda XIX asrning 1-yarmidagi xalqimiz hayoti aks etadi.

1928-yilda Qodiriyning yana bir romani “Mehrobdan chayon” nashr etildi. Muallif unda Turkistonning eng so‘nggi xonlaridan biri Xudoyorxon davri voqealarini aks ettirdi.

1934-yilga kelib, A.Qodiriy qishloq xo‘jalik mavzuiga bag‘ishlanagan “Obid ketmon” qissasini yaratdi. Undan tashqari, u Gogolning “Uylanish” komediyasini va G‘arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Qodiriyning mazkur asarlari xalqimiz tomonidan hamon sevib o‘qib kelinadi.Ular asosida badiiy filmlar suratga olingan.Yoshlarimiz

Qodiriyning Anvar, Ra’no, Otabek va Kumush kabi qahramonlariga o‘xshashni orzu qilishadi.

Sevimli yozuvchimiz qatag‘onga uchrab, 1939-yilda vafot etgan.

Istiqlol yillarida adib xotirasi yanada e’zoz topdi. Endilikda Toshkent Davlat san’at instituti, metro bekati va boshqa ko‘plab muassasalar Qodiriyl nomi bilan atalgan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matn bo‘yicha savollar tuzing.*
2. *Matn mazmunini gapirib bering.*
3. *Yozuvchining birorta asari qahramonini ta’riflab bering.*

7-topshiriq. BBB texnologiyasi. Matn mazmuni bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

8-topshiriq. Badiiy asar tur va janrlari raqamlarini jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

- 1) G‘azal; 2) Komediya; 3) Ruboiy; 4) Qissa; 5) Fard; 6) Hikoya; 7) Tragediya; 8) Roman; 9) Qo‘g‘irchoqbozlik; 10) Qasida; 11) Drama; 12) Ocherk

Badiiy asar tur va janrlari	Javob raqamlari
Epik asarlar	
Lirik asarlar	
Dramatik asar	

9-topshiriq. Abdulla Qodiriy asarlari bo'yicha klaster tuzing.



10-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan badiiy asardan (she'rdan) parcha aytib bering.

11-topshiriq. "Men sevgan asar" mavzusida insho yozing.

5-mavzu. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari. Frazeologizmlar

Hozirgi zamon axborot xizmatlari

"Informatsiya" so‘zi lotincha "informatio" so‘zidan olingan bo‘lib, "tushuntirish", "tavsiflash" degan ma’noni anglatadi.

Informatsiya quyidagi uchta muhim sifatga ega bo‘lishi lozim:

1) Axborot to‘liqlik sifatiga ega bo‘lishi lozim, ya’ni axborot o‘rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama ifodalashi lozim.

2) Axborot ma’lum darajada qimmatli bo‘lishi lozim, aks holda undan foydalanish ehtiyoji tug‘ilmaydi.

3) Axborot ishonchli bo‘lishi lozim. Aks holda uni qayta ishlashga zaruriyat tug‘ilmaydi.

Axborotlar turli xil vositalarda, masalan, kitoblarda, gazetalarda, magnitli tasmalarda saqlanadi. Ular axborot tashuvchi vositalar deb ataladi.

Axborotlar ustida kerakli amallarni bajarish borasida tashkil qilingan jarayon axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Uning aloqa vositalari-telefon, telegraf, teletayp, telefaks va boshqalar.

Axborot jamiyatni rivojlantiruvchi va uning taraqqiyotiga asos bo‘luvchi muhim vosita hisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta’minalash insonlarning turli-tuman ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim o‘rin tutadi.

Inson axborot olami ichra yasharkan, voqeа-hodisalar va jarayonlarning bir-biriga aloqadorligini, o‘zaro munosabati va mohiyatini tahlil etish, o‘z hayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish maqsadida ko‘pdan-ko‘p dalil va raqamlarga murojaat qiladi.

Elektron pochta-o‘zaro bog‘langan kompyuterlar tarmog‘i yordamida matbuot xabarlari (matn, rasm, chizma) va hatto tovushli axborotni foydalanuvchiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing va undagi terminlarni ko‘chirib yozing hamda ma’nosini izohlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Hozirgi zamон axborot xizmati turlarini sanab bering.
4. Ta’limga oid internet saytlari ro‘yxatini tuzing.

1-topshiriq. “Kompyuter” so‘ziga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

1-qator-tushuncha-ot

2-qator-2 so‘zdan iborat sifat

3-qator-3 so‘zdan iborat fe’l

4-qator-4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator-1 so‘zdan iborat sinonim

1- mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling

Kompyuter va san’at

Kompyutering san’atga qanday aloqasi bor? Kompyuterlar aniq programma asosida ishlaydi. San’at esa-bu ijod, fantaziyadir. Lekin bu sohada ham kompyuter ijod ahliga yordam berishi mumkin. Kompozitor musiqa yaratishda kompyuterdan unumli foydalanishi mumkin. Buning uchun kichik royal yoqi elektroorgan yordamida kompyuterga ulanib yozayotgan musiqa notalarini ekranda ko‘rib turgan holda yangi asar yaratishi va shu yerning o‘zida, shu onda eshitib ko‘rishi ham mumkin.

Kompyuterlar rassomlarga ham ko‘p yoqib qolgan. Kompyuter grafikasi bo‘yicha birinchi ko‘rgazma 1956-yili o‘tkazilgan. Turli eskizlar, chizmalar va rasmlar chizishda rassomlar kompyuterdan foydalanib kelmoqdalar.

Bundan tashqari, kino va televideniyeni ham kompyuterlarsiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi davrda turli joylarda, mintaqalarda, hatto qit'alarda yashaydigan insonlar ishtirokida telekonferensiyalar o'tkazish an'anaga aylanib qolmoqda.

2- topshiriq. Matnni o'qing. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.

Axborot texnologiyalarining taraqqiy etish tarixidan

XIX asrning ikkinchi yarmigacha "qo'l" axborot texnologiyasi rivojlangan bo'lib, uning asosini pero, siyohdon va buxgalteriya daftari tashkil etgan. Kommunikatsiya (aloqa) paket (rasiy hujjatlar solingan konvert) yuborish orqali amalga oshirilar edi.

"Qo'l" axborot texnologiyasi o'rniiga XIX asr oxirida "mexanik" texnologiya kirib keldi. Yozuv mashinasi, telefon, diktofonning kashf etilishi, jamoa pochtasi tizimining takomillashuvi – bular bari avvaliga axborotni qayta ishlash texnologiyasida, so'ng ish mahsuldarligida sezilarli o'zgarishlar yuz berishiga zamin bo'ldi.

XX asrning 40-60 – yillarda "elektr" texnologiyasi paydo bo'lib, u yechib almashtiriladigan elementlarga ega elektr yozuv mashinkalari, oddiy qog'ozdan foydalanuvchi nusxa ko'chirish mashinasi, portativ diktafonlardan iborat edi.

60-yillarning ikkinchi yarmidan esa "elektron (yoki kompyuter)" texnologiyasi yuzaga kela boshladi va axborotni shaklini emas, mazmunini o'zgartirishga urg'u berila boshlandi.

Axborot texnologiyasining keyingi taraqqiyoti asosan kommunikatsiya vositalari bilan bog'liq.

Xorijiy mutaxassislar axborot texnologiyalari rivojlanishining beshta asosiy tendensiyasini ajratib ko'rsatadi:

1. Axborot mahsulotlarining murakkablashuvi. Axborot vositasi ko'rinishidagi axborot mahsuloti, ekspert ta'minoti xizmatining ma'lumotlar bazasi strategik ahamiyat kasb eta boradi. Turli shakldagi (nutq, ma'lumot, tasvir) axborot mahsulotlari eshitish, ko'rish va anglash uchun foydalanuvchining talabiga ko'ra ishlab chiqiladi hamda unga qulay vaqtida va shaklda mahsulotni yetkazib berish vositasi mavjud bo'ladi.

2. Birgalikda harakat qilish qobiliyati. Axborot mahsulotining ahamiyati oshib borishi bilan mazkur mahsulotlarni kompyuter va inson yoki axborot tizimlari o‘rtasida ideal tarzda almashuvini o‘tkazish imkoniyati ilg‘or texnologik muammo kasb etadi.

3. Oraliq bo‘g‘inlarni tugatish. Birgalikda harakatlanish qobiliyatining rivojlanishi axborot mahsulotlari almashish jarayonining takomillashuviga, so‘ngira, axborot manbai yo‘lidan iste`molchiga qarab oraliq bo‘g‘inlar tugatiladi.

4. Globallashtirish. Tashkilot yo‘ldosh aloqa va Internet tarmog‘ida foydalanib axborot texnologiyalari yordamida xohlagan joyda va xohlagan paytda ish olib borish mumkin.

5. Konvergensiya (uyg‘unlashish). Konvergensiya AATning zamonaviy rivojlanish jarayonining oxirgi bosqichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda mahsulotlar va xizmatlar, axborot va dam olish, shuningdek, ovozli, raqamli hamda videosignalarni uzatish kabi ish rejimlari o‘rtisidagi farq yo‘qoladi.

3-topshiriq. BBB texnologiyasi. Matn mazmuni bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazariy ma'lumot

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, feleton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsa, og‘zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ‘ibot uslubi bo‘lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Shunga ko‘ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatalishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash) ham o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqeа va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo‘shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiyl xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatiladi.

Frazeologizmlar (ибора)– tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqga tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarining obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi. Mas., *tomdan tarasha tushganday, oyog‘ini qo‘liga olmoq, sichqonning ini ming tanga* va b.


Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi: Aka-ukalar (ega) bir yoqadan bosh chiqarishdi (kesim). Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma’no imkoniyatlari) frazeologik ma’no va qo‘srimcha ma’no bo‘yoqdorligi (ottenka)dan iborat bo‘ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma’no deyiladi. Frazeologik ma’no obrazliligi bilan leksik ma’nodan farq qiladi.

2-mashq. Lug‘atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim so‘zlarni va agar bo‘lsa antonimlarini toping. Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Yuragiga (qil) sig ‘maydi. 2. Labi labiga tegmaydi. 3. Aytgani (yoki aytishga) og ‘zi (yoki tili) bormaydi. 4. Aytgani aytgan, degani degan. 5. Ko‘zim uchib turuvdi. 6. Baxtga qarshi. 7. Baxtini sinab ko‘rmoq. 8. Ipsiz bog‘lamoq. 9. Ishi yurishib ketdi. 10. Ishongan bog‘im, suyangan tog‘im. 11. Ko‘z olaytirmoq.

4-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib badiiy uslub, ilmiy uslub va publitsistik uslubning xususiyatlarini taqqoslang hamda tahlil qiling.



2-mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling

История Библиотеки

Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои (до 12 апреля 2002 года Государственная библиотека Республики Узбекистан им. Алишера Навои) получила статус «национальной» на основании Указа Президента Республики Узбекистан «О совершенствовании организаций научно-исследовательской деятельности» от 20 февраля 2002 года. Библиотека была основана в 1870 году как Ташкентская публичная библиотека. К маю 1870 года было собрано более 2200 томов (1200 названий), составивших книжное ядро будущей библиотеки.

Ташкентская публичная библиотека должна была собирать и хранить литературу по различным отраслям знаний, в первую очередь, связанную с краем и с определенными странами.

Первым директором библиотеки с 11 мая 1872 г. стал Николай Васильевич Дмитровский. В 1920 г. библиотеке был

присвоен статус «государственная». С этого года библиотека начинает получать обязательные экземпляры всех изданий, выходящих в свет на территории Туркестанского края. В 1925 г. ее фонд составил 140 тыс. единиц хранения. Решением правительства Узбекистана Государственная публичная библиотека в Ташкенте в 1933 г. объявлена Центральным хранилищем восточных рукописей республики.

В 1948 г. библиотеке было присвоено имя великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои и открылось новое трехэтажное здание, с читальными залами на 350 мест. Тогда же был организован отдел редких и старинных изданий, в котором было собрано 2 тыс. книг, в том числе 250 с автографами, 151 – с экслибрисами. Сейчас этот фонд насчитывает свыше 16 тыс. экз. В 1970-е гг. создаются новые отделы – научно-исследовательский, научной информации по культуре и искусству, депозитарного хранения, контрольно-диспетчерской службы, юношеский.

Особое внимание стало уделяться пополнению фонда литературой на узбекском языке. Сейчас в нем свыше 600 тыс. экз. – произведения классиков узбекской литературы, таких как А. Навои, Фуркат, Мукими, Завки, Ибн Сино (Авиценна), Улугбек, Бируни, а также работы современных ученых и писателей республики.

Следующий важный период в истории библиотеки начинается в 2002 г., когда 20 февраля 2002 года вышел Указ Президента Республики Узбекистан «О совершенствовании организации научно-исследовательской деятельности».

5-topshiriq. Elektron kutubxona bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar yozing.

6-topshiriq. Universitet kutubxonasi to‘g‘risida matn tuzing.

**6-mavzu. XXI ASRDA INNOVATSIYALAR.
DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI**
Ilmiy uslub. Maqola va uning turlari

Topshiriq. Matnni o‘qing

Uyali radiotelefon aloqa tizimlari

1991-yilda uyali radiotelefon aloqa tarmog‘i xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha birinchi reklama e’lonlari paydo bo‘ldi. 2000 dollarga og‘irligi besh kilogramm, unchalik katta bo‘lmagan chemodancha (abonent radiotelefoni) sotib olish va yana shuncha pul tarmoqqa ulash uchun to‘lash taklif etildi. Hozir ana shu taklifga talablar topilganiga ishonish qiyin, negaki zamonaviy abonent radiotelefonlari cho‘ntakka erkin joylashadi, og‘irligi 200gr keladi, ularni narxi bir necha yuz dollar atrofida, tarmoqqa ulash taxminan 100 dollar bo‘ladi, ba’zida esa umuman tekin.

Radiotelefon aloqaning uyali tizimi unchalik katta bo‘lmagan ko‘p zonalarga – uyalarga (sot-cell-mumkatak) bo‘lingan hududga xizmat ko‘rsatadi, ularning har biriga o‘zining radiojihozlar komplekti xizmat ko‘rsatadi. Bu zonalar shahar rejasida asalari uyasi yacheykalariga o‘xshash strukturani shakllantiradi, ana shu narsadan bu turdagи radiotelefon aloqaning nomi kelib chiqqan.

Uyaning chegarasi radioaloqaning turg‘unlik zonasи bilan aniqlanadi va qabul qiluvchi-uzatuvchi radioqurilmaning quvvati, joy topologiyasi va tizim ishining chastotali diapazoniga bog‘liq bo‘ladi. Tizim ishining chastota polosasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uyaning radiusi shunchalik kichik, lekin signalning devorlar orqali va boshqa to‘siqlardan o‘tish qobiliyati shunchalik yaxshi bo‘ladi va yana muhimi radioapparatura juda ixcham va katta miqdordagi abonentlik radiokanallarini tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy uyali tizimlar 450,800,900 va 1800 MGc chastotalarda ishlaydi.

Uyali radiojihozlar komplekti o‘z ichiga retranslyator (qabul qiluvchi-uzatuvchi radioqurilma), bazaviy stansiya, radioantenna va shu uya bilan xizmat ko‘rsatiladigan abonentlarning ixcham radiotelefonlarini oladi. Abonent radiotelefonlari soni uyada doimiy bo‘lmaydi, negaki abonentlar harakatda bo‘lib ko‘chib yurishlarida bir uyadan boshqa uyaga o‘tadi. Bunda uyalar orasidagi chegarani kesib o‘tganda radiotelefon apparat boshqa uyaga avtomatik ravishda o‘tadi

(yaqin oradagi retranslyatorga ulanadi). Uyali aloqa abonenti o‘zini qiziqtirgan hamsuhbat bilan so‘zlashish uchun o‘zining radiotelefoni klaviaturasida mos telefon nomerini teradi va bazaviy stansiya vositasida hamsuhbat bilan bog‘lanadi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing. Ma’nosini bilan tanishing.*
2. *Undagi terminlarni ko‘chirib yozing va ma’nosini izohlang. Bu atamalar qaysi uslubga xosligini aniqlang.*
3. *Respublikamizda qanday uyali aloqa kompaniyalari bor? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz?*

1- topshiriq. AKT sohasidagi innovatsiyalar haqida ma’lumot tayyorlang.

2- topshiriq. AKT sohasida qo‘llaniladigan terminlar lug‘atini tuzing.

3- topshiriq. “Zamondoshlarimizning kashfiyotlari” mavzusida taqdimot tayyorlang.

Nazariy ma’lumot

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Til birlklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, nutqning quyidagi uslublari o‘zaro farqlanadi: so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to‘g‘risida aniq, asoslangan, izchil ma’lumot berishda qo‘llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta’riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me’yorga qat’iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe’llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlataladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo‘ljallanganligiga nisbatan o‘zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan

ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotSIONALLIK, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Maqola va uning turlari

Maqola – adabiy yoki ilmiy mazmunda bo'lib, hajm jihatidan ancha katta bo'ladi. Maqola hayotning muhim va dolzarb masalalariga bag'ishlanishi yoki ilm-fanning biror sohasini yoritishi mumkin. Shunga ko'ra maqolalar ilmiy, uslubiy, publisistik kabi turlarga bo'linadi. Maqolalar uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

1. Kirish – bunda tanlangan mavzuning dolzarbliги belgilanadi.
2. Asosiy qism – muallif tomonidan rejalangan fikr, muammo yoki yangilik bayon qilindi.
3. Xulosa – mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi.

Maqolalar ilmiy yoki publisistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e'tiborni jalb qiladigan va albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, maqolalarda muallif haqida qisqacha ma'lumot va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

1-mashq. Matnni ko'chiring. Qaysi nutq uslubiga mansub ekanligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Atomlar kimyoviy bo'linmaydigan zarralardir. Bir xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga

vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt hamda barcha turdag'i metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi. Har xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. Suv, karbonat angidrid, mis (II) oksidi shular jumlasidandir.

2-mashq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Gaplarni qaysi nutq uslubiga mansubligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan. Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi. Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latda esa 6000 m/sekund ekanligi o'lchov asboblari yordamida aniqlangan.

Ekologik muammolar

Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muommolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi.

1. Umumbashariy (global)
2. Mintaqaviy (regional)
3. Mahalliy (lokal)

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana

shunday umumbashariy muammolarga ba’zi bir misollar keltirish mumkin:

Ozon qatlaming siyraklanishi. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta’sirida kislород, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib olib, yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlarning ortishi tirik organizmlarga salbiy ta’sir etadi. Ultrabinafsha nurlar ta’sirida nurlanish odamlarda terining kuyishiga olib keladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta’sirida kelib chiqayotganligi aniqlangan.

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo‘lib, u 2,8 % ni tashkil etadi. Chuchuk suv zahirasi asosan qutblardagi muzliklardir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3 – 3,5 km³ suv sarflanmoqda. XXI asrga borib ushbu ko‘rsatkich 1,5 – 2 marta ortish imkoniga ega. Daryolarning umumiy yillik oqimi yer yuzi bo‘yicha 50 ming km³. Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv yetishmasligi aniq.

Qurg‘oqchil mintaqalarda daryolardan to‘liq foydalanilganda ularning suvi yetmay qolmoqda. 1980-yillarda bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika davlatlari, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba’zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan ifloslanishi o‘sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko‘rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10 % ni, ba’zi rivojlangan mamlakatlarda 30 % ni tashkil etadi. Daryo toza suvlarida yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda.

Tirik tabiatdagi o‘simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta’minlashda o‘simliklar dunyosi, ayniqsa, o‘rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi

quruqligining 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mld. m³ hajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortishi mumkin.

Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqlilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln. hektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atiga yiliga 11 mln. hektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi «Qizil kitob» yaratilishiga sabab bo'ldi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnni o'qing. Mazmunini kengaytirib so'zlab bering.


2. Ekologik muammolarning qanday guruhlarini bilasiz?

O'zbekiston hududida ularning qaysi turlari kuzatiladi?

3. Tabiat haqida xalq maqollaridan namunalar yozing.


4- topshiriq. "Qanday?" sxemasini to'ldiring

Davrimizning qanday global muammolari bor? Ularni qanday bartaraf qilish mumkin?



5-topshiriq. Ekologik madaniyat tushunchasi bilan tanishing.

KLASTER



3-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnga sarlavha qo'ying

Экология происходит от двух греческих слов: “эйкос” – дом, “логос” – наука. Значит, экология – это наука, которая изучает наш с тобой дом, окружающий мир. Почему об этой науке заговорили в последнее время? Да потому, что один жилец общего дома по имени Человек стал вести себя возмутительно, как разбойник и хулиган. Он оказался нечестным и опасным жильцом. В угоду своим бесчисленным желаниям и аппетитам – больше есть, лучше одеваться, комфортнее жить – он бездумно застроил среду обитания множеством вредных заводов, наводнил ее транспортом, вырубил множество лесов и осушил болота. Словом, наломал дров, не подумав о своих соседях – других живых обитателях дома.

В коммунальной квартире такого безобразника давно бы призвали к порядку или вовсе выселили бы. Но жители не могут сделать этого, они тихо страдают и погибают. Долгое время

Человек оставался безнаказанным. А теперь он одумался, потому что понял, что за свои удобства ему самому же приходится расплачиваться: мелеют реки, не восстановятся вырубленные леса, исчезают рыбы и звери. Да и самому человеку стало труднее дышать, труднее добывать пищу, он чаще болеет. Вот как отомстил дом-природа своему зарвавшемуся жильцу. Одумался Человек и теперь старается исправить положение, а сделать это очень трудно. И прежде чем что-то сделать, подумай о своих живых соседях. Если им будет плохо, будет и тебе. Наука “экология” как раз и занимается изучением взаимоотношений живых существ и их сообществ в природе.

6-topshiriq. T-sxema bo‘yicha tabiat hodisalarining salbiy va ijobjiy tomonlarini yoriting.

Tabiat hodisalari

Salbiy tomonlari	Ijobjiy tomonlari


7-topshiriq . Dunyodagi va O‘zbekistondagi ekologik muammolar haqida esse yozing.

7-mavzu. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI. INTERNET HAYOTIMIZDA

Intervyu olish va reportaj tayyorlash qoidalari

Topshiriq. O‘zbekiston Respublikasida mavjud ommaviy axborot vositalari bilan tanishing.

KLASTER



Sevimli gazetam

Har kuni uni varaqlayman. Darsdan qaytgach, u bilan birpas mashg‘ul bo‘laman. U orqali tengdoshlarim hayoti va qiziqishlari, dunyoda ro‘y berayotgan voqealar, ajoyib xabarlar bilan tanishaman. Shuning uchun uni qiziqib o‘qiyan. Bu “Turkiston” gazetasи. U mening sevimli gazetam. Har yili unga obuna bo‘laman. Bu gazetada tengdoshlarimning hayoti, o‘qishi va qiziqishlariga oid ko‘p maqolalar bosiladi.

Bunday maqolalarni o‘qishni juda yoqtiraman. Yaqinda buxorolik do‘stim o‘qiydigan kollejda o‘tkazilgan “Mohir qo‘llar” tanlovi natijalari to‘g‘risidagi maqolani o‘qidim. Nodir ismli bu do‘stim ganjdan ajoyib maket yasab, tanlov g‘olib bo‘libdi. Darrov unga elektron pochta orqali tabrik yozdim. Ana shunaqa, gazeta juda

kerakli narsa. Ayniqsa, gazetaning to‘rtinchi sahifasida dunyo yoshlarining qiziqarli faoliyatlari haqida ixcham xabarlar ko‘p bo‘ladi. Madaniyat va sport xabarlarini ham shu gazetadan o‘qib olaman. Xullas, bu gazeta men uchun qadrli bo‘lib qolgan.

Nazariy ma’lumot

Jurnalist – asosiy faoliyati jurnalistika bilan shug‘ullanish bo‘lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig‘ish, qayta ishslash va uni auditoriyaga yetkazish orqali OAVni axborot bilan to‘ldiruvchi kishi. Jurnalistlar, asosan, publisistik faoliyatga yo‘nalgan bo‘lib, ular o‘z oldiga ma’lum ijtimoiy fikrni shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyatining u yoki bu qaror va harakatlariga tahrirlovchi sifatida ta’sir qilish va nashr, radio yoki telekanal ta’sischilarini belgilagan chegaralar doirasida jamiyat va davlat o‘rtasidagi vositachi bo‘lishni maqsad qiladi.

Muxbir (arab. – xabar beruvchi, xabarchi) – 1) tahririyat tarkibida jurnalist sifatida xizmat qiluvchi xodim; 2) bevosita tahririyatda ishlamaydigan, ammo ommaviy-axborot vositalarida muntazam ijodiy hamkorlik qiluvchi shaxs; 3) boshqa ommaviy-axborot vositalarida chiqish uyuştiruvchi gazeta, jurnal, radio, televide niye tahririyati xodimi.

Jurnalist-muxbir, reportyor (axborot-yangiliklar xizmati xodimi) va sharhlovchiga teleoperator, produser va boshqa texnik xodimlari yordam berishi mumkin.

OAV fotografi (suratkashi) reportyor yoki muxbir bilan birgalikda ishlashi yoki mustaqil ravishda o‘z nashri uchun fotoreportajlar tayyorlashi mumkin. Bu jarayonda u fotojournalistga aylanishi mumkin.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.


1. *Ommaviy axborot vositalarining turlarini aytib bering.*
2. *Matnga savollar tuzing.*
3. *Matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
4. *Ommaviy axborot vositalari mavzusi bo‘yicha bahs-munozara tashkil qiling.*

1-topshiriq. Sevimli gazeta yoki jurnalingizdagi biron-bir materialni tahlil qiling.

2-topshiriq. “XXI asrda axborotning o‘rni” mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. OAV turlari bo‘yicha klaster tuzing.

KLASTER



1- mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Matnga sarlavha qo‘ying

Роль телевидения в формировании общественного мнения, влияние его на политическую и экономическую ситуацию признаны во всем мире.

Телевидение выполняет особо важную роль в обеспечении населения информацией об экономической, политической, научной и культурной жизни, включении в глобальный процесс обмена международной информацией. Оно стало самым распространенным инструментом культурного и политического влияния. Как и во всем мире, в Узбекистане ТВ является средством массовой информации, которое охватывает большинство населения и оказывает огромное влияние на его образ мышления. Образы, созданные телевидением, доминируют в формировании общественного сознания, в определении лидеров

общества и проблем, вопросов и альтернатив, стоящих на повестке дня.

Экономическое влияние ТВ на общественное развитие заключается не в прямом, но косвенном влиянии на производительность, экономический рост страны путем содействия демократии, образованию, информации...

Если в государстве не существует системы независимого вещания, то обыкновенные граждане теряют доверие к власти, ее институтам и действиям. Свобода же обмена информацией помогает правительству создать цивилизованное государство, граждане которого лояльны и добровольно участвуют в жизни общества...

4-topshiriq. Matnni o‘qing.

Internet va undan foydalanish madaniyati

Internet bu-hozirgi zamон талабидаги yagona ommabop kompyuter tarmog‘i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir.

Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo‘lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa, bu ta’sir doirasidan o‘smir yoshlar ham yo‘q emas. Bu borada mutaxassislarning so‘zлари quyidagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog‘idagi ijobiliylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog‘liq muhim aniq dalillarga ega bo‘lishida har tomonlama qulay va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib keladi. Lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma’lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlari mumkin. Bu esa izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada, tahlil qilish qobiliyati va xotiraning o‘tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo‘lmoqda.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmanan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Barchamizga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiyligi ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib kelayotgan turli-tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobjiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnni o'qing va undagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

2. Matnda bayon etilgan fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring.

3. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalilaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing.

5-topshiriq. T-sxema bo‘yicha internetdan foydalanishning salbiy va ijobiy tomonlarini yoriting.

Internet

Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari

2-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling

Ta’lim sohasida internet texnologiyalari

Bugungi kunda internet bizning hayotimizga tobora kirib bormoqda. Internetda pochta, telefoniya, biznes (savdo, bank, auksion) ishlari ko‘proq amalga oshirilmoqda. Kundan-kunga tarmoqda axborot manbalari ko‘paymoqda. Yildan-yilga Internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Internet deyarli ta’lim jarayoni uchun ideal muhit vazifasini o‘taydi. Bunga Internet foydalanuvchilarining dunyoning istalgan nuqtasidan tarmoq resurslaridan foydalana olishligi muhim omillardan biri sifatida ko‘rsatilmoqda.

Tarmoq foydalanuvchilari va axborot sahifalari soni uzluksiz tarzda o‘sib borib, ko‘pchilik yoshlar uchun ermak va qulay vositaga aylanmoqda. AQSh da o‘tkazilgan statistik tadqiqotlarga ko‘ra Oliy o‘quv yurtlarining yuqori kurs va kollejlari talabalarining 100% i Internetdan foydalanadilar. Talabalar Internetning faol foydalanuvchilari sifatida haftasiga o‘rtacha 11 soatni onlaynga sarflaydilar. Har 10 talabadan 9 tasi kuniga elektron pochtasidan foydalanadilar. Internetdan yangilik, axborot va ish qidiradilar. Amerikalik 5 dan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarning deyarli 90% i kompyuterdan foydalanadilar, bu foydalanuvchilarning 59% i Internetdan foydalanuvchilardir. 15 yoshli amerikaliklarning har to‘rtinchisi Internetdan foydalanadilar, 10 yoshlilar guruhida bo‘lsa 60% ni, 16 va undan kattalarda bu ko‘rsatkichlar 80% ni tashkil etadi (bu ko‘rsatkichlar ham vaqt o‘tishi bilan ortib bormoqda).

Nazariy ma'lumot.

Intervyu olish va intervyu berish qoidalari

Intervyu-muxbirning (umuman so‘zlovchining) biror mashhur shaxs bilan ma’lum bir masala bo‘yicha savol-javobidir. Muxbir intervyu olgunga qadar o‘z savollarini tayyorlab qo‘yadi. Intervyu savollari shu kunda hammani qiziqtirgan muhim masalalar haqida bo‘lishi lozim. Intervyu olish muxbirdan bilimdonlikni, notiqlikni, turli etik qoidalarga amal qilishlikni talab etadi. Muxbir intervyu beruvchi shaxs haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi zarur.

Reportaj tayyorlash.

Reportaj-OAV sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalardan olib beriladigan mahalliy mavzulardagi xabar, maqola.

3-mashq. Quyida berilgan reportaj matnini o‘qib, qaysi uslubga xosligini aniqlang. Uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.

OAV

Olib borilayotgan ishlarni aholiga yetkazib berish, uni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rni juda katta. Aynan ushbu soha vakillari sabab joylarda bo‘lib o‘tayotgan tadbirlar, amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar, muvaffaqiyatlar va kamchiliklardan boxabar bo‘lamiz. Ommaviy axborot vositalari xalqimiz hayotiga, uning quvonch va tashvishlariga tobora yaqin bo‘lib, davlat va xalq orasidagi haqiqiy «ko‘prik» vazifasini bajarmoqda. Xususan, sport rivoji yo‘lida ham «to‘rtinchi hokimiyat» vakillarining o‘rni beqiyosdir. 27 iyun Ommaviy axborot vositalari kuni. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi tomonidan qalam ahli uchun o‘ziga xos tadbir tashkil etildi. Unda jurnalistikaning turli yo‘nalishlarida, jumladan TV, gazeta, internet nashrlarida faoliyat olib borayotgan bir guruh ommaviy axborot vositasi xodimlari ishtirok etishdi.

6-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi jadvalini to‘ldiring.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
OAV	
Reportaj	
Intervyu	
Muxbir	
Jurnalist	
Internet	

7-topshiriq. Internet madaniyati haqida matn tuzing.

8-mavzu. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM. ILM MASKANIMIZ HAYOTIDAN

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari

Topshiriq. Matnni o‘qing

Oliy ta’lim

“Oliy ta’lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo‘llagan va o‘z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta’lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta’lim muassassalarining quyidagi ko‘rinishlari bor:

-*Universitet*-oliy ta’lim dasturini bajarishda talabalarga tanlayotgan sohasi bo‘yicha yoki keyinchalik o‘qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e’tibor qaratiladi;

-*Akademiya*-oliy ta’lim dasturini bajarishda oliy ta’lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o‘qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo‘nalishga tayyorlaydi;

-*Institut*-barcha oliy ta’lim muassasalari kabi oliy ta’lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo‘nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Masofaviy ta’lim-asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta’lim muassasasidan uzoqda o‘quv dasturidagi mavjud bilimlarni o‘zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o‘qish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo‘nalishlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Universitet:

- Oliy va undan keyingi ta’lim uchun ta’limni bir necha yo‘nalishda beradi;
- Turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- Fanning turli yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;
- Ilm sohasi bilan chambarchas bog‘liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya:

- Ta’lim sohasida ma’lum belgilangan oliy va oliy ta’limdan so‘nggi ta’lim berishga mo‘ljallangan o‘quv dasturini bajaradi;
- Mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- Fan, madaniyat, san’at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;
- O‘z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut :


- Oliy va oliy ta’limdan keyingi o‘quv dasturlarini bajarishni ta’lim va fanning ma’lum bir me’yorida amalga oshiradi;
- Mutaxassislarni ma’lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi;
- Fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta’lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.


Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing va undagi termin hamda iboralarni izohlang.*
2. *Matnga reja tuzing va tuzgan rejangiz asosida mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Oliy ta’lim terminlari lug‘atini tuzing.*
4. *O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining qisqartma otlarini yozing.*

1-topshiriq. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi bilan tanishing. Ushbu ta’lim tizimining afzalliklari va jahon ta’lim tizimidan farqli tomonlarini aytib bering.



2-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib oliy ta'lim turlarini taqqoslang va tahlil qiling.



1- mashq. O‘qing, quyidagi ma’lumotlarni bilib oling. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O‘zbekistonda nechta OTM mavjud?

2017-yilning 1-noyabr holatiga O‘zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta’lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo‘lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta’lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Inha universiteti kabi yuksak xalqaro obro‘-e’tiborga va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Evropa va Osiyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu oliy o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutuxassisliklar bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda hamda ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

3-topshiriq. “Universitet” so‘ziga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

1-qator-tushuncha-ot

2-qator-2 so‘zdan iborat sifat

3-qator-3 so‘zdan iborat fe’l

4-qator-4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator-1 so‘zdan iborat sinonim

Nazariy ma'lumot

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagи ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrим nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'limgan so'zlar uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so'zlar deyiladi.

Tovush, urg'u, bo'g'in, undalma, morfema, omonim, sinonim, uslubiyat kabi qator so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Chunki bu so'zlar asosan tilshunoslik fani doirasida qo'llaniladi.

Osmon, xalq, bayram, o'quvchi, dars, tushlik, salomatlik, odam kabi so'zlar barcha nutq uslublari doirasida birdek qo'llanish imkoniga egaligi sababli uslubiy betaraf so'zlar qatoriga kiradi

So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar

Oilada, ko'cha – ko'yda kishilarning fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi deyiladi. So'zlashuv uslubiy adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi. Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'limgan so'zlashuv uslubi esa oddiy so'zlashuv uslubidir. So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Bu uslubda so'zlar odatda kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. So'zlashuv uslubining yana bir o'ziga xos xususiyati erkinligidir. Jumlalar qisqa va ta'sirli bo'lib, ko'pincha so'z – gaplar, to'liqsiz gaplar, maqol va matallar hamda iboralardan keng foydalaniladi.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. Adabiy til esa ma'lum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan, sayqal berilgan tildir. Umumxalq tili kengroq hajmda bo'lib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lum toifa (biror ijtimoiy guruh) ga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo'lib, til qoidalariaga asoslanilmaydi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o‘zida namoyon qilgan til shakli sheva hisoblanadi. Bir qancha shevalar yig‘indisi lahja deyiladi. Sheva va lahjalar ma’lum bir hududda yashovchi aholining mahalliy so‘zlashuv tilidir (masalan, Toshkent shevasi, Farg‘ona shevasi kabi).

2-mashq. Matndan uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlarni ajratib ko‘chirib yozing.

Yosharish imkoniyati

Odam organizmi ham, tabiatning boshqa mo‘jizalari kabi, doimiy tarzda yangilanib turish imkoniyatiga ega ekan. Chunki undagi bir necha millionlarcha hujayralar doimiy ravishda o‘zgarib, yangilanib turar ekan. Xususan terimizdagi hujayralar har uch-to‘rt oyda to‘la yangilanib turar ekan.

Bir necha yuz minglarcha bo‘lgan soch tolalari har uch yilda yangilanar ekan, ya’ni eskisi to‘kilib, o‘rniga yangisi o‘sib chiqar ekan. Ichaklardagi hujayralar esa nihoyatda tez, ya’ni bir minutda millontalab yangilanar ekan. Demak, odam organizmini yoshartirib turish imkoniyati katta ekan.

3-mashq. Quyida keltirilgan parchalardan so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni toping.

-Ebi, kimni o‘ldirding?

-Ota kasbim odam o‘ldirish emas.

-Inisi bergen, -dedi Sharif, -Qani, ining bilan ko‘rishdingmi, Qobel?

-Ko‘rishdim.

-Odami nag‘z bo‘lg‘an?

-Odami nag‘z.

-Akun shu qochib yota beraykan-da, -dedi Rahim. – Biroq chora boqsin-da, aytmading-chi, axi? (“Mehrobdan chayon”.265-bet)

-Olmaysanmi, pala’nat? (padarlanat demoqchi)

-O‘zlaringga deyappan-ku, inim senlarga atab berdi.
("Mehrobdan chayon".265-bet)

-Hissiyotg‘a qattiq berilibsan, Ra’no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa **ayamga** ham ishonib bo‘lmas.

– Paranji ichida borgan Ra’noni tanish uchun hech kimda karomat yo‘q, **ayamga** nega ishonib bo‘lmasin?

-Iqrorsan, tonmaysan, o‘bdan ish!-dedi zaxarxanda qilib xon.-
O‘luvdan ham qaytmaysan.-Musulmonchilik qig‘onsanda!

4-topshiriq. Matnni o‘qing

TATU-bugun

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (sobiq Toshkent elektrotexnika aloqa instituti) 1955-yilda tashkil topgan. 2002-yil 30-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-3080 Farmoniga binoan Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga aylantirildi. 2005-yil 2-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-91 sonli Qaroriga TATUNing Qarshi, Samarqand, Urganch va Farg‘ona shaharlarida mintaqaviy filiallar tashkil etilgan.

Universitet va uning mintaqaviy filiallari tarkibida 13 ta fakultet, 62 ta kafedra mavjud bo‘lib, ta’limning 23 yo‘nalishi bo‘yicha, jumladan bakalavriatning 8 yangi yo‘nalishi va magistraturaning 9 yangi mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Universitet va uning mintaqaviy filiallarida 10242 talaba tahsil oladi, jumladan 9858 bakalavriat talabalari va 384 nafar magistrantlar tashkil etadi. So‘nggi yil ichida Universitet 1 nafar talabasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, 5 nafar talaba Davlat nomli stipendiyasi, 32 nafar talaba aloqa sohasi stipendiyasi hamda 44 talaba respublika fan olimpiadalari va tanlovlardan sovrinli o‘rinnarni egallashdi. Universitetda 780 ta professor-o‘qituvchilar ishlaydi, shulardan 204 ta fan nomzodlari va dotsentlar. Ilmiy darajaga ega o‘qituvchilar umumiyligi sonidan 31% tashkil etadi.

Universitet va filiallarining umumiyligi maydoni 54,4 ming kv.km. ni tashkil etib, unda 380 o‘quv auditoriyalari, 113 nafar o‘quv laboratoriyalari, 10 ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, 9 sport majmualari

va maydonchalari, 7 ta talabalar turar joylari va 11 ta oshxona binolari faoliyat yuritadi.

Universitet 26 nafar xorijiy davlatlarning (Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Hindiston va x.k.) 42 universitet, 8 ilmiy-tadqiqot markazlar, 12 korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatdi.

Xalqaro hamkorlik natijasida so‘nggi yillarda 16 ta o‘quv laboratoriyalar, 9 kompyuter sinfi, 4 markaz – O‘zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi, O‘zbek-Koreya axborot texnologiyalari markazi, "Internet Plaza" nomli O‘zbek-Koreya markazi, "CISCO" mintaqaviy akademiya o‘quv markazi tashkil etildi.

ViewSonic interaktiv proektori va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan multimedia sinfi yaratilgan.

Universitetning hududiy ikkita filiallari direktorlaridan tashkil topgan delegatsiya va xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i 2015-yil 14-22 dekabr kunlari Koreyaning Seul Milliy universitetiga tashrif buyurishdi. Tashrifning asosiy maqsadi, CMU va TATU o‘rtasidagi hamkorlikning 10 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya va tadbirlarda ishtirok etishgan. Konferensiya jarayonida TATU delegatsiyasi, SMU ning magistratura va doktoranturasida tahsil oladigan talabalar, TATU va uning filiallarining hozirgi paytdagi faoliyati, dissertatsiya mavzulari haqida taqdimot qilishdi. Bundan tashqari TATUning ikki professori o‘zlarining tadqiqot proektlarini internet orqali videokonferensiya shaklida namoyish qildilar.

2013-2014 o‘quv yilidan TATU ga qabul qilish test sinovlari blokiga ingliz tili fani kiritildi, shuningdek maxsus fanlarni 2015-2016 o‘quv yilida 31 tadan 60 tagacha oshirib, ingliz tilida o‘qitila boshladи.

Universitet axborot resurs markazi umumiy fondining 322 mingdan ortiq adabiyotni o‘z ichiga oladi, undan 194 ming o‘quv adabiyoti, 100859 – ilmiy fondi, 13 mingdan ortig‘i esa elektron adabiyotni tashkil etadi. Ingliz tilidagi chet el o‘quv adabiyotlari fondi 16 mingni tashkil qiladi. ARM ikkita dastur IRBIS va ARMAT da ishlaydi. ARM barcha fondi bu ikki dasturga kiritilgan. Bibliografik yozuvchilarning umumiy soni 42752 taga yetdi. ARM fondida 58 ta

doktorlik dissertatsiyasi mavjud. TATU o‘quvchilari www.dilib.uz va www.natlib.uz saytlaridan foydalanishlari mumkin.

Turli axborot tizimlari yaratilib, ta’lim jarayoniga va universitet boshqaruvi jarayoniga tatbiq etildi: jumladan, "Dekanat" elektron dasturi www.decanat.tuit.uz, ijro intizomi va hujjat almashinuvi elektron tizimi www.dcs.tuit.uz, kabilar yaratilgan bo‘lib, ular ijro intizomi va hujjat almashinuvi jarayonini, hamda talabalar va o‘qituvchilarning yo‘qlama va o‘zlashtirishi, talabalarning o‘qish uchun to‘lovlarini ro‘yxatga olinishi nazorat qilinadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning 5 ta mintaqaviy filiallarida, shuningdek, 19 ta oliy o‘quv yurtlari va mamlakatimizdagi 59 ta kasb-hunar kollejlarida malaka oshirish kurslari hamda Vazirlar Mahkamasi bazaviy o‘quv markazlari samarali tashkil qilingan.

TATU qoshidagi "Elektron hukumat" o‘quv markaziga Koreya Respublikasidan 1 yil muddatga xorijiy mutaxassis taklif qilingan. Unga "Elektron hukumat" loyihalari doirasida yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing va mazmunini o‘zgartirib gapirib bering.*
2. *Universitetingiz haqida taqdimot tayyorlang.*
3. *Matndan uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlarni yozing.*

Bilib oling:

1955 yil-Toshkent elektrotexnika aloqa instituti (TEAI)

1960 yil-elektroaloqa muhandislari birinchi avlodi tayyorlandi

1978 yil-Frunze (hozirda Bishkek), Dushanbe, Olma-Ota va Farg‘ona shaharlarida TEAI sirtqi fakultetining tayanch punktlari tashkil etildi.

1993 yil TEAI instituti qoshida aloqa zabitlarini tayyorlash uchun maxsus fakultet tashkil etildi

1994 yil-Markaziy Osiyo respublikalari hamda Mo‘g‘iliston, Pokiston va Hindiston aloqa tarmoqlari injener-texnik xodimlari malakasini oshirish uchun institut qoshida Markaziy Osiyo telekommunikatsiya o‘quv markazi (SAUTST) tashkil etildi

1997 yil-institut qoshida litsey-internat faoliyat yurita boshladi

1999 yil-institut qoshida akademik litsey faoliyat yurita boshladi

2002 yil-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan TEAI Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) deb atala boshlandi

2005 yil-Qarshi, Nukus, Samarqand, Urganch va Farg‘ona shaharlarida TATU mintaqaviy filiallari tashkil etildi

2017 yil-universitetga Muhammad al-Xorazmiy nomi berildi.

6-topshiriq. Universitetingiz tarkibi bo‘yicha klaster tuzing.



7-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodidan foydalanib matnlarda keltirilgan so‘z va so‘z birikmalariga izoh bering.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Bakalavriat	
Magistratura	
Masofaviy ta’lim	
Akademiya	
Institut	
OTM	

8-topshiriq. Oliy ta’lim muammolariga bag‘ishlangan ilmiy maqola yozing.

9-mavzu. BO‘LAJAK KASBIM. KASBIM TARIXI

Matn va uning ko‘rinishlari. Dialogik va monologik matn

Topshiriq. Matnni o‘qing

Kasb tanlash

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda siz uchun eng sevimli bo‘lgan kasbni tanlang, shunda bir umr ishga bormaysiz, unda yashaysiz». Agar kishi o‘z sevgan kasbida ishlayotgan bo‘lsa, u hech qachon har kun ertalab o‘zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag‘bat hamda ma’naviy ozuqa beradi. O‘zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o‘tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo‘ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobilarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutishadi. Bu toifadagi kishilarning hatti-harakatlaridan ma’lumki, o‘zlari yoqtirgan mashg‘ulotni o‘z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya’ni, ular o‘zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug‘ullanuvchi kishilardir. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o‘zi bajarayotgan faoliyatidan qanoat olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, hayotda kasbidan zavq olayotgan va muvaffaqiyat qozongan insonlardan ibrat olish lozim. O‘z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta’mirlovchisi bir tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo oz kasbini yomon ko‘radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan insondan baxtlidir

Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o‘rganing. Agar buning iloji bo‘lmasa, kasbingizni imkon qadar o‘zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o‘zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matni o‘qing. Undagi asosiy fikrni aytинг.*
2. *Hayotga munosabat va qiziqishlaringiz haqida gapirib bering.*
3. *Tanlagan kasbingiz haqida dialog tuzing.*

1-topshiriq. Kasb tanlovi mavzusida esse yozing.

2-topshiriq. Maqollarni o‘qing. Ma’nosini izohlang. Ulardan namunalar yod oling.

Hunar o‘rganish uchun ham hunar kerak.

Har ishning bir ustasi bor,

Har ustaning bir ustozи bor.

Har kasbning o‘z gashti bor.

Har kimning kasbi-o‘ziga.

Har hunarning o‘z siri bor,

Har ishning o‘z eri bor.

Hunar bo‘lsa qo‘lingda,

Non topilar yo‘lingda.

Hunar-zar, hunarsiz-hor.

Hunar-oqar buloq,

Ilm-yonar chiroq.

Hunar tagida hunar bor.

Hunar-tuganmas xazina.

Hunar to‘yg‘izar,

Ot mindirib, to‘n kiygizar.

Hunar, hunardan unar.

Hunari borning oltin bilagi bor.

Hunari yo‘q kishidan

Bigizi bor yamoqchi yaxshi.

Hunari yo‘q kishining,

Mazasi yo‘q ishining.

Hunarli yigit-mevali daraxt.

Hunarli kishi och qolmas.

Hunarli moy oshar,
Hunarsiz loy oshar.
Hunarli er xor bo‘lmas,
Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas.
Hunarli o‘lmas,
Hunarsiz kun ko‘rmas.
Hunarlining hunari
Murodiga yetkazar.
Hunarsizning yurari
Qaro yerga yetkazar.
Hunarmandning noni-butun.
Hunarni o‘rganib qo‘ysang,
Sendan osh-non tilamaydi.

1- mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling

Выбор профессии

Современный список профессий содержит около 40 000 наименований. Если бы каждый день, исключая выходные и каникулы, человек слушал бы рассказ только об одной профессии, чтобы узнать обо всех, ему понадобилось бы около 185 лет. Психологи предложили простую и удобную классификацию всех 40 000 профессий. Главным признаком профессии выделяют предмет труда, то есть то, чем работает человек. По этому признаку профессии делятся на пять групп.

1. «Человек и природа». К этой группе относятся все профессии, связанные с природой. Это биологи, агрономы, цветоводы, экологи, геологи, гидрологи.

2. «Человек – техника». К этой группе относятся профессии, предметом труда которых является техника. Это токарь, шофер, машинист, механик, строитель.

3. «Человек – человек». К ней относятся профессии, связанные с общением людей – врач, учитель, воспитатель, тренер.


4. «Человек - знаковая система». Это профессии, в которых человек имеет дело со знаками. Для математика такими знаками являются математические символы, для переводчика - родной и иностранный язык, для бухгалтера – отчёты, документация.

5. «Человек – художественный образ». Эта группа объединяет людей, создающих эстетические ценности. Это музыкант, резчик по ганчу, писатель, дизайнер.

С помощью этого разделения психологи определяют, какую профессию может выбрать человек.

Главная гарантия правильного выбора профессии – в горячем желании и серьёзном отношении к выбранной профессии.

3-topshiriq. Kasb turlari bo‘yicha klaster tuzing.



4-topshiriq. Matnni o‘qing

Pochta tarixi

Aloqa ishlarida maxsus xizmatkorlar-choparlar podshoh va mahalliy hokimlarning farmoyish va xat-xabarlarini tashiganlar. Ular hukumatdan maosh olib turganlar. Chopalarning bir guruhi oliy hukmdorlarning kechiktirib bo‘lmaydigan farmoyishlari va boshqa xabarlarini belgilangan yurtlar va odamlarga yetkazib turganlar. Xabarchilarning bu guruhi shuturpari (qanotli tuyalar) deb atalgan. Xabarchi choparlar tepasida muboshir(arabcha xushxabar tarqatuvchi) deb ataluvchi va saroyda hurmat-e’tiborga ega bo‘lgan amir turgan.

O‘tmishda xonlar va mahalliy hukmdorlar savdo karvonlaridan ham xabar /xabarchi/positasida foydalanganlar. Savdogarlardan axborot manbai sifatida olimlar ham keng foydalanishgan.

Choparlar va savdo karvonlariga hukumat katta imtiyoz va qulayliklar yaratgan. Masalan: yo‘l ustida(bir kunlik yo‘l ustida (yemxonalar)forscha: xabarchi otlar saqlanadigan joy/va rabotlar/arabcha: karvonsaroy/qurdirilib, ularning tepasiga maxsus nazoratchilar/yomchilar, rabotbonlar/qo‘yilgan. Ularning zimmasiga choparlar, savdogarlar va elchilarga qo‘noq va oziq-ovqat berish, jo‘nab ketishlarida horigan /charchagan/ va o‘sallab qolgan ot-ulovini almashtirib berish va yo‘lovchilarning xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan. Yemxona va rabotlardan tashqari, yo‘l ustidagi qishloqlarning aholisi ham elchi va choparlarga qo‘noq va oziq-ovqat berishga majbur etilganlar.

* * *

O‘tmishdagi ko‘pgina mamlakatlarda pochtachilarga katta hurmat bilan qarashgan. Misrda xat tashuvchilarga hatto haykal qo‘yilgani ma’lum. Yunonistonda ular eng hurmatli insonlardan sanalardi.

* * *

O‘tmishda pochtachilar o‘ta rostgo‘y va tezkor bo‘lish bilan birga, og‘zaki xatni yetkazishda ham ehtiyyotkor edilar. Qadimgi elatlarning pochta stansiyalari bir-biridan besh kilometr uzoqlikda joylashgan.

Ular kecha-kunduz navbatchilik qilishardi. Stansiyadagi navbatchi pochtachilar bir-birlarini gulxan yoqib xabardor qilishgan. "Xat"ni yetkazishda choparlar bir daqiqa ham to‘xtashmagan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matnni so‘zlab bering.*
3. *Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing.*

5- topshiriq. Matn asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

2-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Kasb-hunarga oid so‘zlarni ishlatalishiga e’tibor bering.

Telefon tarixi haqida

Dunyodagi eng birinchi telefon stansiyasi 1878-yili Amerika Qo‘shma Shtatlarning Nyu-Xeben shahrida ishga tushirilgan. Rossiyada esa, dastlabki telefon stansiyalari 1882-yildan boshlab Peterburg, Moskva, Riga va Odessa kabi shaharlarda paydo bo‘la boshlagan; Toshkentda birinchi telefon aloqasi Turkiston o‘lkasi pochta-telegraf idorasi va shu idora boshlig‘ining uyi o‘rtasida o‘rnatilgan. Korxonalar va aholi foydalanishiga mo‘ljallangan, mijozlarni bir-birlari bilan ulash ishlari qo‘lda bajariladigan birinchi telefon stansiyasi 1904-yilning 7-sentabrida foydalanishga topshirilgan.

Birinchi avtomat telefon stansiyasi Shvetsianing "Ericson" firmasi ishlab chiqargan mashina tizimidagi ATS bo‘lib, hozirgi 32/33 ATS binosida joylashgan va 1932-yilning 8-mart kuni ishga tushirilgan.

Dekadali-odimlab ishlovchi birinchi ATS 1958-yili (hozirgi 44 ATS), birinchi koordinat ATS esa, 1972-yili (hozirgi 56 ATS) ishga tushirilgan.

Nazariy ma’lumot

Matn va uning ko‘rinishlari

Ma’lum bir shaxs tomonidan ayrim voqeа-hodisa, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasi matn deyiladi.

Matn ko‘rinishlari 2 xil bo‘lib, ular mikromatn va makromatndir.

Bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og‘zaki nutq parchasi mikromatn deyiladi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi.

Matnning turlari ham 2 xil: ma'lumotnama matni va ijodiy-tavsifiy matn.

Ma'lumotnama matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Ijodiy-tavsifiy matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlaridir.

Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Dialog (yun. *dialogos* – gaplashish, suhbat)-

1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat;

2) adabiy – badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o'rinalar. Hozirgi zamon prozasi rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmog'inining ortishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa san'atlar bilan o'zaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin;

3) falsafiy–publisistik mazmun yo'nalishidagi janr, unda qo'yilgan masala bir necha kishining suhbatini shaklida muhokama etiladi. Dialog janriga antik davrning Suqrot, Aflatun singari mutafakkirlari asos solganlar. Keyinchalik o'rta asrlar, Uyg'onish davri va Yevropa ma'rifatchilik adabiyotida ham dialog janri ancha faol bo'lgan. O'zbek adabiyotida dialogning ildizlari munozara janriga borib taqaladi. XX asr boshlari o'zbek adabiyotida dialog janri, unga xos unsurlardan ma'rifatchilik g'oyalarini ommalashtirishda samarali foydalanildi. Jumladan, Fitratning "Munozara", "Bedil" asarlarini dialog janri namunasi sanash mumkin.

Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Monolog (yunon. monos – yakka, logos – so‘z)-yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o‘zgalar replikalari bilan bo‘linmagan nutqi. Monolog og‘zaki shaklda (turli yig‘inlardagi nutq, ma’ruza, hisobotlar) ham, yozma shaklda (publitsistika, memuarlar va h.) ham keng qo‘llanadi. Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalaniadi. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiy – estetik vazifalar doirasi ancha keng.

Monolog – dramatik personajning ruhiy holati, uning ongiyu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli. Ayni chog‘da, shartli ravishda tasvirlanuvchi bunday ruhiy jarayonlar voqealarga g‘oyaviy – hissiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajaradi. Monolog lirikaning ustuvor nutq shakli, lirik qahramon kechinmalari, asosan, uning monologi orqali ifodalaniadi. Bu narsa ijroviy lirika namunalarida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi, shuning uchun amaliyotda bunday she’rlar monolog deb ham yuritiladi (A. Oripov. “ Hamza”; X. Davron. “Abulhay so‘zi”). Sifat jihatidan monologning turli ko‘rinishlari mavjud (q. badiiy nutq, ichki monolog).

6- topshiriq. Konseptual jadvalni to‘ldiring.

	Replika	Yozma nutq	Og‘zaki nutq	Suhbat	Ma’ruza
dialog					
monolog					


3-mashq . Dialogni o‘qing va uni davom ettiring

- Siz bu yil qaysi universitetga hujjatlaringizni topshirdingiz?
- Men bu yil Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga hujjatlarimni topshirdim.
- Nima uchun aynan shu oliyohoni tanladingiz?
- Chunki men dasturchi bo‘lishni orzu qilaman.
- Bu sohaga qiziqishingiz qachon paydo bo‘ldi?

- Maktabda o‘qib yurgan chog‘imda informatika fanini o‘qish davomida bu fanga qiziqishim uyg‘ongan.
- Siz kompyuterdan foydalanishni yaxshi bilasizmi?
- Ha, albatta.
- Dasturlar tuza olasizmi?
-

4-mashq. “Hayotdagи maqsadlarim va orzularim” mavzusida monologik matn tuzing.

7- topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib, monologik va dialogik matnlarni solishtiring.



10-mavzu. YETUK MUTAXASSIS. USTOZ MAKTABI

Soha lug‘atlari. Matn tahlili va tahriri. Rezyume

Topshiriq. Matnni o‘qing

-Yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlarida nima muhim: nazariyami yoki amaliyat?

Har bir ta’lim dargohlarida yoshlarning mukammal bilim olishi hamda barkamol avlod bo‘lib shakllanishida juda ko‘p imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi, ta’lim berishda yangi metodlardan foydalanib o‘quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini ortib borishi bugungi kunda o‘zining qator ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda.

Yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlarida nima muhim-nazariyami yoki amaliyat? Ushbu savolga javob topish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan «Yaxshi kasb-yetuk mutaxassis-munosib ish haqi» loyihasi doirasida «Kasb tanlashda amaliyotning o‘rni» mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Unda yoshlar ittifoqi a’zolari, kollej va litsey o‘qituvchilari hamda bitiruvchi o‘quvchilari ishtirok etishdi.

Tashkilot rahbari mavzu yuzasidan so‘zga chiqar ekan, mamlakatimizda har bir sohaga berilayotgan e’tibor xususida alohida to‘xtalib o‘tdi. Shuningdek, «Yaxshi kasb-yetuk mutaxassis-munosib ish haqi» loyihasining mazmun-mohiyati haqida gapirib o‘tdi.

Tadbir davomida dastlab kollejlar faoliyati hamda mutaxassisliklar to‘g‘risida fikr yuritildi. Ta’kidlash mumkinki, har bir sohada yetuk kadr bo‘lib shakllanishda nazariya bilan birga amaliyotning ham o‘rni beqiyos. Ana shu beqiyoslik tadbir davomida tilga olinar ekan, shubhasiz, sohalarning o‘ziga xosligi va hayotimizdagи o‘rniga to‘xtalib o‘tildi. Yetuk mutaxassislар tomonidan mahorat darslari ko‘rsatildi.

O‘quvchilar o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda ko‘rsatib berishdi, mahorat maktabining nozik qirralarini ochib berishdi. Shuningdek, iqtidorli yoshlarning ijod mahsullaridan namunalar keltirildi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing.*

2. *Matnga reja tuzing.*

3. *Reja asosida matnni so‘zlab bering.*

4. *Malakali mutaxassis haqidagi tasavvurlaringizni gapirib bering.*

1- mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling

Путь к профессии – учёба

Правильно ли выбрана будущая специальность? Не разочаровали ли вас первые лекции? После окончания школы нелегко найти единственную, свою профессию. Вы, по – видимому, задавали себе вопросы, какова значимость будущей профессии; где находят применение выпускники вуза, в который вы собирались поступить; каких личностных качеств требует ваша профессиональная деятельность, обладаете ли вы этими качествами. Этот перечень можно было бы продолжить. Каждый ставит на передний план какие-то свои параметры профессиональной деятельности. И здесь человек исходит из своих психологических, физических, интеллектуальных и других способностей и интересов. Неинтересных профессий нет, просто не всегда удается найти самое интересное – ведь оно проявляется не сразу. Есть только один путь к профессии. Этот путь – учёба!

1- topshiriq. She’rni o‘qing va yod oling

Oddiy muallim

Qadri bilinadi menga endi goh

Olis maktabimning o‘sha behasham...

Navoiy-ku bizga ustozdir, biroq

Kimdur o‘qitgan-ku Navoiyni ham.

Shunday buyuk zotga harf o‘rgatgan kim?

Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

Tuproqdek hokisor, bezovta jonlar,
Ammo qanoatda tog‘dek ulug‘vor.
Hatto Temurdayin Sohibqironlar
Pirim deb, etagin o‘pgan zotlar bor.
Qaysar jahongirga yo‘l ko‘rsatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

Yo‘qdan Beruniylar binolar qilgan.
Mashrabni mashhuri dunyolar qilgan
Husaynni-Ibn Sinolar qilgan.
Abdulloning tilin burrolar qilgan,
Ilon o‘ynatgandek so‘z o‘ynatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

Lekin bu hayot nish-sanchiqlaridan,
Qoqinsa ko‘targan qo‘ltiqlaridan.
Otadek ezilgan g‘ussaga botsa,
Boladek quvongan yutuqlaridan.
Uyquda shogirdin o‘ylab yotgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

Muhammad Yusuf

2- mashq. Hikmatli so‘zlarni o‘qing va ularda keltirilgan terminlarni aniqlang hamda ularni tahlil qiling.

Hikmatli so‘zlar

Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir.

Islom Karimov

Ustozlar – aziz yurting eng aziz, eng ulug‘ va mo‘tabar kishilaridir

Islom Karimov

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado, oning haqin yuz gajn ila.

Alisher Navoiy

Har narsa ko‘paysa, arzon bo‘lur,
Bilim ko‘paysa, qadrli bo‘lur.

Abdulla Avloniy

O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lur,
Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lur.

Yusuf Hos Hojib

O‘z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg‘ota bilgan muallim sharaflarga loyiq.

E.Habbar

Har qanday ta’lim va tarbiyada eng asosiy omil – muallim, uning tafakkur dunyosidir.

A.Disterveg

Nazariy ma'lumot

Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

Leksikografiya lot. *lexikos* – so‘z, *grapho* – chizmoq, yozmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug‘at tuzish tamoyillari va usullaridir.

Leksikografiya amaliyoti esa lug‘at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so‘zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o‘z ichiga oladi. Leksikografiya nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlar tarkibi va so‘z tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Lug‘atlar ikki turli bo‘ladi:

- 1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar;
- 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Bu ikki turdagи lug‘atlar lug‘at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug‘at; ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug‘at hisoblanadi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug‘atlar ma’lum bir xalqning madaniy-ma’naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”ni yaratish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida 2000–2006 yillarda 12 jildli “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” yaratildi.

Toshkent shahrida ensiklopedik lug‘atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug‘ullanayotgan alohida muassasa – “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko‘rsatmoqda.


Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar izohli lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar esa tarjima lug‘at sanaladi.

1981 yili Moskvadagi «Русский язык» nashriyotida nashr qilingan 2 jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», 2006–2008 yillarda «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so‘z hamda so‘z birikmasini o‘z ichiga olgan 5 jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», 2001 yili Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati» yoki o‘zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar bunga misol bo‘la oladi.

Izohli lug‘atlar so‘zlarning tanlanishiga ko‘ra umumiy va tarmoq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar umumiy izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar tarmoq lug‘at hisoblanadi. (Masalan, kasbhunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar.)

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta madaniy va ma’naviy boyligi sanaladi.

2-topshiriq. Lug‘at turlari bo‘yicha klasterni davom ettiring.



3- topshiriq. Lug‘atdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug‘atini tuzing. Ularning ma’nosini izohlang.

3-mashq. O‘qing. Atamalarni aniqlab qaysi sohaga oidligini ayting.

Kompyuter, foiz, kredit, ulush, monitor, protsessor, yalpi mahsulot, debit, audit, bit, bayt, klaviatura, qiymat, marketing, dastur, multimedia, aksiya, birja, bank, bozor, kapital, sayt, sahifa, proyektor, koeffitsiyent.

4- mashq. Sohaga oid terminlarni ko‘chirib yozing.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi (AAT) – boshqaruv vazifalarini hal etish uchun tizimli tashkil etilgan axborot jarayonlarini amalga oshirish usul va vositalari majmuidir. U hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan foydalaniladigan rivojlangan dasturiy ta’minotni qo‘llash bazasida bajariladi. Axborot texnologiyasini amalga oshirishdagi texnik vositalarning asosiy qismini kompyuter texnikasi tashkil etgani uchun axborot texnologiyasi, ayniqsa zamonaviy axborot texnologiyasi deganda kompyuter axborot texnologiyasi tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyasi (ZAT) (kompyuter axborot texnologiyasi) – shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi uchun qulay “interfeys”li axborot texnologiyasidir. Ma’lum bir turdagи kompyuter uchun mo‘ljallangan bir yoki bir necha o‘zaro bog‘liq dasturiy mahsulotlar zamonaviy axborot texnologiyalarining vositasi sanaladi.

4-topshiriq. Matnni o‘qing.

Ustoz – misli yonib turgan sham

Rivoyat qilinishicha, imom Buxoriy hazratlari Makkai Mukarramada ta’lim berayotgan chog‘da bir ziyyoratchi Buxoroi Sharifdagi ustozlardan salom va maktub keltiradi. Bu xabarni eshitgan Imom Buxoriy (r.a.) Buxoroi Sharif tomonga yuzlanib, salomiga alik olganlaricha hurmat bajo keltiradilar, so‘ngra maktubni ikki qo‘llab olib, tabarruk qilib, ehtirom bilan xatni o‘qigan ekanlar.

Ha, ustoz misli yonib turgan shamga qiyos. O‘zi yonib, atrofga nuru ziyo sochadi. Boshqalar ana shu nurdan bahramand bo‘ladi. Shu sabab, har bir inson yoshidan, mavqeidan, darajasidan qat`i nazar, saboq bergen ustoz-murabbiyi oldida mudom ta’zimda. Hazrat Navoiy

aytganlaridek, Haq yo‘lida bizga ming ranju qiyinchilik bilan saboq bergen muallimlarning mashaqqatli mehnatlari haqini hech bir boylik bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ularning mehnatlari beqiyos va benazir.

Mamlakatimiz rahbari farmoni bilan 1997 yildan buyon 1 oktabrning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” sifatida keng nishonlanayotgani millatimizning ustoz-murabbiylarga bo‘lgan hurmat-ehtiromining amaldagi yorqin ifodasi bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbari ustoz-murabbiylarga ta’rif berib, “Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i mакtab bo‘lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir. Chindan ham o‘qituvchi nainki, sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg‘ak qalblarga ezgulik yog‘dusini baxsh etadigan, o‘z o‘quvchilariga haqiqatdan ham hayot maktabini beradigan mo‘tabar zotdir”, degan edi. Chindan ham, ustozlar murg‘akligimizdanoq qalbimizga ezgulik urug‘larini sochadi, qo‘limizdan tutib, ma’rifat saboqlarini beradi, mehr-muhabbat ulashadi. Biz erishayotgan ulkan yutuqlarimiz, qo‘lga kiritayotgan g‘alabalarmizda ularning hissasi katta. Shu sabab, ularni mudom sharaflagimiz, ardoqlagimiz keladi.

Afsonalarga ko‘ra, mashhur sarkarda Iskandar Rumiyan (Aleksandr Makedonskiy) “Nechun Arastuni (Aristotel) otangizdan ortiq izzat qilasiz?”, deb so‘radilar. Iskandar Rumiy javob berdi: “Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko‘tardi. Ya’ni, otam meni dunyoga kelmog‘imga sabab bo‘ldi. Ustozim ilm va odob o‘rgatib, martaba va izzatimning ortmog‘iga sabab bo‘ldi”. Ko‘rinib turibdiki, dunyoni o‘z ilmu ma’rifati bilan lol qilgan insonlar ham doim ustozini yuksak qadrlagan, izzat-hurmatini joyiga qo‘yan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing.*
2. *Matnni ijodiy so‘zlab bering.*
3. *Ustoz haqidagi rivoyatlardan bilganingizni aytib bering.*

5-topshiriq. “Sevimli ustozim” mavzusida esse yozing.

6-topshiriq. FSMU jadvalini to‘ldiring.

Nima uchun o‘qituvchilik eng mashaqqatli va sharafli kasb hisoblanadi?



Nazariy ma'lumot

Matn tahlili va tahriri

Badiiy tahlil – matn tahlilining murakkab turlaridan bo‘lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o‘rganishdir.

Badiiy matnda kishilarining munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog‘langan kishilar hayotining ma’lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayoti o‘z aksini topadi.

Matnning adabiy tahlilida quyidagi masalalarga alohida e’tibor berilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida oliyjanob fazilatlarini ulug‘lash,adolat va xalqparvarlik, do‘stlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqati asarning g‘oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, Shirin, Mehnbonular o‘rtasidagi kurash ko‘rsatiladi. Shoir Farhod, Mehnbonu, Shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. Shohni adolatli bo‘lishiga undash g‘oyasini ilgari suradi.

2. Tahlilda asarning mazmuniga ham shakliga ham e'tibor berish va mazmunning yetakchi rolini ta'kidlab o'tish zarur.

3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog'liq holda o'rganiladi.

4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o'rganish ham adabiiy tahlilning asosiy vazifasidir. Badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya, muayyan g'oyani ifodalaydi. Mavzu va g'oyaning aktualligi va xalqchilligi, mazmun va shaklning o'zaro mosligi, obrazning tipikligi va xaqqoniyligi syujet va kompozitsiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi.

Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash so'z va so'z shakllari badiiy tasvir vositlarining asar g'oyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi. Matnni sharhlashda lingvistik aspekt asosiy o'rinni egallaydi. U traditsion adabiy tahlilda ham yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Badiiy matn murakkab va ko'p qatlamdir. Uni tahlil qilishdan maqsad – ijodkor o'ylagan ma'no va ichki kechinmalarni maksimum holda payqab olishdir. Ijodkorni o'ylagan narsasi faqat badiiy asar orqali namoyon bo'ladi.

Nazariy ma'lumot

Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume)

Rezyume fransuzcha “résumé” so'zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Rezyume ishga topshirayotgan inson to'g'risida ma'lumotni taqdim etadi, ya'ni uning ismi, ma'lumot darajasi, ish tajribasi, qiziqishlari va hokazo.

Rezyume hozirgi kunda ish qidirishda eng muhim hujjat hisoblanadi.O'zbek tilida bunday hujjat “tarjimai hol” va “shaxsiy ma'lumotnomasi” deb ham atalishi mumkin, lekin rezyumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezyume asosan ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatalishi mumkin. Masalan,

tashkilot direktori yoki loyiha menejerining rezyumesi grant taklifi bilan birgalikda donor tashkilotga topshiriladi.

Rezyumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy ma'lumot
 - a. Ism-sharif (talab qilinadi)
 - b. Murojaat manzillari: telefon, email, yashash joyi (talab qilinadi)
 - c. Jins (majburiy emas)
 - d. Millat (majburiy emas)
 - e. Tug'ilgan sana (majburiy emas)
2. Qisqacha mazmun va/yoki professional maqsad (ixtiyoriy)
 - a. Bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarini sanab o'tish.

Rezyume namunasi:

Alloma Kamolova

Toshkent sh., Firdavs mavzesi, Shahrisabz ko'chasi 7-uy.

Tel: +998902220000; Alloma.kamalova@mail.uz

Qisqacha mazmun: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassis. Ingliz va rus tillarini mukammal bilaman. 2008 yilda Biznesni boshqarish yo'nalishi bo'yicha Magistraturani oliv darajada tamomlaganman va ilmiy darajaga egaman.

Ma'lumot:

2006-2008 Magistr, Biznesni boshqarish. O'zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet-4 ko'chasi. www.nuu.uz. Fanlar: Loyiha tuzish va boshqarish (22 soat) Makroiqtisodiyot (25 soat)

2002-2006 Bakalavr, Menejment. Farg'onan Politexnika Instituti. Farg'onan shahri, Farg'onan ko'chasi 86-uy. www.ferpi.uz

Ish tajribasi:

25.01.2011 – 10.02.2014 Loyiha mutaxassisasi, “Yoshlarda ish ko‘nikmalarini rivojlantirish loyihasi”. NNT “Faol yoshlar”, Toshkent sh., Shaxrisabz ko‘chasi 1-uy. Tel: 267-00-00

- Yoshlar uchun 5-kunlik treninglarni tashkil qilganman: trening rejasini tuzish; trenerlarni jalg qilish; joy va kerakli jihozlarini tayyorlash; ishtirokchilarni taklif qilish; trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish; trening hisobotini yozish.
- BMTD va “Kamolot” bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Yoshlarni ish bilan ta’minlash muammolari” mavzusi bo‘yicha izlanishlarni olib borishda va yakuniy hisobotini yozishda ko‘maklashganman.
- Loyihaning chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo‘yicha prezentatsiyalar berish.

01.06.2008 – 28.12.2011 Dastur yordamchisi, Mahalliy rivojlanish markazi, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi 165-uy, Toshkent. Tel: 237-90-00

- Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarida mahalliy tadbirlarni tashkil qilishda yordam berish: tarqatma materiallarni tayyorlash; treninglar uchun o‘quv zallarini tayyorlash;
- Tadbirlar va yangi loyihalar uchun yoshlarning ijtimoiy ehtiyojlari to‘g‘risida axborot yig‘ish va kichik izlanishlar olib borish;
- Uchrashuvlarning hisobotini yozib borish.

Xorijiy tillar: Ingliz va rus tillarida to‘liq yozish, o‘qish va muloqot qila olish.

Kompyuter dasturlari: Windows 7; Microsoft Office 2008 (Power Point, Word, Excel); Internet

Qo‘srimcha kurslar: 2011, Toshkent menejment markazi tomonidan tashkil qilingan 6-haftalik “Loyiha tuzish va boshqarish kursi”ni muvaffaqiyatli tamomlaganman.

Yutuqlar: 2008 O‘zbekiston Respublikasi Presidentining davlat stipendiyasi sohibasi.

7-topshiriq. Namuna asosida o‘z rezyumeingizni yozing.

11-mavzu. SHARQ AKADEMIYALARI

Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Topshiriq. Matnni o‘qing

Xorazm Ma’mun akademiyasi

Ma’mun akademiyasi 1004-1005 yillarda Xorazmda yaratilgan bo‘lib, O’rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademianing “Ma’mun” deyilishining sababi, Ma’muniy xorazmshohlar davrida (997-1017) ularning homiyligida tashkil qilingan va ilmiy ish olib borgan. Akademiya 1017 yilda o‘z faoliyatini to‘xtatilishining sababi Xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’munning isyonchilar tomonidan o‘ldirilishi bo‘ldi. Shundan so‘ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

1004 yildan boshlab Gurganjda “Darul Hikma va maorif” ilmiy tashkiloti faoliyat ko‘rsata boshlagan. Bu ilmiy tashkilot ko‘p jihatdan Platonning Afinadagi Akademiyasini va Bog‘doddagi “Bayt-ul hikma” akademiyasiga o‘xshagan Xorazm Ma’mun akademiyasida o‘sha davrning eng ko‘zga ko‘ringan ensiklopedist olimlari va mutafakkirlari xizmat qilganlar. Ular qatorida quyidagi yirik tadqiqotchilarni sanab o‘tish mumkin: Abulhayr ibn Hammar, Jurjoniy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad ibn Muhammad as-Sahiy, Xorazmiy va boshqalar. Bular o‘sha davr sharoitida haqiqiy ilmu-fanlarning mashhur kimyogarlari, tabiatshunoslari, tibbiyotchilari, matematiklari, astronomlari, muhandis olimlari, mantiqshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, geograflar va boshqa sohalarning atoqli vakillari yig‘ilgan edilar.

BMT ning Yunesko tashkiloti O‘zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005 yilda Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘zbekiston ushbu tantanalar doirasida Xorazm Ma’mun akademiyasini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi. 1997 yil 11 noyabrdan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Xorazm Ma’mun akademiyasini tiklash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan bu akademiya o‘z tarkibida arxeologik, til va adabiyot,

biologiya bo‘limlarini tashkil qildi va o‘z ajdodlarining nomi va ruhiga loyiq ish olib borishga intilmoqda.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Matn mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.*
3. *Ma’mun akademiyasida xizmat qilgan yirik olimlar haqida ma’lumot tayyorlang.*

1-topshiriq. “Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bo‘yicha matn tuzing

“O‘rta Osiyoning buyuk siymolari” mavzusi bo‘yicha quyida berilgan tayanch so‘z va birikmalardan foydalanib mustaqil tarzda mikromatnlar tuzing.

- 1) Xorazm, Bog‘dod akademiyasi, rasadxona, o‘nlik tizim, to‘rt amal, algoritm, algebra;
- 2) Samarqand, sakkizta asar, «Samoviy jismlarning harakati va yulduzlar ilmi», astronomiyadan qo‘llanma;
- 3) Forob, Damashq, Misr, 160dan ortiq asar;
- 4) Kat shahri, Ma’mun akademiyasi, xorijiy tillar, 200ga yaqin ilmiy asar, globus, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», G‘azna;
- 5) Sayram, Yassi, 23 yosh, «Hikmatlar».

1-mashq. O‘zbek tiliga tarjima qiling

Академия наук Узбекистана

Академия наук Республики Узбекистан была основана в 1943 году в Ташкенте как Академия наук Узбекской ССР на базе Узбекского филиала Академии наук СССР.

Первым президентом Академии наук Узбекской ССР стал математик Т. Н. Кары-Ниязов. Первыми академиками (действительными членами) также стали этнограф М. С. Андреев, ирригаторы А. Н. Аскоченский и В. В. Пославский, писатели Гафур Гулям и Муса Ташмухамедов (Айбек), математики

В. И. Романовский и Т. А. Сарымсаков, геолог А. С. Уклонский, физик С. У. Умаров, биолог Р. Р. Шредер.

В 1991 году в составе Академии наук Узбекской ССР имелось 7 отделений, Каракалпакский филиал, свыше 30 научных учреждений и 6 конструкторских организаций.

На 2007 год в учреждениях Академии наук Республики Узбекистан работали около 6000 сотрудников, из их числа более 2000 сотрудников непосредственно задействованы в научно-исследовательской деятельности; членами академии были 49 действительных членов (академиков) и 106 членов-корреспондентов. При реструктуризации академии двухуровневая система членства была упразднена.

К 2017 году в результате убыли членов академии по смерти, в личном составе АН РУз осталось 63 академика. В конце 2017, впервые за 18 лет, были проведены очередные выборы, добавившие в её штат 32 новых действительных члена. На начало 2018 года в АН Узбекистана состоят 95 действительных членов, распределённых по трём отделениям по областям знаний:

- Отделение физико-математических и технических наук;
- Отделение химико-биологических наук и наук о Земле;
- Отделение общественно-гуманитарных наук.

2- topshiriq. Matnni o‘qing, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib tahlil qiling.

Muso al-Xorazmiy

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan.

Xorazmiy dunyo faniga katta hissa qo‘shti. U – **algebra** fanining asoschisi. “Algebra” so‘zi uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning bu arifmetikaga oid risolasi **hind raqamlariga** asoslangan. Hozirgi kunda biz foydalanadigan **o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi** va shu

sistemadagi amallar Yevropada keng tarqalgan. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “**algoritm**” shaklida fanda abadiy o‘rnashib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo‘lib qoldi.

Xorazmiyning eng yirik **astronomik** asari uning “**Zij**”idir. Bunda shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning **koordinatalari** keltirilgan. Uning bu asari o‘rta asrdagi eng birinchi geografik asar bo‘lib, keyingi davrlarda geografiya fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib, g‘arb va sharq tillariga tarjima qilingan. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston va boshqalar) mukofot va medallar ta’sis etilgan.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Algebra	
O‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi	
Algoritm	
Zij	
Koordinata	
Astronomik	
Hind raqamlari	

3-topshiriq. Jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan sharq allomalari haqida taqdimot tayyorlang.

4-topshiriq. She’rni o‘qing. Tushirib qoldirilgan so‘zlarning o‘rnini to‘ldiring. Matematikaga sizning munosabatingiz qanday?

Matematika

Matematika qo‘yni to‘la sir bo‘ladi,

Birga birni ko‘paytirsa-....bo‘ladi.

Derazadan mo‘ralaydi olma shohi,

Ufqda bulut – ertaga bo‘ladi.

Matematika, yomg‘irlarda chopgim kelur,

Jumbog‘ingga men ham topgim kelur.

Derazadan mo‘ralaydi bodom shohi,

Boqqa chiqib qo‘ng‘izlarni o‘pgim

Matematika , men ham o‘yga botgim kelur,

O‘ylab-o‘ylab o‘zingga tosh kelur.

Sen samolyot kashf etasan, mening esa

Yalpiz bilan achenlashib yotgim

Matematika – oy bo‘ladi, yil

Tankni tankka ko‘paytirsa kul

Dunyo qachon bo‘ston bo‘lar, gul bo‘ladi?

Adabiyot o‘ylayverib sil bo‘ladi!

Matematika lov-lov yonib turgan cho‘g‘san,

Sendan nima yasashlarin bilgan yo‘qsan.

Derazadan mo‘ralaydi gilos shohi,

U qo‘ndog‘ing, o‘zing miltiq, o‘qsan.

Matematika, qo‘yning to‘la sir bo‘ladi,
Birga birni ko‘paytirsa-....bo‘ladi.
Qovurg‘amning tagida bir qumri yig‘lar,
Doskadan meni ayirsang-SHE'R!

Muhammad Yusuf

Nazariy ma'lumot

Referat – ilmiy uslubga xos bo‘lgan matn. U oldindan tayyor matn asosida yaratiladi. Referat yozishdan maqsad – manba sifatida o‘rganilayotgan matnning mazmunini qisqacha bayon qilishdir. Referat ma’lum bir tuzilishga ega:

- Kirish;
- Asosiy qism;
- Xulosa

Referatda quyidagi savollarga javob beriladi:

Nima haqda? Kimga va nima qiziqarli? Nima uchun bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi?

Referat oxirida o‘quvchi nuqtai nazaridan umumiyl xulosa beriladi va quyidagi konstruksiyalar qo‘llanadi. *O‘quvchi qiziqish bilan tanishib chiqadi, o‘rganganlarim men uchun foydali bo‘ldi, o‘zi uchun topadi, men bu fikrga qo‘shila olmayman va b.*

Referat so‘zi lotincha “referre” negizidan olingan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “bildirish, xabar berish” degan ma’nolarni anglatadi. Referat qismlarining tuzilishi va uning ustida ishslash bosqichlari:

Odatiy tartibga ko‘ra referat ustida ishslashning boshlang‘ich qismini tanlangan mavzuning izohi ochib berishi lozim. Unda mavzuning dolzarbligi, ushbu mavzu yuzasidan hozirgacha fanga ma’lum bo‘lgan va o‘z tasdig‘ini topgan faktlar, natijalar; olimlarning

uni o‘rganish ustida olib borgan ishlari; adabiy manbalardan keltirilgan misollar, foydalanilgan materiallar; o‘rganilayotgan mavzuning amaliy yoki ilmiy tasdig‘ini topgan masalalari o‘z aksini topadi.

Referat quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

1. Titul varag‘i.
2. Reja
3. Kirish qismi
4. Asosiy qism
5. Xulosa
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Referatni tuzishda ma’lum qonun-qoidalarga amal qilinadi:

1. Referat A-4 standart formatdagi oq qog‘ozga yoziladi va matn uning faqat bir tomonini egallaydi.
2. Titul varag‘i – ishning mavzusi, muallif va ilmiy rahbarning ism-sharifi hamda o‘quv muassasasining to‘liq nomini o‘zida aks ettirishi shart.
3. Referatda foydalanilgan manbalarning nomi aniq ko‘rsatilishi lozim.
4. Bibliografiya odatda doimiy tartibda (ko‘pincha alifbo tartibida) bo‘ladi.
5. Referatga kiritilgan barcha qo‘sishimchalar – grafik, chizma va rasmlar – qora pastada chizilishi shart.
6. Referatning umumiylajmi 25 varaqdan oshmasligi lozim.

Nazariy ma’lumotlarga asoslanib quyidagi savollarga javob bering.

1. *Referat qanday uslubga xos matn? Nima uchun?*
2. *Referat qanday qismlardan tashkil topadi?*
3. *Referatda qanday savollarga javob beriladi?*
4. *Qanday konstruksiyalar referat uchun xos?*
5. *“Referat” so‘zining ma’nosi nima?*

5-topshiriq. Aqliy hujum metodi

Matnni tinglang. Ibn Sino nomi bilan bog‘liq barcha tushuncha va fikrlaringizni yozing. Fikrlaringizni umumlashtiring.

Abu Ali ibn Sino

Agar biror xorijlik Markaziy Osiyo madaniyati va ilm-fani bilan qiziqib, tarixiga murojaat qilsa, albatta, Ibn Sino degan nomni uchratadi. Kim tibbiyat bilan shug‘ullansa, u, alabatta, Avitsena degan nomni biladi.

Buyuk daho Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog‘ida tug‘ilgan. U yoshligidanoq o‘tkir zehni va ilmgaga qiziqishi bilan hammani lol qoldirardi. Ibn Sino An-Notiliy qo‘lida tarbiya oladi. U astronomiya, falsafa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyat, mantiq, adabiyot, mineralogiya va boshqa fanlar bilan shug‘ullangan. 10 yoshida Qur’onni yod olgan, 16 yoshdayoq atoqli tabib bo‘lgan. U Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab, saroyning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan.

Ibn Sino 1002 yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda bo‘ladi. U 1037 yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Agar buyuk tabibning ijodiy merosini ko‘zdan kechirsak, uning naqadar serqirra iste’dod egasi ekanligining guvohi bo‘lamiz. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma’lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o‘ndan ortig‘i astronomiyaga oid asarlardir va h.k.

Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G‘arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. Lekin u agar buyuk tabib bo‘lmanida edi, adabiyot va san’atga oid ishlari bilan ham madaniyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan bo‘lar edi. «Yusuf qissasi» Qur’on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo‘lib, ramziy-majoziy usuldadir. «Rasolat-at tayr» («Qush risolasi»), «Uyg‘oq o‘g‘li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «Salomon va Ibsol» esa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g‘azal, ruboiy, fardlar yaratgan. Uning she’rlari ilm-ma’rifatga da’vat qiladi; shoir dunyo sirlarini bilishga intiladi, yaxshi axloqiy xislatlarni egallashga chaqiradi. She’riyatning nazariy masalalari uning «Musiqa ilmida katta to‘plam» asarida ham tadqiq etilgan. U tibbiy yo‘l-yo‘riqlarni, ko‘rsatmalarni she’riy yo‘l bilan bayon etgan. Bular urjuzalar deb atalgan. Bunga sabab ularning rajaz vaznida yozilganidir.

6-topshiriq. Fan rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli o‘zbek olimlari haqida referat tayyorlang.

12-mavzu. ILM SARI YO‘L. SOHA OLIMLARI HAYOTIDAN

Taqriz . Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Topshiriq. Matnlarni o‘qing

Vosil Qobulov (1921-2010)



Qobulov Vosil Qobulovich 1921 yil 5 sentabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Matematik olim O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1966), fizika-matematika fanlari doktori (1961), professor (1964). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi (1977).

Toshkent temir yo‘l muhandislari institutini tugatgan (1949). Chorjo‘y – Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurilishida ishlagan (1949-50), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Inshootlar institutida aspirant, ilmiy xodim (1950-57). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Matematika institutining hisoblash texnikasi bo‘limi mudiri (1957–63). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mexanika instituti va hisoblash markazi direktori (1963–66). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Kibernetika instituti direktori (1966–77), institut O‘zbekiston Fanlar akademiyasining «Kibernetika» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirilgach, uning bosh direktori (1978–92) bo‘lib ishlagan.

Ilmiy ishlari hisoblash texnikasini fan, texnika va xalq xo‘jaligining turli sohalariga joriy etish bilan bog‘liq.

Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati (1971). «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Qobulov Vosil Qobulovich 2010 yil vafot etgan.

Jo‘ra Abdullayev (1927)

Abdullayev Jo‘ra Abdullayevich 1927 yil Toshkent shahrida tug‘ildi. Energetik olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1989), texnika fanlari doktori (1973), professor (1982). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1980).

O‘rta Osiyo politexnika institutini bitirgan (1953). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Energetika va avtomatika institutida katta ilmiy xodim (1959–60), O‘zbekiston energetika va avtomatika ilmiy tadqiqot institutida laboratoriya mudiri (1960–76), Toshkent elektrotexnika aloqa instituti rektori (1971–92), shu institutda maslahatchi (1996 yildan). O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri (1992–94). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti vazifasini bajaruvchi (1994–96).




Asosiy ilmiy ishlari boshqarish tizimlarida axborotlarga tezkor ishlov berish va axborotlarni uzatish nazariyasi, ko‘p bo‘g‘inli tizimlarda xatolarni aniqlash va bartaraf qilish, ko‘p bo‘g‘inli elementlardagi raqamli qurilmalarning ishonchligini ta’minlash, aloqada raqamli tizimlarni qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan. Kosmonavtikaga doir ishlari ham bor.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

- 1. Matnlarni o‘qing.*
- 2. Akademiklarning soha rivojiga qo‘shtgan hissalari haqida gapirib bering.*
- 3. Olimlarning ilmiy faoliyati xronologik jadvalini tuzing.*

1-topshiriq. FSMU jadvalini to‘ldiring.

Nimaga asoslanib Vosil Qobulovni hisoblash texnikasi sohasidagi taniqli olimlar qatoriga kiritamiz?



3- topshiriq. Maqollarni o‘qing. Ma’nosini izohlang. Ulardan namunalar yod oling.

Zehn qo‘ysang bilimga,
 Ilm tomar dilingga.
 Ilm – aql bulog‘i,
 Aql – yashash chirog‘i.
 Ilm baxt keltirar,
 Bilim taxt keltirar.
 Ilm – yorug‘lik, jaholat – zulmat.
 Ilm istasang, takror qil.
 Ilm olish – nina bilan quduq qazish.
 Ilm olishning erta-kechi yo‘q.
 Ilm topmay, maqtanma.
 Ilm-tubsiz quduq.
 Ilm-egarlangan ot,
 Bilganga – do‘st, bilmaganga – yov.
 Ilm o‘lchovi – aql,
 Zehn o‘lchovi – naql.

Ilm qog‘oz qatida emas, miya qatida.
Ilmi borni yosh dema,
Ilmi yo‘jni bosh dema.
Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq.
Ilmli olar, Ilmsiz oldirar.
Ilmli uy – charog‘on,
Ilmsiz uy – zimiston.
Ilmlining so‘zi – o‘q.
Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas.
Ilmning avvali achchiq,
So‘ngi – totli.
Ilmsiz bir yashar,
Ilmli ming yashar.
Ilmsiz bosh qashir,
Hushomadgo‘y gap tashir.
Ilmsiz imomdan tuxum qilmaydigan tovuq yaxshi.
Ilmsiz kishi o‘limga yaqin.
Ilmsiz olim – to‘qimsiz eshak.
Ilmsizga ishonch yo‘q,
Hunarsizga quvonch yo‘q.
Ilm-u hikmat suvni yondirar.
Ilm-u hunar elga emas, elga.

3-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling. Ajratib ko‘rsatilgan sonlarni so‘z bilan yozing.

Знаете ли вы?

Большинству людей хорошо знаком портрет Галилея – старца с большой бородой. Галилей действительно долго жил (1564-1642), но первое свое крупное открытие в физике сделал *в возрасте до 20 лет*.

Это первое открытие послужило основанием для создания часов. *В возрасте 26 лет* Галилей стал профессором и вскоре экспериментально установил свои знаменитые законы падения тел под действием силы тяжести.

Классическая механика, которая *в течение двух с лишним веков* служила основой физики, была создана Ньютоном, который родился *в год смерти Галилея*.

Ньютон, как и Галилей, одно из крупнейших своих открытий – закон всемирного тяготения – сделал *в возрасте 20 лет*.

Д.И.Менделеев (1834-1907) свою первую научную работу опубликовал *в возрасте 21 года*, еще будучи студентом, а *в 29 лет* был избран профессором. Свой знаменитый периодический закон, принесший ему всемирную славу, Менделеев опубликовал, когда ему было 35 лет.

В возрасте 36 лет Мария Кюри совместно с Пьером Кюри и Беккерелем получает одну из первых премий.

В 1905 году появились три статьи одного и того же автора, каждая из которых могла бы обеспечить ему бессмертие. Автором этих работ был Альберт Эйнштейн, которому было всего лишь 26 лет. *Еще 10 лет спустя* Эйнштейн разработал общую теорию относительности, после чего его слава утвердилась на века.

Nazariy ma'lumot

Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Taqriz (arab. – ijobjiy baho) – adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma'lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zeturini tanlab olishga ko‘maklashadi. Ichki taqriz ham bo‘ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq bu taqriz matbuotda e’lon qilinmaydi.

Ilm [bilim; fan; nazariya] – o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma'lumot.

Fan [mahorat; ilm, bilim]-Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi.

Taqriz – saylanma bayonning bir turi. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko‘rsatiladi. Taqrizchi o‘zining da‘volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoniy ko‘rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro‘sii emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko‘zda tutiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiyl holati) va uni ochib berish.
2. Kitob (film, teatr)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang‘ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalilaniladi:

Kitob (film, teatr)da hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr)da muammolar ko‘tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Men ... hisoblayman – Я считаю...

Mening fikrimcha...-Помоему...

Mening nazarimda...-На мой взгляд...

... menga yoqdi. – Мне понравился (-лась)...

... menda katta taassurot uyg‘otdi.-Большое впечатление на меня оказалась...

Kitob (film, teatr) ...o‘rgatadi.-Книга (фильм, театр) учит...

2-mashq. Taqriz namunasini o‘qing. Soha nashrlarida berilgan birorta ilmiy maqolaga taqriz yozing.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “O‘zbek va rus tillari” kafedrasи o‘qituvchilari K.A.Gayubova, N.D.Yulanovalar tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili fanidan uslubiy qo‘llanma”ga (Dasturiy injiniring talabalari uchun)

T A Q R I Z

Ushbu qo‘llanma rus tilida so‘zlashuvchi guruhlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo‘llanma o‘quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan. Qo‘llanmada turli manbalardan foydalanilganligi, matnlarning mazmundor, o‘ziga xos qaytarilmasligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, telekommunikatsiya, aloqa sohasi bilan bevosita bog‘liq matnlar ham o‘rin olgan.

Qo‘llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar va topshiriqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan. Qo‘llanmadan o‘rin olgan matnlar barchasi, bizningcha har tomonlama yondoshilgan holda tanlangan. Ularni o‘qigan kishi

nafaqat yangilik oladi, balki undan o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, boshqacha fikrlay boshlaydi. Matnlarning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati borligini alohida qayd qilish lozim. Talabalar uchun mo‘ljallangan qo‘llanma ta’lim olishda, qo‘sishimcha shug‘ullanishda talablarga bemalol javob beradi. Uni nashr qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qo‘llanma hozirgi talablarga to‘la javob beradi va o‘zbek tili mashg‘ulotlarida qo‘llanilishi mumkin.

O‘zDJTU dotsenti, p.f.n. M.X. Axmedova

4- topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan kitobga taqriz yozing.

3-mashq. Matnni o‘qing. Mazmunini qisqacha so‘zlab bering.
Rus tiliga tarjima qiling.

Popov Aleksandr Stepanovich (1859 – 1906)

Popov o‘z do‘sti va yordamchisi Pyotr Nikolayevich Ribkin bilan birga laboratoriyada uzoq ishlardi. Ular yuzlab har xil rezonatorlar tayyorlashdi. Nihoyat, elektr qo‘ng‘iroqli asbob yasaldi. Yaqin joyda elektr uchquni chaqnagudek bo‘lsa, har gal qattiq va aniq qo‘ng‘iroq chalinardi. Chaqmoqni esa 30 kilometr masofadan sezardi. Shu boisdan Popov o‘zi yasagan bu asbobni momaqaldiroqni qayd etuvchi deb atadi.

Har kuni ertalab turib, radio qulog‘ini buraysiz, nonushta qilib o‘tirib, «Kelajak tongi» eshittirishini tinglab, keyin maktabga yo‘l olasiz. Radioning kashfiyotchisi rus olimi Aleksandr Stepanovich Popov bo‘lgan. U bolaligidan texnikaga qiziqdi, qo‘lbola nasos, suv tegirmonlari yasadi. Hamisha o‘ziga xos yangi narsa o‘ylab topishga urinar edi. Bir kuni toshli oddiy soatni elektr budilnikka aylantirdi. Bu elektr asbob kerak mahalda yaxshi jiringlab, ba’zan «itoatdan bosh tortar edi»: agar yaqin orada chaqmoq uchqunlari chaqnasa, qo‘ng‘iroq chalinar edi. Bu hodisaning sababini o‘sha paytda faqat gimnazist Sasha Popovgina emas, balki fizik olimlar ham aytib bera olmas edilar.

1888 yilda A. S. Popov nemis olimi Genrix Gersning «Elektr kuchi nurlari to‘g‘risida»gi maqolasini o‘qidi. Gers elektr uchqunidan ko‘zga ko‘rinmaydigan nurlar (endilikda biz ularni radioto‘lqinlar deb ataymiz) tarqaladi, deb yozgan edi. Rezonator deb ataluvchi alohida asbob ana shu nurlarni bir necha metr masofadan qabul qilardi. Elektr

uchquni ajralib chiqishi bilanoq rezonatorda uchqun yalt etib ketardi. Popov Gersning tajribalarini takrorladi. Ammo rezonatordagi uchqun nihoyatda kichik, zaif edi. Uni xonadagi chiroqni o'chirib, kattalashtirib beruvchi oyna orqali ko'rishga to'g'ri kelardi.

Popov Gers rezonatorini takomillashtirishga ahd qildi. U bu ishga bir necha yil umrini bag'ishladi. Qariyb har kuni kechqurun dengiz ofitserlari bilan mashg'ulotini tugatgach (ularni elektrotexnikaga o'rgatar edi), Popov o'z do'sti va yordamchisi Pyotr Nikolayevich Ribkin bilan birga laboratoriyyada uzoq ishlardi. Ular yuzlab har xil rezonatorlar tayyorlashdi.

Nihoyat, elektr qo'ng'iroqli asbob yasaldi. Yaqin joyda elektr uchquni chaqnagudek bo'lsa, har gal qattiq va aniq qo'ng'iroq chalinardi. Chaqmoqni esa 30 kilometr masofadan sezardi. Shu boisdan Popov o'zi yasagan bu asbobni momaqaldiroqni qayd etuvchi deb atadi. Axir, u vaqtida «radio-priyomnik» degan so'z hali yo'q edi-da.

1895 yil 7 mayda Popov Rus fizika-kimyo jamiyatining majlisida o'zi yasagan asbobni namoyish qildi. Lol qolgan tomoshabinlar ko'zi oldida dunyoda birinchi radiopriyomnik dastlabki simsiz telegrammani qabul qildi. U ma'lumotni qo'ng'iroq yordamida qabul qildi, bunda qo'ng'iroq jiringlab, telegraf alifbesining tire va nuqtalarini xabar qildi.

Oradan bir yil o'tgach, Popov uzatkichni takomillashtirdi va telegrammani simsiz 600 metr masofaga, ikki yildan keyin esa 11 kilometrga, keyin 45 kilometr masofaga uzatdi, 1901 yilda kema sharoitida radioaloqa masofasini 148 – 150 kilometrga uzaytirdi.

Umrining so'nggi yillarida A. S. Popov Peterburg elektrotexnika institutida fizika bo'yicha professor va institut direktori bo'lib ishladi. Uchqunli radio uzatkich va qabul qilish qurilmasini ishlab chiqib, darhol dengiz flotida simsiz telegrafni qo'llay boshladi va 1900 yilning yanvarida Boltiq dengizida katta muz parchasida 27 baliqchi oqib ketganda radio orqali buyruq olgan «Yermak» muzyorari ularga yordamga chiqdi. Odamlarni qutqarish ishlarida A.S. Popovning radioaloqa asboblaridan foydalanildi. Bu Popov va uning shogirdlari yaratgan yangi aloqa turining birinchi katta g'alabasi bo'ldi.

4-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Рецензия

на статью «Место тюркизмов в русском языке» преподавателя русского языка Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека Якубовой Ферузахон Аскаровны

Статья Якубовой Ф.А. посвящена роли и месту тюркизмов в русском языке. В данной статье рассмотрены и проанализированы заимствование и распространенность тюркизмов в русском языке, также проводится историко-лексикологическое изучение тюркизмов, при котором важным представляется учет комплекса историко-этимологических и лексико-семантических факторов. Лексико-семантические признаки характеризуют по существу заимствованное слово, т.е. в той или иной степени освоенное, для которого материалы хронолого-генетической принадлежности являются лишь отправной точкой, началом его лексико-семантической истории в языке-реципторе. Основное внимание в работе автор акцентирует на отражении тюркизмов в русском языке.

Автором проведена серьезная исследовательская работа в определении взаимовлияния славянских и тюркских языков на протяжении всей истории носителей этих языков. В ходе анализа выявлены фонетические, морфологические, лексические аспекты тюркизмов. Актуальность и новизна данного исследования в том, что автор приходит к выводу, что исследование тюркизмов в русском языке необходимо для более объективного понимания тенденций развития и обогащения того или иного конкретного языка.

Научная статья «место тюркизмов в русском языке» преподавателя русского языка Якубовой Ф.А. соответствует всем требованиям, которые предъявляются такого рода научным работам. Данная статья может быть рекомендована к публикации.

**Рецензент Ахмедова М.Х., к.п.н.,
доцент ТУИТ**

5- topshiriq. Quyidagi matndan foydalanib, Insert jadvalini to‘ldiring.

V	+	-	?

“V”-men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“-men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+”-men uchun yangi ma’lumot;

“?”-men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi

Edison Tomas Alva

Tomas Alva Edison bolalikdan kitob o‘qishga juda qiziqardi. Ayniqsa, kimyo va fizikaga oid kitoblarni sevardi.

Ilmiy jurnallardan birining muharriri xonasiga baland bo‘yli kishi kirib, yozuv stoli ustiga mo‘jazgina apparatni qo‘ydi:

– Janob, yangi ixtiro bilan tanishishni istaysizmi?

Ixtirochi shunday deb apparatning dastasini aylantira boshlagan edi, apparatdan yoqimli bolalar qo‘sriga eshitila boshladidi. Muharrir hayratdan orqaga tisarildi. Bu ixtirochi – Tomas Edison edi. Ertasi kuni gazetalar «Menloparklik sehrgar» ning yangi g‘alati ixtirosi haqida xabar qildi. Ixtirochining Nyu-York (AQSh) yaqinidagi – Menloparkdagi laboratoriyasiga odamlar to‘da-to‘da bo‘lib kela boshladidi. Tovushni yozib olish va uni qayta eshittirish uchun Edison ixtiro etgan apparat yaratilgan davrda insonning ovozini yozib olib, qayta eshittirish hali hech kimming hayoliga ham kelmagan edi. Bu apparat barcha grammonfonlar, patefonlarning ajdodi, magnitofon va ovozli kinoning «bobosi» edi. Tovushni yozib olish hayotga ana shu yo‘sinda kirib keldi. Bu voqealari 1877 yilda sodir bo‘lgan edi.

Tomas Alva Edison bolalikdan kitob o‘qishga juda qiziqardi. Ayniqsa, kimyo va fizikaga oid kitoblarni sevardi. U kitoblarni shunchaki o‘qib qo‘ya qolmas, balki kitobdan olgan bilimlarini tajribada tekshirib ko‘rishga harakat qilardi. Tajriba o‘tkazish uchun

mablag‘ kerak edi, shu boisdan yosh Edison poyezdlarda gazeta sotuvchi bo‘lib ishladi. Poyezdning bagaj vagonida laboratoriya jihozlab, u yerda tajribalar o‘tkazdi.

Keyinchalik Edison telegraf ishini o‘rganib, telegrafchi bo‘lib oldi. Yigitcha bo‘sh vaqtini va pulini, asosan kitob, asbob-uskunalar, kimyo preparatlari uchun sarfladi. Tez orada Edison AQSh Kongressidagi ovozlarning avtomatik hisoblagichini ixtiro etdi. Bu aqlii va murakkab mashina hech kimni qiziqtirmadi. Ikkinci ixtiro muvaffaqiyatlroq bo‘lib chiqdi. Bu birjadagi aksiyalar kursini uzoqqa uzatishga mo‘ljallangan telegraf apparati edi. Edison bu apparat uchun katta pul oldi. Tez orada u Menloparkdan yer sotib olib, u yerda laboratoriya tashkil etdi va o‘zini butunlay ixtirochilikka bag‘ishladi.

Edison rus ixtirochisi A.N.Lodiginning cho‘g‘lanma lampasini takomillashtirdi, unga patron o‘ylab topdi, yoqib-o‘chirgichni, elektr energiya hisoblagichni, o‘tkazgichlar tizimini yaratdi. Ajoyib ixtirochi elektr stansiyalar uchun o‘sha davrning eng kuchli generatorlarini yasadi.

Edison telegrafni ham takomillashtirdi. U bir juft sim orqali bir yo‘la ikkita yoki hatto to‘rtta telegramma yuborish usulini ixtiro qildi. Edison telefonni ham takomillashtirib, gaplashish chog‘ida ovozning baland, aniq va tiniq bo‘lishiga erishdi. Edison qamrovi keng ixtirochi edi. U dunyoda birinchi elektr temir yo‘lni qurdi, ishqorli akkumulyatorni ixtiro qildi, temir rudalarini boyitish usulini ishlab chiqdi.

Edison 1882-yili dunyoda birinchi marta ko‘pchilik foydalanadigan elektr stansiyasini ishga tushirdi. Shu davrda Tomas Edison temir yo‘llarni elektrlashtirish tajribalarini oxiriga yetkazdi.

Edison AQSH va Yevropada o‘zi tomonidan qurilgan elektr stansiyalarini ishlatish, turli elektr asboblari, apparatlar va mashinalarni ishlab chiqarish va sotish, cho‘g‘lanma lampa tayyorlash va sotish bo‘yicha ulkan savdo operatsiyalarini amalga oshirdi. 1887 yildan umrining oxirigacha Edison Uest-Oranj shahrida yashadi. Bu paytda u yirik korxonalar egasi edi. Edison temir yo‘l tormozi hamda kinetoskopni ixtiro etdi (1887), fonografni (1889) hamda kinoga olish kamerasini takomillashtirdi, quyma beton uylarni qurish, sement ishlab chiqarish usullarini ishlab chiqdi.

Tomas Edison jahonga Amerikaning buyuk elektrotexnigi, ixtirochisi, shuningdek bir qancha yirik elektrotexnika korxonalari va

kompaniyalari asoschisi sifatida tanildi. Endi uning asarlari butun insoniyat mulkiga aylangan.

Nazariy ma'lumot

Annotatsiya matni, tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Annotatsiya - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

Ishda nima haqida so'z boradi?

Muallif qanday savollarni o'rtaga qo'yadi?

Bu savollar qanday yoritib berilgan?

Ishning tuzilishi qanday?

Ishni qanday baholash mumkin?

Yozilgan ish kimlarga mo'ljallangan? v.h.

Annotatsiya

Maskur qo'llanma rus tilida so'zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo'llanma o'quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Qo'llanmada turli manbalardan foydalilanligini, matnning mazmundor, o'ziga xos qaytarilmasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, dasturiy injiniring, iqtisod, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, aloqa sohasi bilan bevosita bog'liq matnlar ham o'rin olgan.

Qo'llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan. Qo'llanmadan o'rin olgan matnlarning barchasi, bizningcha, har tomonlama yondoshilgan holda tanlangan. Ularni o'qigan kishi nafaqat yangilik oladi, balki undan o'ziga tegishli xulosalar chiqarib,

mustaqil fikrlay boshlaydi. Ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati borligini alohida qayd qilish lozim.

5-mashq. Uslubiy qo‘llanmaga berilgan annotatsiya namunasidan foydalanib, biron-bir fan bo‘yicha darslik yoki qo‘llanmaga annotatsiya yozing.

6-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.


Аннотация

Пособие составлено в соответствии с требованиями Типовой программы по русскому языку для всех направлений бакалавриата и включает 10 лексико-грамматических тем.

Цель данного пособия – помочь студентам практически овладеть русским языком: уметь правильно выражать свои мысли в различных сферах коммуникации и пользоваться учебной, научно-технической литературой по специальности. В основу системы работы в пособии положен последовательно реализуемый коммуникативно-деятельностный принцип, который способствует более целенаправленному, комплексному расположению учебного материала. Использование в процессе обучения инновационных технологий, ИКТ и интерактивных методов представляют современный стиль обучения, который способствует развитию творческой активности и креативного мышления обучающихся.

Пособие предназначено для студентов 1-курса бакалавриата всех направлений национальных групп ТУИТ.

5-topshiriq. Ilmiy ish turlari bo‘yicha klaster tuzing.



6- topshiriq. “Soha rivojida fanning o‘rni” mavzusida taqdimot tayyorlang.

13-mavzu. KASB ETIKASI. NUTQ ODOBI

Me'yor tushunchasi

Topshiriq. Matnni o'qing



Kasb madaniyati-muhim omil

Zamonaviy jamiyatda har bir tashkilotning yutuqlari to'g'ridan-to'g'ri uning qo'lga kiritgan nufuzi va obro'si bilan bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, tashkilot hodimlarining kasbiy etikasiga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Kasb etikasi negizida esa, albatta, hamkasblar va mijozlar bilan munosabatlarning barqarorligi turadi.

Xizmat etikasi avvalambor aholi, odamlarning ehtiyoji yechimini ta'minlaydigan kasblar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim kasb egalari aholi bilan doimiy yoki uzlusiz aloqada bo'ladi va shuning uchun ularning o'ziga xos kasb etikasi kodekslari, qoidalari mavjud. O'qituvchi etikasi, vrachlar etikasi, sudyalar etikasi bilan bir qatorda pochta xizmati xodimlari etikasi ham ish jarayonida, ya'ni aholiga sifatli va tezkor xizmatlarni ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qoidalari yaqinda chop etilgan "O'zbekiston pochtasi" AJ xodimlarining kasb etikasi qoidalari" qo'llanmasida ham o'z aksini topgan. Bundan keyingi faoliyatda aksiyador jamiyatiga ishga qabul qilingan har bir yangi xodim ushbu qoida bilan shartli ravishda tanishtiriladi va amalda unga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

"Kasb etikasi qoidalari"ga binoan pochta aloqasi xodimlari hushmuomalalik, odob, ogohlilik, halollik, xizmat vazifasi doirasida ularga murojaat qilgan shaxslarning va boshqa fuqarolarning huquqlarini buzmaslikka jiddiy e'tibor qaratishlari lozim.

Qo'llanma xodimlarning mijozlar, ya'ni aholi bilan o'zaro munosabati, muomala madaniyati, yuzaga kelgan bahsli holatlarda qanday yo'l tutishi lozimligi kabi masalalarni ham qamrab olgan. Agar pochta aloqasi xodimi etika nuqtai nazaridan murakkab vaziyatda qanday harakat qilish bo'yicha to'g'ri yechimni topa

olmasa, u “O‘zbekiston pochtasi” AJ boshqaruv apparati yoki hududiy filial rahbariyatiga murojaat etishi qo‘llanmada ko‘rsatib o‘tilgan.

Ma’naviy-ma’rifiy va boshqa tushuntirish tadbirlarni muntazam olib borilishi ham ish jarayonida uchrab turadigan ayrim salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ xodimlarining kasb etikasi qoidalari”da xodimlar pochta aloqasi sohasidagi bilimlarini mustahkamlash va kasbiy, iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish borasida muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi zarurligiga alohida urg‘u berilgan.

Bundan tashqari, pochta aloqasi xizmati uchun dolzarb bo‘lgan yo‘nalishlarda tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida (pochta aloqasi qonunlari, yangi me’yoriy hujjatlarni o‘rganish), zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi xizmat turlari, elektron pochta, axborot kommunikatsiyasi texnologiyalari siyosatini joriy etish, hujjatlar bilan ishslash va ijro intizomini takomillashtirish masalalari bo‘yicha tashkil etilgan turli xil seminarlar soha xodimlari kasb madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.*
2. *Soha xodimlarining odob-ahloq qoidalari haqida gapirib bering.*
3. *Odob-ahloq haqida donishmandlarning qanday hikmatli so‘zlarini bilasiz?*
4. *Inson odob-ahloqi mavzusiga bag‘ishlab yozilgan qanday asarlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.*

1-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling

Kasb etikasi va muomala madaniyati

Ahloqning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud. Aynan shu sababli ham ahloq hodisa sifatida ijtimoiy

faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya’ni huquq, ishlab chiqarish-ma’muriy nizolardan va boshqalardan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi.

Ahloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi, hamma qabul qilgan ommaviy namuna odat, rasm-taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun ahloq talablari hammaga bab-baravar qaratilgan, lekin hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda qay bir kasbni olmang o‘ziga hos ahloq qoidalari bo‘ladi. Buni yozilmagan qonun-qoidalar, deb ham baholash mumkin.

1-topshiriq. Maqollarni o‘qing va mazmunini tushuntiring. Ularning rus tilidagi muqobilini toping.

Odob-ahloq haqida maqollar

Bola-aziz, odobi undan aziz.

Inson-odobi bilan,

Osmon-oftobi bilan.

Katta izzatda-

Kichik hizmatda.

Kattani katta desang, o‘zidan ketar,

Kichikni katta desang, kattaga etar.

Odob bozorda sotilmas.

Odob-oltindan qimmat.

Odobli bola elga manzur.

Odobli o‘g‘il-ko‘kdagi yulduz,

Odobli qiz-yoqadagi qunduz.

Odobni beodobdan o‘rgan.

Odobning-boshi til.

Odobsiz betga chopar.

Oltin olmay, odob ol,

Odob oltin emasmi.

Onangga boshingni ham qil,

Otangga gapingni kam qil.

So‘z kishining-o‘zagi,

Odob kishining-bezagi.

Usta bo‘lsang, ustozingni unutma.

Ustozingga tik qarasang, to‘zasan,

Hurmat qilsang, asta-asta o‘zasan.

Husn husn emas, odob husn.

2-topshiriq. “T-sxema”si bo‘yicha inson xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni yozing

Ijobiy xislatlar	Salbiy xislatlar

Nazariy ma'lumot

Me'yor tushunchasi

Nutq madaniyati to‘g‘risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so‘zlarning o‘rinli va o‘rinsiz ishlatilishi to‘g‘risida ham bahs boradi. Qo‘llangan til birligini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deyilganda, albatta, ma’lum bir o‘lchov (mezon) ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o‘lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me’yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so‘zlashuv tilining, adabiy tilning o‘z me’yorlari bo‘lganidek, nutqning alohida ko‘rinishlari bo‘lgan argolar, jargonlar ham o‘z me’yoriga ega. Xususiy me’yorlar quyidagicha ko‘rsatiladi:

1. Dialektal me’yor.
2. So‘zlashuv nutqi me’yori.
3. Argolar, jargonlar me’yori.
4. Adabiy til me’yori (adabiy me’yor).

Adabiy me’yor. Ma’lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o‘sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo‘ladi, ya’ni aloqani yengil amalga oshirishga imkon beradi. Bu - tilning o‘zi me’yordan iboratligini ko‘rsatadi. Me’yor--tilning yashash shaklidir.

Adabiy me’yor uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy me’yor adabiy til bilan birga tug‘iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o‘z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy me’yor uzusdan olinganligi sababli hamma uchun tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a’zolarini uyushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me’yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.

O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantik me’yor.
2. Talaffuz – (orfoepik) me’yor.
3. Yozuv (grafika) me’yori.
4. Fonetik me’yor.
5. Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me’yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me’yor.
7. So‘z yasalish me’yorlari.

8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor
10. Punktuatsion me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatları nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

2-mashq. “Mehrobdan chayon” romanidan olingen parchadan adabiy tilning qaysi me'yorlari buzilganligini aniqlang.

*-Mamatqul-chi, domla pochchalarning so'ziga yaxshi quloq solib **tig'nab** olgan kishi, bemalol jannatga kirib **ketavuradi-da**.... Sen ham ularning so'zini **tig'nab** olasanmi?*

-Sen bilan men bo'lsak, qattiq nonni ham eya beramiz; jazzasi(chorasi demoqchi) choyga bo'ktirishda.(“Mehrobdan chayon”.78-bet)

– Dehqon Mahdumning hurmatiga o'rnidan turib, qo'l qovushtiradi:-O'n uch tanob erimiz bor edi, taqsir.

Chamasi yong'ish bo'g'onda (yanglish, xato bo'lgan demoqchi), *o'ttiz uch tanobga haq sog'onlar*(solganlar). *Men shunga arza* (ariza demoqchi) *yozdirayma*, ...deb (-mi affaksi ko'p o'rirlarda – ma shaklida qo'llangan va bu bilan o'sha davr xalq jonli tilini ifodalagan).

(“Mehrobdan chayon”.128-bet)

3-topshiriq. Matn bilan ishlang.

Nutq odobi

Nutq, nutq odobi insonning ma'naviyatini-ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rindi. Nutq odobi nima?

Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy

me'yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o'qituvchidir. Buni o'qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga-o'zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo'lish va nihoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi».

Ha, salomda gap ko'p, salomlashish, salom berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Afsuski, o'zimizning sharqona salomlashish odobimizga yetarli darajada e'tibor bermayapmiz.

Avvalo, har bir kishi salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab yetmog'i lozim. Chunki «So'z boshi--salom», deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti «assalomu alaykum», «vaalaykum assalom» jumlalari bilan boshlanadi. Bu suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat'iy nazar o'zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Ammo keyingi paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo'lib qolmoqdamiz.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. O'qituvchi ularni o'z o'rnida ishlatsishda hamma uchun va o'z shogirdlari uchun o'rnakdir.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun uzr so'rash o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr, sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda «xayr, sog' bo'linglar», «xayr, yaxshi qolinglar» iboralarini ishlatsa, o'rinli bo'ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag‘batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilar-ni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirishi lozim.

«Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi» (S.Ibrohimov).


Tilning dunyoni bilish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, uning asosiy funksiyasi kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing. Matndan nutq odobiga doir atamalarni ko‘chirib yozing.*
2. *Matndagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildirib mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib bering.*

4-topshiriq. FSMU jadvalini tuzing

Bunda beqiyos odob namunasi bu, avvalo, o‘qituvchining go‘zal nutqida o‘z ifodasini topadi, -degan fikrga asoslaning.



3-mashq. Matnga tinish belgilarini qo‘ying.

O‘rta Osiyoda ahloqiy tarbiya o‘z an’analariga ega bu boradagi fikrlar qadimgi turkiy yodnomalar buyuk allomalarsining asarlari va boshqa yozma yodgorliklar orqali bizgacha yetib kelgan inson odobi eng avvalo uning nutqida namoyon bo‘ladi

Zero nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir ahloq fan sifatida o‘rta asrlarda yuzaga keldi nutq odobi haqidagi fan ritorika esa eramizdan avvalgi asrlarda rivojlangan bunga misol qilib Ciceronning “Ritorika haqida” asarini keltirishimiz mumkin.

4-mashq. O‘zbek tiliga tarjima qiling. Matnga sarlavha toping.

Понятие “этикет” – это философское, этическое понятие. Вот как даётся определение этому понятию в словаре: “Этикет (с французского: ярлык, этикетка) – это совокупность правил поведения, касающихся внешнего проявления отношения к людям (обхождение с окружающими, формы обращения и приветствия, поведение в общественных местах, манеры)”. Как видим, в этом определении содержится указание на внешнее проявление отношения к людям. Разумеется, в идеале эти отношения должны быть взаимно доброжелательными.

Этикет во многом определяет наше поведение. Это не только правила, которым мы следуем за столом или в гостях, это вообще все нормы наших взаимоотношений. При помощи таких с детства усвоенных правил мы регулируем наши взаимоотношения с окружающими, устанавливаем или обнаруживаем в общении отношения типа “старший-младший-равный”.

То, что понимается под речевым этикетом, используется в речи каждого из нас ежедневно и многократно. Мы по многу раз в день обращаемся к кому-то, приветствуем своих знакомых, прощаемся с людьми, кого-то благодарим, перед кем-то извиняемся, кого-то поздравляем, кому-то желаем удачи или делаем комплимент, кому-то соболезнуем, сочувствуем; мы советуем, просим, предлагаем и приглашаем ... Таким образом, речевой этикет представляет собой совокупность словесных форм учтивости, вежливости, то есть то, без чего нам с вами

просто нельзя обойтись, в каком бы уголке Земли мы бы не находились.

Почему же такое важное место занимают в нашей жизни формы учтивости? Над этим нам предстоит задуматься.

4-topshiriq. Jadvalda keltirilgan so‘z birikmalarini “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib tahlil qiling.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Uslubiy me’yor	
Aksentologik me’yor	
Orfoepik me’yor	
Grammatik me’yor	
Fonetik me’yor	
Punktuatsion me’yor	
Leksik-semantik me’yor	

5-mashq. Misollarni diqqat bilan o‘qing. Nutq me’yorlari (mazmun yoki grammatik jihatdan) buzilgan o‘rirlarni toping va tuzating.

1. Yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko‘chalar ham ko‘kalamzor bog‘ga aylantirmaqda. (*I.R.*) 2. Aqlning to‘gri yo‘l ko‘rsatishi orqali yaxshi bilan yomonni, foyda bilan ziyyonni, to‘g‘ri bilan xatoni farq qilinadi. (“*Hikmatlar xazinasi*” *kitobidan*). 3. Gaplar doskaga yoziladi. Yozilgan gaplardagi tibbiyot, botanika, biologiya, kimyo kabi bir qator fanlarga oid temalarni ajratiladi. (*Metodik qo‘llanmadan*). 4. Komissiya bir oyda ikki marta majlis o‘tkazadi. (*Gazetadan*). 5. Mahallalarda hal etilgan komitetlar bu masalalarni hal etadilar. (*Hisobotdan*).

5-topshiriq. “Mutaxassisning nutq madaniyati” mavzusida ijodiy matn tuzing.

7- topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Сила искусства

Человек создал великолепную семью искусств – живопись и скульптуру, литературу и музыку, театр и кино, где запечатлены разные стороны действительности, ее многообразные картины и явления.

Художник и композитор, зодчий и поэт своим творчеством стремятся показать людям те явления, которые в повседневной жизни могут остаться незамеченными.

С самого детства человек неразрывно связан с искусством: мы слушаем музыку, сами пытаемся петь или играть на каком – либо инструменте, любим смотреть кинофильмы, ходить в театр, танцевать, читать художественную литературу.

Многие посещают музеи и картинные галереи, любят красивые вещи, покупают репродукции картин и книги с иллюстрациями. Благодаря искусству мы путешествуем во времени и пространстве. Искусство знакомит нас с природой дальних стран, жизнью разных народов, с тысячами интересных людей. Оно в яркой форме сообщает нам массу полезных сведений из самых различных областей знаний – физики, химии, истории, медицины и т.д. Мы не можем обойтись без искусства, одного из важнейших условий развития и духовного роста каждого человека.

Искусство обладает огромной силой воздействия на людей. История знает немало примеров того, как искусство объединяло людей, сплачивало их, воодушевляло на подвиги.

Творения искусства, в какую бы эпоху они ни были созданы, неизменно служат движению общества вперёд. В искусстве перед нами предстаёт весь мир, каким он был, есть и будет.

6-topshiriq. Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari lug'atini tuzing.

7-topshiriq. “San'at mening hayotimda” mavzusida esse yozing.

14-mavzu. RASMIY-IDORAVIY USLUB. ISH YURITISH TILI VA USLUBI

Nazariy ma'lumot

Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi. Bu uslub muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubidir.

Bu uslub, shuningdek, davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Rasmiy uslub yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi-axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi.

Rasmiy uslubga xos har qaysi hujjat turining o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi.

Hujjatlar tili va uslubi

Hujjatlarning tili va uslubiga qadimdan e'tibor berishgan. Bir qat'iy tartibda qonun-qoidalarga rioya qilingan holda yozilgani ma'lum. Turkiy tilida teri, yog'och, sopol, va pergamentlarga yozilgan hujjatlar talablariga ko'ra bitilgan. Turkiy tilda bitilgan hujjatlar X-XII asrlarda, o'zbek (turkiy) tilida yozilgan hujjatlar XIV-XVI asrlar Amir Temur davriga to'g'ri keladi. O'zbek tilida hujjatlar tuzish keyingi asrlarda ham davom etgan, ammo qisman fors tilida ham rasmiylashtirish bo'lgan.

Hujjatlar tili umumadabiy tildan ajralgan emas. U vazifasiga ko‘ra rasmiy uslubga xos. Rasmiy uslub xarakteriga muvofiq hujjatlarda aniqlik, mantiqlik, ishonarlilik va ihchamlik yuzaga keladi. Shuning uchun ham hujjatlar rasmiy uslub talablariga javob bera olishi talab qilinadi. Bu o‘z o‘rnida hujjatlarning axborotlarini rasmiy ravishda xolisligini yuzaga keltiradi.

Hujjatlar tilining o‘ziga xosligi shundaki, unda (trafaretli) so‘z qolipli va andozali so‘z birikmalari, gaplar qo‘llaniladi. Bu jihat bilan ilmiy, matbuot, badiiy uslublardan farq qiladi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyingi davrda hujjatlar tilida ishlatilayotgan so‘zlar qatlami ayrim “eskirib qolgan” deb hisoblanadigan atamalar bilan to‘lgani aniq. Masalan, bildirgi (bildirish), ma’lumotnoma, tavsifnoma, bayonnomma va boshqalar.

Hujjatlarning leksik xususiyatlaridan biri, unda trafaret, qolipli bir shaklda qo‘llaniladigan so‘zlar ishlatilishidadir: buyuraman, tasdiqlayman, ma’qullansin, eshitildi va b.

Hujjat tilida badiiy asarlarda qo‘llaniladigan o‘xshatish jonlantirish, tasviriy so‘zlar, shuningdek so‘zlashuv uslubiga xos shevaga oid hamda dag‘al so‘zlar, kitobiy-tantanavor so‘zlar uchramaydi, ishlatilmaydi. Istagan holda so‘zlarni qisqartma shaklda berish qoidaga to‘g‘ri kelmaydi. Umumqabul qilingan qisqartma so‘zlardan foydalanish mumkin.

Morfologik jihatdan ham hujjatlar tili o‘ziga xos, ya’ni unga erkalash-kuchaytirish qo‘shimchalari, subyektiv baho so‘zlari ishlatilmaydi.

Hujjatlarda 2 shaxs qo‘shimchasi qo‘llanilmaydi, chunki hujjatlar fe’lning 1 yoki 3 shaxs nomidan yoziladi. Shu tufayli-man (buyuraman, so‘rayman, tavsiya etaman), -miz, -di qo‘shimchalari so‘zlarga qo‘shilib ishlatiladi (*iltimos qilamiz*, *eshitildi*, *so‘raydi*, *so‘zga chiqdi* va b.)

Hujjatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda harakat nomlari ko‘p qo‘llaniladi (*masalan*, *joriy etish*, *hizmat ko‘rsatish*, *ijtimoiy himoya qilish*). Fe’lning buyruq-istik mayli majhul nisbat shaklining qo‘llanishi ko‘proqligi bilan hujjatlar xarakterli (ko‘paytirilsin, bajarilsin, iltimos qilamiz, so‘raymiz)dir.

Fe’lning o‘tgan hamda hozirgi-kelasi zamon shakllarining qo‘llanish doirasi hujjatlarda kengroq (qatnashdilar, so‘raydi, ma’qullaydi, hisobga olinadi va b.).


Sonlarning ishlatalishi hujjatlar turiga qarab tartibga rioya qilingan holda yoziladi. Ayrim hujjat turlari, masalan, ishonchnoma, tilxat kabilarda sonlar son bilan ham, so‘z bilan ham yozish talab qilinadi. Pul, moddiy boylik bilan bog‘liq hollarda qoidaga muvofiq son bilan birga uning yozma ifodasi hujjatda o‘z ifodasini topgan bo‘lishi shart deb qabul qilingan.

Hujjatlarda qolipga tushgan so‘z birikmalar, sintaktik tuzilmalar ko‘p qo‘llanadi. (*masalan, men, Mahmudov Ozod..., ro‘yxatga olinsin, ... qilish maqsadida,qaror qilindi, Siz rahbarlik qilayotgan*). Hujjatlarda turgan frazeologik birikmalar, ya’ni ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchilar ishlatilmaydi.

Gaplar turiga kelganda darak gapning xabar, axborot beruvchi, ta’kidlovchi xarakterdagi turlari keng qo‘llaniladi. Odatda so‘roq, undov mazmunidagi gaplar, shuningdek murakkab qo‘shma gaplar ishlatilmaydi.

Hujjatlarni madaniy tuzilishda, tayyorlashda, imlo va tinish belgilari, xatboshiga alohida e’tibor berish zarur. Hujjat nomi-sarlavhalardan keyin o‘zbek tilida qoidalarga muvofiq nuqta qo‘yilmaydi.

1-topshiriq. Klaster usulidan foydalanib rasmiy-ish uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlarni tushuntiring.



1-mashq. Quyidagi so‘z, atama va so‘z birikmalarining qaysi uslubga xosligini aniqlang. Rasmiy-idoraviy uslubga xos bo‘lgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing

Mehnat shartnomasi, axborot xati, modellashtirish, taklif etiladi, iltimos qilaman, so‘rab ko‘ramiz, dalil bo‘la oladi, avtomatlashtirish, electron qurilma, biznes va boshqaruv, ko‘chmas mulk, ko‘rib chqilsin, zimmasiga yukaltilsin, chiziqli dasturlash.

2-mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Рекомендация

Это официальный документ, который составляется в целях рекомендации какого-либо лица на определенную должность, либо в члены различных государственных и общественных организаций, либо для представления к наградам.

Он может быть выдан как администрацией, так и отдельным лицом (лицами). В последнем случае в конце документа указывается должность и фамилия лица, которая дает рекомендацию, заверенные подписью и печатью организации.

Текст рекомендации во многом схож с текстом характеристики. Различие заключается в том, что в характеристике находят отражение основные положительные и отрицательные качества работника. А в рекомендации наряду с этим, отдельный упор делается на те его качества, которые характеризуют его как специалиста в своей области и выражается уверенность в том, что данный работник может выполнить возлагаемые на него обязанности.

Представление к различным наградам также составляется и оформляется в форме рекомендации.

Реквизиты рекомендации:

1. Название документа (Рекомендация).
2. Текст документа.
3. Должность, фамилия, имя, отчество (инициалы) лица, который дает рекомендацию.
4. Подпись.
5. Дата.
6. Печать учреждения.

3-mashq. Quyidagi so‘z birikmalari ishtirokidagi gaplar tuzing. Ularni rasmiy yoki shaxsiy munosabatni ifodalashiga ko‘ra guruhlarga ajrating.

Iltimos qilmoq, talab etilmoq, o‘qishga kirmoq, vazifadan ozod etilmoq, aytilganlarni inobatga olgan holda, salom yetkazmoq, jadvalga muvofiq, ko‘ngilni ko‘tarmoq, amalga oshirmoq, aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, vaqt topolmaslik, dasturlovchi bo‘lib

ishlamoq, ro‘yxatga olinmoq, hushxabar yetkazmoq, haroratni pasayishi oqibatida.

4-mashq. Berilgan matndan rasmiy uslubga xos so‘z va so‘z birikmalarini ko‘chirib yozing. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Hujjatlarning tuzilishi

Hujjatlatrga qo‘yiladigan talablar

1.Hujjatlarni tuzish, ularni tayyorlashga oddiy, yengil qarash mumkin emas, chunki u huquqiy jihatdan kuchga ega bo‘lgani uchun jiddiy munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Hujjatlarni tuzishda, avvalo zaruriy (tarkibiy) qismlar, ya’ni rekvizitlarga e’tibor berish, unga rioya qilish shart. Qismlarning majmuasi qoidalar (formulalar) deyiladi. Hujjatlar turli-tuman bo‘lgani uchun ham zaruriy (rekvizit) qismlarida farqli jihatlar mavjud. Qismlar tartibli ravishda ketma-ket o‘rin oladi. Bu ketma-ketlik qat’iylik xarakteriga ega. Formular-qoidalar talabi xuddi shu ketma-ketlikka rioya qilishdan iborat. Ayrim hujjatlarning zaruriy qismlari qonun chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan meyoriy hujjatlarda qayd qilingan, belgilab berilgan bo‘ladi. Masalan: pasport, shaxsiy varaqqa (so‘rovnoma, rezyume) va h.k. Hujjatlarda u yoki bu qismning aks etmasligi uning huquqiy kuchini yo‘qotishga olib keladi.

Zaruriy qismlar to‘g‘ri, aniq ifodalangan bo‘lishi hujjatlarga qo‘yiladigan talablarning asosini tashkil qiladi.

Hujjatlarni tayyorlashda qog‘ozlarning shakli, o‘lchami ham ahamiyatga ega. Ish qog‘ozlarining chap tomonida 20mm, yuqorida kamida 10mm, o‘ng va past tomonida 8-10mm bo‘sh joylar bo‘lishi kerak.

Bosma ish qog‘ozlari 2 ta turga bo‘linadi.

1)Umumiyl blanka, 2) Xat blankasi.

Umumiyl blanka-bosma ish qog‘ozining farqi shundaki, unda “tashkilot nomi”dan keyin aloqa bo‘linmasining ko‘rsatgichi, pochta va telegraf manzili, faks, telefon raqami, bankdagi hisob raqami bo‘lmaydi.

Rasmiy xizmat blanklari-firma (firmenniy) blankasi deb yuritiladi, chunki ayrim, masalan, dalolatnoma, ma’lumotnoma, ishonchnoma hujjatlari kseriya nusxa qilinib, ish yuritishda ishlatiladi, bular ham ish qog‘ozlari hisoblanadi.

Hujjat matnlari mazmunan lo‘nda, ixcham bayon qilingan, asosan, sodda gap tuzilishiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Matnlar asosan, ikki qismga bo‘linadi. Birinchi qism asoslash, keyingisi esa xulosa qismlari.

5-mashq. Tushunchalar tahlili metodidan foydalanib matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘z birikmalariga izoh bering.

Tijorat yozishmalari

Tashqi iqtisodiy faoliyatning turli tomonlarini rivojlantirishda tijorat yozishmalari ahamiyatli o‘rin tutadi. Bunda bitim, **shartnoma** tuzish va bajarish bilan bog‘liq masalalar ifodalanadi.

Tijorat yozishmalarining shakli aslida 150 yil avval Angliyada paydo bo‘lgan va u ish yuritishda keng ommalashib ketgan.

Tijorat yozishmalarida shartnomasimon hujjatlar qo‘llaniladi. **So‘rovnama**, oferta (taklif xat), **buyurtma xat**, **aksent** (rozilik xati), **bank hujjatlari** (schet, faktura, avizo) ham shu tijorat xatlariga kiradi.

Tijorat xatlari vazifasiga ko‘ra: 1) so‘rovga javob; 2) oferta-taklifga javob turlariga bo‘linadi. Shuningdek, da’vo (reklamatsiya)ga javob shakli ham uchraydi.

So‘rov xatida tovar yetkazib berishni taklif etib murojaat etilishi yoki umuman tovar haqida ma’lumot berilishi so‘raladi. **Oferta** (taklif)da oldi-sotdi shartnomasi tuzish uchun rozilik bildirganda yoziladigan hujjat. Oferta shartlariga rozi bo‘linsa, bitim tuzilgan hisoblanadi. Taklifning biror sharti to‘g‘ri kelmasa, yozishma davom etadi.

2-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Tijorat yozishmalari	
So‘rovnama	
Oferta	
Buyurtma	
Bank hujjatlari	
Aksent xati	
Shartnoma	

15-mavzu. HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

Hujjat namunalarini bilan ishlash

Ish yuritish huijatlari qo‘llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko‘ra to‘rt guruhgaga bo‘linadi:

1. **Tashkiliy hujjatlar** (guvohnoma, yo‘riqnomma, nizom, shartnama va boshqalar)
2. **Farmoyish hujjatlari** (buyruq, ko‘rsatma, farmoyish).
3. **Ma’lumot-axborot hujjatlari** (ariza, bayonnomma, dalolatnama, ishonchnoma, tavsifnomma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e’lon va boshqalar).
4. **Xizmat yozishmalari** (taklifnomma, telegramma, xatlar).

Mazmun bayonining shakliga ko‘ra hujjatlar xususiy, namunaviy va qolipli hujjatlarga bo‘linadi. Bojxona organlarida xususiy hujjatlarga fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ularning asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo‘ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi. Namunaviy hujjatlar sirasiga ish yuritish sohasiga oid hujjatlarning aksariyati, ya’ni har bir tashkilot va uning bo‘linmalari uchun zaruriy bo‘lgan bildirgi, xizmat ma’lumotnomasi, tavsifnomma, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.

Qolipli hujjatlarning ko‘plab turlari mavjud, ular soha faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

Rekvizit deb hujjatni rasmiylashtirishning majburiy elementiga aytiladi. Rekvizitlar hujjatda qat’iy tartibda joylashtiriladi. Bu hujjatning huquqiy kuchini ta’minlaydi. Hujjat rekvizitlarining asosiy turlari quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
3. Tashkilot yoki muassasa nomi.

4. Tarkibiy tarmoqning nomi.
5. Aloqa muassasasining shartli raqami (*indeksi*), tashkilot manzili, telefon raqami, faks raqami.
6. Elektron pochta manzili.
7. Matn sarlavhasi.
8. Sana.
9. Hujjatga beriladigan shartli raqam (*indeks*).
10. Kelgan hujjatning sanasi va shartli raqamiga havola.
11. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
12. Hujjat loyihasini tayyorlagan bo‘linmaning shartli raqami.
13. Hujjatni oluvchi (*adresat*).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (*rezolutsiya*).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.
19. Ilova mavjudligi haqida qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (*viza*).
23. Muhr.
24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni uning hujjatlar yig‘majildiga yo‘naltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborot ichki serverga joylashtirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. Hujjatlarning aksariyati A4 formatdagi qog'ozda tayyorlanadi, umumiy tarzda qabul qilingan shaklda va ma'lum tartibda tuziladi.
2. Hujjatning yaxlit va uzlucksiz matni uni tusunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun matnni mazmun jihatdan abzas (xat boshi) larga bo'lish maqsadga muvofiq.
3. Ish hujjatlarida yakka shaxsga murojaat qilinganda "Siz" kishilik olmoshi bosh harf bilan yoziladi.
4. Sonlar ish hujjatlarida raqamlar bilan yoziladi. Pul bilan bog'liq hujjatlarda (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat) – raqamlar va qavs ichida so'zlar bilan ifodalanadi.
5. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda-*nchi* (-*inchi*) qo'shimchasi o'rnida chiziqcha qo'yiladi: *2-kurs, 3-chorak*. Tartib sonni rim raqami yordamida ifodalashda chiziqcha qo'yilmaydi, biroq o'qilganda-*nchi* (-*inchi*) tarzida talaffuz qilinadi: *II kurs, III chorak*.
6. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanib, sanani bildirsa, imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha qo'yiladi: *2016-yil 6-sentabr*. Shuningdek, hujjatning sanasini 06.09.16. tarzida ifodalash ham mumkin.
7. Hujjatlarni imzolashda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilish lozim: avval hujjatni imzolaydigan mansabdor shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, so'ngra ismi va familiyasi yoziladi hamda imzo qo'yiladi.
8. Hujjatlarda qisqartmalarni qo'llash ularning hajmi qisqarishiga va ulardagи ma'lumotlarni qabul qilishni tezlashtirishga yordam beradi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari bilan ishlash yo'l-yo'riqlari:

Ma'lumotnoma: ma'lumotnoma rahbarlar ko'rsatmasi yoki fuqaro talabiga ko'ra beriladi.

Shaxsiy ma'lumotnomaning zaruriy qismlari: tashkilot nomi, berilgan sana, tartib raqami, ma'lumotnoma berilayotgan kishining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning mazmunini tashkil etuvchi qisqa matn, qayerga taqdim etilayotganligi, tashkilot rahbarining imzosi, familiyasi va tashkilot muhri bo'lishi kerak.

Bildirishnoma: bildirishnomaning zaruriy qismlari: tashkilot rahbari familiyasi, hujjat yozayotgan kishining lavozimi, familiyasi va hujjat matni, ilova hujjat hajmi va nusxasi ro'yxati, tuzuvchilarning imzo va familiyasi hamda sana keltiriladi. Bildirishnoma tashabbus, axborot, hisobot hususiyatiga ega, korxona doirasida va yuqori tashkilot, mansabdor shaxslar nomiga yoziladi.

Hisobot va uning turlari: Hisobotning rejalashtirilgan ish yoki topshirilgan vazifa-topshiriqlar, xizmat yohud ilmiy safarlarning yakuni, natijalari haqida mufassal ma'lumot beruvchi hujjatdir. Hisobotlar uchun umumiylar va zaruriy bo'lgan qismlari: sarlavha, hisobot matni, muallifning lavozimi, familiyasi, ismi-sharifi, yozilgan sana, hisobotni tasdiqlovchi rahbarning imzosi, familiyasi ko'rsatiladi. Xizmat safari uchun mo'ljallangan mahsus shaklli hisobot qog'ozi, unda qayd etiladigan ma'lumotlar, bayoni hamda buxgalteriya hisobotlaridir.

1-topshiriq. Berilgan ma'lumotdan foydalanib amaliyatda bajargan ishlaringiz haqida fakultet dekaniga hisobot yozing.

ISH QOG'ÖZLARI

Namunalar

Ariza

TATU rektori
T.Z.Teshabayevga
120-19 guruh talabasi
Ozoda Sobirjonovna
Yusufjonovadan

ARIZA

Meni tahsil olayotgan fakultetdan axborot texnologiyalari fakultetiga o'tqazishingizni so'rayman.

Sana imzo

Tarjimai hol

Men, Avazbek Alisherovich Azizov, 1988 yil 22 martda Toshkent shahrida, hizmatchi oilasida tug‘ildim.

Otam, Alisher Hosilovich Azizov, 1965 yilda tug‘ilgan, 7-oilaviy shifoxonada shifokor bo‘lib ishlaydi.

Onam, Latofat Yoqubovna Azizova, 1967 yilda tug‘ilgan, 15-maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi.

1995 yildan 2006 yilgacha Toshkent shahridagi 1-o‘rta maktabda o‘qidim. 2006 yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining axborot texnologiyalari fakultetiga o‘qishga kirdim.

Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, «Kamolot» yoshlar harakati a’zosiman.

Uylanmaganman.

Mening turar joyim: 700210, Toshkent, Usmon Nosir ko‘chasi 5-uy, 27-xonodon. Tel : 272-28-61

2008 yil 14.01

(imzo) A.Azizov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Televizion texnologiyalari fakulteti talabasi, 1995 yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek, Yoshlar ittifoqi a’zosi Ravshan Umarovga

TAVSIFNOMA

Ravshan Umarov 2015 yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining television texnologiyalari fakultetiga 1-kursga o‘qishga kirdi.

Universitetda tahsil olish davrida intizomli, ziyrak va bilimdon talaba sifatida o‘zini ko‘rastdi. O‘quv mashg‘ulotlariga jiddiy yondashadi va ularni quint bilan o‘rganishga harakat qiladi

Ravshan Umarov Yoshlar ittifoqi a’zosi sifatida jamoat ishlarida faol qatnashadi va ilmiy anjumanlarda ishtirok etadi. U aqil-zakovat, bilimdonlik talab etadigan har qanday ishda O‘zini ko‘rsata oladi va dadillik bilan harakat qiladi

U kamtarin va to‘g‘riso‘z, do‘smlariga nisbata doim g‘amxo‘r, mehribon bo‘lganligi uchun ham, kurusdoshlari unga hurmat bilan qaraydilar.

Tavsifnoma Toshkent axborot texnologiyalari universiteti televizion texnologiyalari fakulteti tomonidan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga taqdim etish uchun berildi.

Fakultet dekani (imzo) A.X. Ahmedov

2018 yil 14.02

Tashkilot nomi

MAJLIS BAYONIDAN

KO'CHIRMA

Sana.

Joyi.

3.Kun tartibi:

3.ESHITILDI:

Ma'ruzachi ism-familiyasi (ma'ruzaning qisqa bayoni).

3.QAROR QILINDI:

Rais Imzo I.Sh.Familiyasi

Kotib Imzo I.Sh.Familiyasi

MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

NAMUNA

**O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchilari yig'ilishining №
22 son bayonnomasidan**

KO'CHIRMA

30.01.2018 yil

Toshkent sh.

Rais: S.H.Abdullayeva

Kotib: K.H.Umarova

Katnashdilar: docent M.H.Ahmedova, katta o'qituvchilar S.H.Abdullayeva, N.D.Yulanova, K.A.Gayubova, A.U. Yuldashev, assistentlar N.P. Medenseva, N.H.Rahimova, L.H.Nosirov

KUN TARTIBI:

4.Katta o'qituvchilar K.A. Gayubova va N.D.Yulanovalar tomonidan tayyorlangan “ O'zbek tilidan uslubiy yo'llanma”

(Bakalavriatda rus tilida taqsil oladigan pochta hizmati yo‘nalishi talabalari uchun) sining muhokamasi.

4.ESHITILDI:

O‘zbek tili seksiyasi boshlig‘i Gayubova so‘zga chiqdi va katta o‘qituvchilar Gayubova va Yulanovalar tomonidan « O‘zbek tilidan uslubiy qo‘llanma » (Bakalavriatda rus tilida tahsil oladigan pochta xizmati yo‘nalishi talabalari uchun) qo‘llanmasi tayyorlanganligini ma’lum qildi va bu to‘g‘risida ma’lumot berish uchun so‘zni muallifga berdi.

Yulanova so‘zga chiqdi va quyidagilarni ma’lum qildi:

Kalendar reja bo‘yicha dars o‘tishda o‘qituvchilarga yordam beruvchi

«O‘zbek tilidan uslubiy qo‘llanma »(Bakalavriatda rus tilida tahsil oladigan pochta xizmati yo‘nalishi talabalari uchun) qo‘llanmasi tayyorlandi. Qo‘llanma o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun kalendar reja bo‘yicha dars o‘tishda yaxshi yordamchi hisoblanadi. Qo‘llanmada pochta sohasiga oid atamalar tushuntirib berilgan, yozma ishlar turlari, ular ustida ishslash o‘rgatilgan. Har bir matnga topshiriqlar berilgan. Qo‘llanmaga p.f.n. dotsent Ahmedova M.H. va f.f.n.dotsent M.G. Komilova taqriz berdi. Ular o‘z so‘zlarida tayyorlangan qo‘llanmaga yuqori baho berdilar. Musahhih L.H.Nosirov qo‘llanmadagi xatolar tozalanganligini va nashrga tayyorligini aytdi.

4.QAROR QILINDI:

Axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin. «O‘zbek tilidan uslubiy qo‘llanma» (Bakalavriatda rus tilida tahsil oladigan pochta xizmati yo‘nalishi talabalari uchun) qo‘llanmasi nashrga tavsiya etilsin.

Rais

S.H.Abdullayeva Kotib
K.H.Umarova

1-mashq. Quyidagi qoliplangan birikmalarni qatnashtirib misollar yozing. Ular qanday hujjat turlarida qo'llaniladi.

Joriy etilganligi munosabati bilan, zaruriyat tufayli, ob-havo noqulayligi uchun, betobligi sababli, imkoniyati yo'qligi tufayli, o'zgarganligi munosabati bilan, ruxsat berilmaganligi sababli, e'tiborsizlik tufayli, xabar berilmaganligi sababli.

2-mashq. Quyidagi so'z va birikmalarning ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bayonnama, hisobot, taqdimnomma, tavsiyanoma, tavsifnomma, axborot bermoq, muhokama qilmoq, so'zga chiqmoq, so'z olmoq, so'z bermoq, qaror qilmoq, tavsiya etmoq, tasdiqlamoq, fikr-mulohaza bildirmoq, faol qatnashmoq, zimmasiga yuklamoq, topshirmoq, tayinlamoq.

3-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Matndagi uslubiy xoslangan so'zlarni aniqlang.

Nizom

Muassasa yoki uning tarkibiy bo'linmalarining tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan hujjat. Nizom ayrim mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar ko'rik, musobaqa, tanlov va boshqalarga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Ko'pincha nizom muassasalar ta'sis etilishi yoki tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan tasdiqlanadi. Muassasalarning tarkibiy qismlari ularning raxbarlari tomonidan tuzuladi va muassasa rahbari farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxatini qo'yish bilan kuchga kiradi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Nizomning asosiy zaruriy qisimlari:

1. Hujjat turining nomi.
2. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa tarkibiy qismining nomi.

3. Matnning mazmuni: muassasa tuzilishidan maqsad va asoslar; asosiy vazifalari ; muassasa tuzilishi, huquqi, ishni tashkil qilish tartiboti.

4. Muassasa rahbari imzosi.

5. Sana va joy.

6. Tasdiqlash ustxati yuqori qismida o‘ng burchakda joylashadi.

2-topshiriq. Rasmiy ish qog‘ozlaridan namunalar yozing (tarjimai hol, tavsifnama, tushuntirish xati, bildirishnama).

3-topshiriq. Ish qog‘ozlari namunasidan foydalanib, ishga kirish, ishdan bo‘shash, mehnat ta’tiliga chiqish, o‘z hisobingizdan ta’til olish mazmunida arizalarga misol yozing.

4-topshiriq. O‘qish va yashash joyingizdan beriladigan ma’lumotnomaga alohida-alohida namuna yozing.

5-topshiriq. Xizmat safari haqida hisobot yozing.

4-mashq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Характеристика

Характеристика – это официальный документ, который выдаёт администрация учреждения, организации, предприятия своему сотруднику при решении целого ряда вопросов.

В характеристике производится отзыв о служебной общественной деятельности сотрудника, оценка его деловых и моральных качеств. Характеристика может быть оформлена на общем бланке формата А4.

Реквизиты характеристики.

1. Наименование вида документа (Характеристика).

2. Вводная часть, включающая основные анкетные данные работника (фамилия, имя, отчество, год рождения, образование, должность, структурное подразделение, в котором работает сотрудник, стаж его работы на предприятии).

3. Основной текст, где указываются деловые качества работника, проявляющиеся по отношению к трудовым

обязанностям, общее отношение к труду, этапы профессионального роста, наличие поощрений, наград, комплексные навыки, т.е.умение взаимодействовать, сотрудничать, руководить.


Текст характеристики завершается фразой «Характеристика дана для предъявления в ...».

4. Ссылка на дату и номер протокола заседания общественной организации, если характеристика утверждается этой общественной организацией.

5. Подписи руководителя предприятия и председателя общественной организации (обычно председателя профкома).

6. Печать, заверяющая подписи.

6-topshiriq. Hujjat turlari bo‘yicha klaster tuzing va shu asosda ular haqida ma’lumot bering.



7-topshiriq. Berilgan hujjatlar turning raqamlarini jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

1) buyruq; 2) guvohnoma 3) ishonchnoma; 4) tavsifnoma; 5) ko‘rsatma; 6) nizom; 7) bayonnama; 8) xatlar; 9) farmoyish; 10) tarjimai hol; 11) ariza; 12), tushuntirish xati, 13) shartnoma, 14) dalolatnoma.

Hujjatlar turi	Javob raqamlar
Tashkiliy hujjatlar	
Farmoyish hujjatlari	
Ma’lumot-axborot hujjatlari	
Xizmat yozishmalari	

ILOVALAR

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

Sharqning buyuk allomalari

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish – Uyg‘onish davri yuz bergen. Bu davrni Sharq Renessansi deb ataydilar (Yevropada bunday davr bundan bir necha asr kech, ya’ni XV-XVII asrlarda ro‘y berdi).

Markaziy Osiyoning madaniy yuksalish – Uyg‘onish davrida bu hududda Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg‘oniy (797-865), Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy (810-870), Muhammad at-Termizi (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Abdulloh Rudakiy (860-941), Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144), Burhoniddin al-Marginoniy (1123-1197), Ahmad Yassaviy (1041-1167) kabi jahonshumul olimlar dunyoga keldi, ijod qildi va insoniyat uchun juda katta ilmiy meros qoldirib ketdi.

Qizig‘i shundaki, yuqorida tilga olingan daholarning har biri haqiqiy ensiklopedik olim bo‘lib, insoniyat ilmining turli sohalariga oid bebafo asarlar yozib qoldirganlar. Bu asarlar keyinchalik, XV-XVII asrlarda ro‘y bergen Yevropa Renessansi – Uyg‘onish davri olimlariga dasturi amal bo‘lgan. Ular hozirgi davrgacha jahonning barcha yirik kutubxonalarida saqlanib qolgan bo‘lib, ko‘p sohalar bo‘yicha hozirgi davrgacha darslik sifatida qo‘llanib kelinadi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyat sohasidagi, Al – Farg‘oniyning astronimiya sohasidagi, Beruniyning falsafa ilmi bo‘yicha qoldirgan asarlari shular jumlasidandir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- 1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
- 2. Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
- 3. Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
- 4. Jahon sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘sghan buyuk olimlar haqida taqdimot tayyorlang.*

Abu Rayhon Beruniy

(973-1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad ak-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, mineralogiya, geologiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq ko'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yaxudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi. U 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998 yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozи tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. Beruniy "Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi.

Beruniy shoh Mahmud G'aznaviy II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'ydi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asr qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017 – 1048 yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomonidan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyatni uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomic-geografik asari "Tahdid nihoyot al-amoniyali tasxidi masofat al-masokin" ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun

joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – “Geodeziya”) 1025 yilda yozib tugatilgan.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o‘z ma’nosи uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro‘pada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o‘simliklar haqida kitob”ining qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Seraxsiy ma’lumoti bo‘yicha 11 dekabr 1048 yilda vafot etgan.

Beruniy so‘nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyat, farmakognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib she‘rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko‘paytirish asoslari”, “Ptolemey “Almagesti”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar”, “Farg‘oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyyotkorlik”, “Oq kiyimlilar” va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She‘rlar to‘plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.
2. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.

3. Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.

4. Olim fanning qaysi sohalariga oid asarlar yaratganligini yozib bering.

Ahmad al-Farg‘oniy

O‘rta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Farg‘oniy salmoqli o‘rin egallaydi.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi hujum kitobi” XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilingan so‘ng uning lotinlashtirilgan nomi “Al-Fraganus” shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaldi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi.

1669 yili mashxur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangicha lotin tarjimasi bilan nashr etgandan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarlarining Yevropadagi shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg‘onish davrining buyuk namyondalaridan biri bolgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstraliya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarini al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr)ham eslagan.

Al-Farg‘oniyning sakkizta asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador, lekin birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan: “Astronomiya asoslari haqida kitob” ning qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. “Asturlob yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Asturlob bilan amal qilish haqida kitob” – birgina qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston), “Al-Farg‘oniy jadvallari” – qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston), “Oyning yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola”-qo‘lyozmasi Qohirada, “Yetti iqlimi hisoblash haqida”-qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob”-qo‘lyozmalari Xalab va Qohirada saqlanadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matndan ilmiy uslubga xos terminlarni ko‘chirib yozing.*

“Jonli kutubxona”

“Jonli kutubxona”lar (ing Human Library) aynan shunday imkoniyatni beruvchi noodatiy kutubxonalardan biridir. Bu kutubxonalarning boshqalardan yagona farqi shundaki, unda siz kitoblar o‘rniga jonli insonlarni tanlaysiz, mutolaa esa tanlangan insonlarni tinglash hamda ularning hikoyalari bo‘yicha turli savol-javoblar o‘tkazishdan iborat.

“Jonli kutubxona” tashkil etish g‘oyasi 2000-yili Daniyaning Kopengagen shahrida Ronni Abbergel va uning jamoasi tomonidan yoshlar o‘rtasida zo‘ravonlikni kamaytirish maqsadida to‘rt kun davomida o‘tkazilgan festivaldan so‘ng paydo bo‘lgan. Ijobiy natijalarga boy ushbu festival birozdan so‘ng “Jonli kutubxona” uyushmasini tashkil etishga turtki bo‘ldi. Dastlab Daniyada muvaffaqiyatga erishgan bu turdagি kutubxonalar tashabbuskorlar va Yevropa kengashi kabi jamoat kutubxonalari institatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida dunyo bo‘ylab keng miqyosda tarqalmoqda.

Bugungi kunda 70dan ortiq davlatlarda “Jonli kutubxona” kutubxonalari tashkil etilgan bo‘lib, bu harakatlar butun dunyoning ijtimoiy hayotiga sezilarli darajada ta’sir etmoqda. Dastlab o‘quv dargohlari, san’at ko‘rgazmalari hamda yoshlar kongresslarida inson huquqlariga bag‘ishlangan festival sifatida tashkil etilgan bu tadbir, keyinchalik alohida kutubxona sifatida faoliyat yuritishga o‘tdi. 2006-yili esa Avstraliyaning Lismore shahrida birinchi doimiy faoliyat ko‘rsatish uchun jonli kutubxona binosi qurib foydalanishga topshirildi.

“Jonli kutubxona”larda kutubxonachilar ko‘ngilli ravishda ishlab, ularning asosiy vazifasi jonli kutubxonalarni kitoxonlarning qiziqishiga ko‘ra tanlashga ko‘maklashish, ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, yangi kitobxonlarga bu kutubxona haqida ma’lumot berishdan iboratdir. Kitob bo‘lib xizmat qiluvchi insonlar ham ko‘ngilli sifatida o‘z hayot tajribalari bilan o‘rtoqlashadi, kitobxonlarning savollariga ochiq-oydin javob berishadi.

Yaqinda o‘tqazilgan tadqiqot natijalari ushbu kutubxonalarning yaratilishi oily o‘quv yurtlari talabalari uchun ijobiyligi ta’sir o‘tkazib, ulardagagi noto‘g‘ri tushunchalarning kamayishi, o‘qish real aloqalarni rivojlantirish, insonlarga ko‘maklashish kabi insoniy fazilatlari ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar rivoji hayotimizni tubdan o‘zgartirdi, telefon, kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi insonlarni real hayotdan virtual olam tomon yetaklab borayotgani ayni haqiqat. Buning natijasida insonlar o‘rtasida yuzma-yuz muloqot keskin kamayib, o‘zimiz yaratgan aqli qurilmalar go‘yoki bizlarni boshqaruvchi kuchga aylanadi. Insonlar endi bilimlarni kitobdan emas balki turli qidiruv tizimlari yoki boshqa internet saytlardan izlashmoqda. Bu esa, kitob o‘qish madaniyatiga ta’sir etibgina qolmay, kitoblarga bo‘lgan talabning kamayishiga olib keldi. Kitob mutolaasiga talab qanchalik pasaygani sari, kutubxonalardan kitobxonlarni jalb etishning yangi-yangi yo‘llarini toppish taqozo etiladi. “Jonli kutubxona”lar yuqorida keltirilgan muammolarga yechim bo‘lsa ajab emas.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Dunyodagi mashhur kutubxonalar haqida taqdimot tayyorlang.*

Til va nutq

Biz o‘z nutqimizda SO‘Z (so‘zlash), GAP (gapisht), TIL va NUTQ atamalarini ko‘p qo‘llaymiz, ba’zan ular orasidagi farqni sinchiklab ham o‘tirmaymiz. Ular vositasida bilganlarimizni, ko‘rganlarimizni, mashq va mashg‘ulotlarimizning borishi-yu natijalarini, atrofdagilarga, ayniqsa, oila a’zolariga munosabatlarimizni ifoda etamiz. Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagи ko‘rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma’lum qilinishidir.

Lekin lingvistik nuqtai nazardan til va nutq farqlanadi. Jumladan, tilni xalq yaratadi, umumxalq bahosi va xususiyatiga ega bo‘ladi; nutq esa shaxsiy boylik sanaladi. Har kim o‘z qobilyati, so‘z boyligi, savodi hamda so‘zlash a’zolariga qarab gap tuzadi.

Til – aloqa quroli, u vosita. Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirishda xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning o‘zidek uzoq bo‘ladi. Nutqning umri esa qisqa bo‘ladi. Og‘zidan so‘z yo gap chiqdimi – uchadi ketadi. Shuning uchun nutq oldiga nihoyatda ulug‘ bir talab qo‘yiladi: o‘ynab gapisang ham, o‘ylab gapir. A. Navoiy aytganidek, so‘zingni buyuk etsang, o‘zinga buyuklik keltiransan.

Tilning xizmati doirasi juda keng, hajmi o‘lchovsiz bo‘ladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo‘ladi. Nutq yakka shaxs (monolog), juft shaxs orasida(dialog) yuz beradi. Nutq she’r, hikoya, roman, qissa kabi ko‘rinishlarda turli janrlarga bo‘ylanadi. Nutq yozma va og‘zaki bo‘ladi.

Tilning qonun-qoidalari uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim o‘zgarishda bo‘ladi; vaziyatga yo nutq a’zolari faoliyatiga qarab so‘zning tovush tomonio‘zgaradi, qo‘srimchalar turli fonetik hodisalarga uchraydi. Nutq hajmi so‘zlovchilarga saviyasiga, uslubga, o‘rin va joyga qarab, turli shakl va hajmlarda bo‘ladi.

Nutq oldiga qo‘yilgan talablar (tovush tanlash, so‘z toppish, gag ko‘rish) uning mohiyatidan, tildek <<ajab>> mo‘jiza dahosidan, uning ijtimoiy kuch-qudratidan kelib chiqadi. Chinakam go‘zallik, deydi A.Gorkiy, so‘zlarning aniqligi, ravshanligi va ohangdorligi bilan yuzaga keladi.

So‘zning to‘g‘ri qo‘llash, undagi tovushlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish (hol – hol, yod-yot, sof-sop, sher-she‘r va b.), so‘zlarni tartib bilan joylash kabilar vositasida fikrning tushunarli bo‘lishiga erishamiz. G‘o‘za va paxta o‘zaro juda yaqin tushunchani bildiradi, shunga qaramay <<g‘o‘za teriladi>>, <<paxta gulladi>> deyish xatodir.

Aniqlik, to‘g‘rilik, raxonlik, soddalik, tozalik, joziba (ta’sirli so‘zlash) kuchi har qanday nutqning eng muhim belgilaridir. Qo‘sishimchalardan to‘g‘ri foydalanish (g‘ishtin polli, kibenetikaviy...), (dadam va onam keldi...); so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash (qaror yozildi – qarorni emas), takror (turgan joyida turib qoldi...) va keraksiz ifodadan qochish, qo‘shma gapni meyori bilan tuzish, chet so‘zlarni zo‘raki – ehtiyojsiz ishlatish nutqni g‘aliz va nursiz qiladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Venn diagrammasi yordamida til va nutq tushunchalarini taqqoslang.*

Ustozlik-sharaflı kasb

Dunyoda insonlar turli-tuman kasblarda faoliyat olib boradi. Ammo, mana shu kasblar ichida shunday bir kasb borki, u ham sharaflı, ham mas’uliyatlılıgi bilan ajralib turadi. Bu ustozlik va murabbiylik kasbidir.

Barcha sohalarning ustalari, mutaxassislari bir kasb egalari mehnati bilan shakllanadi. Har birimizga kimdir harf o‘rgatib, savodimizni chiqargan. Bugun kim, qaerda, qanday vazifada ishlamasin, qachondir maktabda o‘qigan, ustozlar tarbiyasini olgan. Ilk bor maktabga borgan kunni, qo‘liga qalam berib, yozishni, o‘qishni o‘rgatgan o‘qituvchisini eslamaydigan odam topilmasa kerak.

Bir sinfda yigirma yo‘ttiz nafar o‘quvchi bo‘lsa, har birining tabiatи har xil. Ustoz ularning qalbiga yo‘l topadi, farzandidek

yuragiga yaqin oladi. Ustoz o‘z kasbiga qalb qo‘ri bilan kirishmasa, murabbiylik yo‘lida hech qanday yutuqlarga erisha olmaydi. Axir o‘qishni, yozishni bilmaydigan murg‘akkina bolaga bir harfni o‘rgatish oson bo‘lmasa kerak. Umrini shu sohaga bag‘ishlagan o‘qituvchilar hamma joyda bir xil-oddiy va kamtar.

To‘g‘ri, o‘quvchilik yillari sen uchun jon kuydirgan, o‘qib olim, yaxshi odam bo‘lsin deguvchi ustozlarning qadriga yetmaymiz. Ammo hayotning katta yo‘lida ularni ko‘proq sog‘inadi kishi.

Maktabga yo‘qlab borsangiz, ustoz yana ko‘zlar javdirab turgan, endigina maktabga qadam qo‘yan bolakaylar bilan mashg‘ul ekanini ko‘rasiz. U kasbidan zerikmaydi. Aksincha, yillar o‘tgani sayin ko‘ngli ham boladek beg‘yg‘bor bo‘lib boraveradi.

Bugun yurtimizda o‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar jahon talablariga to‘la mos keladi. Istiqlol yillari barcha ilm maskanlari mukammal ta’miralandi. Keng va yorug‘ darsxonalar, zamonaviy andozalar bilan jihozlangan o‘quv labaratoriyalari, kompyuter` texnikalari bolalarimiz xizmatida.

Odamlarga harf o‘rgatib savodini chiqarish-bu ularga o‘rgatilgan eng yaxshi ta’lim desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki biz butun hayotimiz davomida shu ustozlarimiz o‘rgatgan harflardan foydalanib o‘qiymiz, yozamiz va ilmimizni oshirishda davom etamiz.

Ertangi kunning qanday bo‘lishi mifik, bilim yurtlaridagi ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Chunki farzandlarimizning ongi-tafakkuri shu joylarda shakllanadi.

O‘zbekiston bugungi dunyo hamjamiyatidagi o‘zining munosib o‘rnini egallab, ta’lim, madaniyat, sport va boshqa sohalarda tenglar ichra teng ovoz bilan xalqaro maydonda o‘z mavqe‘iga ega bo‘lishida ustoz va murabbiylarning o‘rni beqiyosdir.

1 Oktyabr` kuni ustozlar bayrami bilan boshlanadi. Biz ko‘pincha aynan shu kuni ularni qutlaymiz, diyordorlashamiz. Aslida, bunday savob ish uchun maxsus kunni kutish shart emas.

Biz har kuni ustoz-murabbiylarni tabriklasak arziydi. So‘z mulkinining sultonini bo‘lmish hazrati Alisher Navoiy ilm tarqatuvchi

ustozlarni haqqini ado qila olmaslik to‘g‘risida shunday marhamat qiladilar:

“Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado haqqin aning yuz ganj ila.”

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni uslub jihatdan tahlil qiling.*

Usmon Nosir

Usmon Nosirning ijod davri sakkiz-to‘qqiz yilgina davom etdi. Uning bizga ma’lum asarlari mana shu yillar ichida, ya’ni shoirning 16 yoshdan 25 yoshgacha davrida yaratildi. Shu yillar ichida u bir necha she’riy to‘plam: "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Yurak", "Mehrim", "Atlas", "Zafar", "So‘nggi kun", "Dushman" kabi dramalarini yozdi.

Usmon Nosir badiiy tarjima sohasida ham o‘z mahorati va nozik poetik didini namoyish eta oldi. U N.D.Dobrolyubovning "Haqiqiy kun qachon keladi", Pushkinning "Boqchasarov fontani", M.Yu. Lermontovning "Iblis" kabi asarlari va bir qancha she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ko‘pgina na’munalarni o‘zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasida o‘qidilar. Bu tarjimalar o‘zbek adabiyotining tarjima asarlari orasida shohona namunalar bo‘lib qoldi.

Shoir Turob To‘la: "Usmon she’riyatga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda o‘zbek Lermontovi, Moskva

gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi", deb yozishdi", - degan edi.

Usmon Nosir ham ko‘pchilik zamondoshlari kabi qatag‘onga uchradi. U 1944-yil 24-martda Kemerovo oblastida vafot etadi va shu yerda Pervomaysk qishlog‘ida dafn etiladi.

Bargdek uzulib ketsam,
Unutmas meni bog‘im,
Ishimni hurmat qilar,
Gullardan haykal qo‘yar,
She’rlarim yangrab qolar,
Ming yillardan keyin ham.
Unutmas, meni bog‘im.
Ha, xalq o‘zining sodiq o‘g‘lonlarini unutmeydi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- 1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.
- 2-topshiriq. Matnga reja tuzing. Shu reja asosida uning mazmunini aytib bering.
- 3-topshiriq. Matnni o‘qib, o‘rganib, so‘zlab berishga tayyorlaning.

Cho‘lpon

Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1983-yilda Andijonda tug‘ilgan. O‘zbek shoiri, tarjimoni va san’atshunos olimi. Cho‘lpon-uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta’lim olgan.

Cho‘lpon bir qator ro‘znomalarda xizmat qilgan. O‘zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.

Cho‘lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib edi. 1929-yilda uning «Kecha va kunduz» romani bosilib chiqdi.

1927-yildan Cho‘lponga hujum boshlandi. O‘zbekiston madaniyat xodimlari 2-qurultoyida uni zaldan haydab chiqarishdi.

1937-yili shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o‘zbek xalqining munosib farzandi oqlanib qadr-qimmat topdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni uslub jihatdan tahlil qiling.*

Hujjatchilik tarixi

Hujjat nima?

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Hujjat” so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “Hujjat” arabcha so‘z bo‘lib, qayd qilish, tasdiqlash ma’nosini bildiradi. Shuningdek, u ijtimoiy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yozuv va suratlar, asar yoki adabiyot ma’nosini ham ifodalaydi.

O‘tmishdagi hujjatlar aslida yaqindagina vujudga kelmagan. U qadim davrlarga borib taqaladi. Turkiy xalqlarda ham hujjat tuzish qadimdan mavjud bo‘lgan. X asr va undan oldingi davrlarga oid turli hujjat namunalari bizgacha yetib kelgan. Hatto M.Qashg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida “Bushug” so‘zi uchraydi. U elchiga qaytib ketish uchun beriladigan ijozat qog‘ozi, shuningdek, elchilarga beriladigan sovg‘a ma’nolarini bildiradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarida *yorliq* va *noma* ma’nosи о‘rnida “bildargulik” so‘zi ishlatilgan. Hozirgi kubda faol qo‘llanishga o‘tgan “bildirishoma”, “bildirish” shu so‘zdan olingan. Sho‘rolar davrida bu so‘z “raport” dev yuritilardi. Qadimshunos olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida ko‘pgina

ma'lumotlarga ega bo'lindi. Namangan viloyati Kosonsoy shahri yaqinidagi Mug' qal'asidan VII-VIII asrga oid 80 ta hujjat topilgan. Ular milliy so'g'd yozuvida bo'lib, toldan kesilgan tayoqcha, teri va xitoy qog'ozlariga bitilgan. Hujjatlar mazmunan huquqiy xaakterga ega. Bir turkumi diplomatik aloqalarga oid bo'lib, arablarga qarshi harbiy kuchlarni birlashtirish masalasiga bag'ishlangan. Hujjatlarda buyruqlar, soliq va boj yig'ish moliyaviy harajatlar ro'yhati va boshqalar aks etgan. Xorazm xarobalaridan esa charm va taxtachaga yozilgan hujjatlar topilgan. Tuproqqa'l'a hayot bo'lgan davrdagi xonadan a'zolarining ro'yxati, harbiy chaqiriq, soliq, jon-mol ro'yhati, xo'jalik asboblarini olingani haqidagi *tilxat* qadimgi hujjatlardan darak beradi. Turkiy tillar mutaxassisi S.E.Malov "Памятники древнетюркской письменности" (М-Л, 1951) asarida qadimgi turkiy yozuvida XIII asrlarda bitilgan qadimgi hujjat (shikoyat, oldi-sotdi, ijaraga qo'yish, tilxat) namunalarini keltiradi. Qimmatli ma'lumot beruvchi X-asr olimi Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Ilmlar kaliti" asarinig "arab" ilmlari qismida ish yuritish daftarlarini sharhlab, Samoniylar davlatidagi soliq xillari va ularni yig'ish yo'li, hajmi, Sharq mamlakatlarining hududlarida ishlatilgan hamda o'lchov birliklarini keltiradi. Askarlar ro'yhati, beriladigan maosh, kiyim-kechak shakllarini keltiradi. O'cha davrda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan o'lchov birliklari haqida ma'lumot beradi. Ular boshqa manbalarda hozir uchramaydi.

"Eski uyg'ur yozuvi" (Q.Sodiqov), "Древний Хорезм" (С.П.Толстой), "Ганчи, ганчибоши в Каканском ханстве" (А.Л.Тротская) kabi manbalarning ahamiyati katta. Ma'lum bo'lishicha, X-XIX asrlarda farmon, yorliq, noma, bitim, arznama, qarsnama, vasiqa, vaqfnoma, tilxat kabilar keng iste'molda bo'lgan. Hozirgi kunda *vaqfnoma*, *noma*, *vasiqa*, *arsnama* kabi hujjatlar tilimizda ishlatilmaydi. Manba sifatida "Boburnoma" asarining o'rnida "arsadosh" qo'llanilgan. Shuni qayd qilish mumkunki, hozirgi kunda tilimizda tor ma'noga ega bo'lgan "patta" so'zi XIX asrda Qo'qon xonligida keng ishlatilgani ma'lum.

Dunyoning har bir mamlakatida qadimdan rasmiy ish qog'ozlari qo'llanilib kelgan. Masalan: eramizdan avval bo'lgan Bobil (Vavilion) davlatining 1792-1950-yillar podshox Xammurapining buyrug'i bilan tayyorlangan qonunlar majmuasi mavjudligi haqida

amerikalik sharqshunos Edvard Kira “Они писали на глине” (1984-yil) asarida ma’lumot beradi. Qonun majmuasi 247 moddadan iborat bo‘lib, u basalt ustuniga qadimgi mixxat bilan yozilgan. Qonunda yerga egalik, savdo-sotiq, iqtisodiy-ijtimoiy munossabatlar aks etgan. Bobil hozirgi Iroqning janubiga to‘g‘ri keladi.

Rossiyada hujjat yuritish IX-X asrlardan boshlangan. X-asrga kelib shartnomalarda muhrlar qo‘llana boshlagan. XIV-asr oxirlaridan boshlab hujjatlar qog‘ozlarda o‘z ifodasini topishga o‘tgan. Manbalar Pyotr davrida “Dokument” so‘zining ishlatila boshlaganidan darak beradi. U tor ma’noda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport) o‘rnida ishlatilgan. Keng ma’noda – guvoh beruvchi, ibratli, namunali, dadil, isbotlovchi ma’nosida qo‘llanilgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing.*
2. *Matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing.*
3. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
4. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*

Axborot texnologiyalari va ularning turlari

Texnologiya so‘zi grekchadan tarjima qilinganda san’at, ustalik, malaka ma’nosini anglatadi. Texnikada texnologiya deganda ma’lum kerakli material mahsulotni hosil qilish uchun usullar, metodlar va vositalar yig‘indisidan foydalanadigan jarayon tushuniladi. Texnologiya obyektining dastlabki, boshlang‘ich holatini o‘zgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan holatga keltiradi. Misol uchun sutdan turli texnologiyalar orqali qatiq, tvorog, smetana, yog‘ va boshqa sut mahsulotlarini olish mumkin. Agar boshlang‘ich xom ashyo sifatida axborot olinsa, ushbu axborotga ishlov berish natijasida axborot mahsulotinigina olish mumkin. Ushbu holda ham “texnologiya” tushunchasining ma’nosi saqlanib qolinadi. Faqat unga “axborot” so‘zini qo‘shish mumkin. Bu narsa axborotni qayta ishslash natijasida moddiy mahsulotni emas, balki axborotnigina olish mumkinligini aniqlab turadi.

Texnologiyani quyidagicha ta'riflash mumkin.

Texnologiya-bu sun'iy obyektlarni yaratishga yo'naltirilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerakli jarayonlarni kerakli yo'nalishda borishini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi. Bu yerda tabiiy jarayonlar nafaqat moddaning tarkibi, tuzilishi va shaklini o'zgartirish maqsadida, balki axborotni qayta ishslash va yangi axborot hosil qilish maqsadida ham boshqariladi. Shuning uchun axborot texnologiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Axborot texnologiyasi-bu axboriy ma'lumotni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan yangi ko'rinishga keltirish, axborotni yig'ish, qayta ishslash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi insonning talabini qondiradigan yangi mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Axborot texnologiyasining maqsadi esa insonning biror-bir ishni bajarishi uchun zarur bo'lgan, uni tahlil etish va u asosida qaror qabul qilishi kerak bo'lgan yangi axborotni ishlab chiqarishdan iborat. Turli texnologiyalarni qo'llab, bitta moddiy resurslardan turli mahsulotlar olish mumkin. Xuddi shu narsani axborot texnologiyalariga nisbatan ham aytish mumkin. Misol: matematikadan nazorat ishini bajarganda har bir o'quvchi boshlang'ich axborotni qayta ishslash uchun o'zining bilimini qo'llaydi. Masalaning echimi bo'lgan yangi axborot mahsuloti, o'quvchi tanlay olgan masalani yechish texnologiyasi, usuliga bog'liq.

Moddiy ishlab chiqarishda turli maxsus jihozlar, stanoklar, uskunalar va boshqalar ishlatiladi. Axborot texnologiyalari uchun ham o'zining "uskunalari", vositalari mavjud. Bular kseroks, telefaks, faks, skaner va boshka vositalardir. Bu vositalar orkali axborotga ishlov berilib, o'zgartiriladi. Hozirgi paytda axborotga ishlov berish uchun kompyuterlar va kompyuter tarmoqlari keng qo'llanilmoqda. Axborot texnologiyasida kompyuterlar va kompyuter tarmoqlarining qo'llanishiga urg'u berish maqsadida ko'pincha kompyuter va kommunikatsion texnologiya haqida gapirishadi.

Axborot texnologiyasi o'zi uchun asosiy muhit bo'lgan axborot tizimlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki axborot texnologiyasi

axborot tizimlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ustida bajariladigan turli xil murakkablikdagi operatsiyalar, amallar va algoritmlarni bajarishdan iborat bo‘lgan tartiblashtirilgan jarayondir.

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud.

Ichki omillar – bu axborotning paydo bo‘lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlsh va h.k.

Tashqi omillar-bu axborot texnologiyasining texnik – uskunaviy vositalar orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalgam oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyasining mazmunini quyidagi oddiy bir misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Siz biror ma’lumot haqida boshqa bir viloyat, (respublika, qit’a)da yashovchi o‘rtog‘ingiz bilan fakir almashmoqchisiz. Buni turli yo‘llar orqali etkazishingiz mumkin:

- 1) aloqa bo‘limi orqali (yozma);
- 2) telefon tarmoqlari orqali (og‘zaki);
- 3) zamonaviy telekommunikatsiya vositalari orqali.

O‘zingiz uchun iqtisodiy jihatdan eng arzon va sifati yuqori bo‘lgan usulni belgilab olasiz.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.*
2. *Matnga reja tuzing.*
3. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
4. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*

Masofaviy ta’lim va uning kelajagi

Rivojlangan davlatlar amaliyotida masofaviy ta’lim (MT) turli xil modellar, metodlar va texnologiyalarni o‘z ichiga olib, unda

pedagog va o‘quvchi ma’lum masofa bilan chegaralangan bo‘lib, turli joylarda (klasslar; shaharlar va hattoki mamlakatlar) orasida olib boriladi. Bu holda talaba va pedagog orasidagi o‘zaro aloqa turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi.

- odatdagi pochta va aloqa yordamida uzatiladigan pechatli va yozma materiallar;
- telefon tarmoqlari;
- audio va video yozmalar, o‘quv radiosи va televideniyesi;
- interaktiv dasturli o‘qitish vositalari;
- kompyuterli o‘rgatuvchi dasturlar;
- lokal va global kompyuter tarmoqlari;

Tabiiyki, u yoki bu o‘zaro aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari pedagog bilan tinglovchi orasidagi mavjud holatlar o‘qitish metodikasi va taktikasi hamda strategiyasi bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtida MT ning pedagogik va tashkiliy asoslari telekommunikatsion servislar: elektron pochta, mavzuga bog‘liq jo‘natmalar, elektron jurnallar, USENT konferentsiyalar, ICQ, veb-konferentsiyalar, e’lon doskalari va boshqalar. Hozirgi paytda turli xil servislar orasida MT ning eng samaralisi bo‘lib, elektron pochta hisoblanadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni uslub jihatdan tahlil qiling.*

Kompyuter lingvistikasi

“Kompyuter lingvistikasi” fani tabiiy tillarning matematik modellarini qurish, lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. “Kompyuter lingvistikasi”

fani oldida turgan asosiy masalalar esa umumiylar tilshunoslikning formal va aksiomatik modellarni qurish va konkret tillarning matematik modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu modellar asosida matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi, kompyuter lug‘atlari, ona tili va chet tillarga o‘rgatish hamda bilimlarni baholash bo‘yicha kompyuter dasturlarini yaratish mumkin bo‘ladi.

Til qoidalarining matematik modeli matematik mantiqning formal va aksiomatik nazariyalari asosida quriladi. Shuning uchun bu fan matematik mantiq asoslarini bayon qilish bilan boshlanadi. Bu yerda mulohazalarni hisob-kitob qilishning usullari hamda ularning formal va aksiomatik nazariyalari bayon qilinadi. Keyin o‘zbek tilining formal va aksiomarik modellari beriladi va lingvistik masalalarning matematik algoritmlari va kompyuter dasturlari keltiriladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- 1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
- 2. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
- 3. Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
- 4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.*

Multimedia

Multimedia (multimedia) atamasi, “ko‘p qa’vatli muhit” ma’nosini bildiradi, multimediali texnologiya esa bu dasturli va texnik moddiy ta’midot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli tasviriy axborotlarni tovushli-ovozli, rangli, harakatga keltirilgan holda ifodalash imkoniyati demakdir. Hozirgi kunda tilshunoslik fanlarini o‘rganishda bиргина darslik, o‘quv qo’llanma va ma’ruza matnlari bilan cheklanmasdan, shu fan sohalariga oid multimediali yoki animasiyali o‘quv ko‘rsatuvlar va elektron darsliklar yaratish tilshunoslik sohalarini chuqurroq o‘rganish uchun aniq imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Bu esa talabalarning tilshunoslik fanlariga bo‘lgan ilmiy salohiyatini, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga katta yordam beradi. Shuning uchun “Tilning kelib chiqishi”, “Tillarning genealogik tasnifi”, “Tillarning morfologik tasnifi”, “Turkiy xalqlar va turkiy

tillar” singari tilshunoslikka doir qator mavzularni pishiq-puxta o‘rganib, ana shundan keyin ana shu mavzularni o‘tishga doir elektron yoki multimediali darsliklar yaratish lozim bo‘ladi.

Tilshunoslik fanlarini o‘tish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslik sohalariga doir yaratiladigan elektron darsliklar sodda, tushunarli va, eng muhim, ilmiy-ommabop xarakterga bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda kompyuter texnologiyasi yordamida izchil va muntazam ravishda ishlangan elektron darsliklar tilshunoslik sohalari bo‘yicha talabalarning bilim doirasini kengaytirishda yaxshi natija beradi. Ayniqsa talabalarimiz “Turkiy filologiyaga kirish” fanidan “Turkiy tillarning tasnifi”, “Turkiy tillarning Rossiyada o‘rganilishi”, “Moskva, Qozon, Peterburg turkiyshunoslik maktablari”, “Turkiy tillarning Yevropada o‘rganilishi” kabi mavzularga oid bilim va ko‘nikmalarni egallashda kafedrada shu fan bo‘yicha yaratilgan elektron darslik materiallariga tez-tez murojaat qilmoqdalar.

Tilshunoslik bo‘yicha yaratilayotgan elektron va multimediali darsliklarda til birliklari (nutq tovushi, o‘zak, morfema, so‘z, so‘z birikmasi va gap kabi) ning asosiy ko‘rinishlari obrazli qilib, ekranga chiqarilishi, ularning mohiyat va mazmuni muammoli bo‘lishi lozim. Tilshunoslikka oid har qanday elektron darslikning asosiy maqsadi talabalarda lingvistik tushunchalarni shakllantirish va to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Shu o‘rinda, bizningcha, tilshunoslik bo‘yicha ma’ruza darslarini o‘tish bilan birgalikda til bo‘yicha amaliyot darslarini ko‘proq kompyuter texnologiyalari yordamida o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki “Tillar tasnifi”, “Tillar va xalqlar” singari mavzular bo‘yicha amaliyot darslarini o‘tish vaqtida Autocad, Photoshop, Excel va boshqa dasturlar yordamida tilshunoslik, tillarning sosiolingvistik tasvifiga oid olingan yangi ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta yaratish imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin bo‘ladi. Buning natijasida talabalar jahonda tillarning geografik tarqalishi, ayrim tillarning ikki yoki undan ortiq mamlakatlar uchun rasmiy davlat tili (ingliz tili, nemis tili, fransuz tili, ispan tili kabilar) va Kuba, Avstriya, Avstraliya, AQSH, Kanada kabi mamlakatlarda boshqa xalqlarning tillari milliy til sifatida xizmat qilayotganligi kabi muhim ma’lumotlarni kompyuter orqali topib aniqlaydilar, shu asosda jahonda slavyan, eron, roman, german, turkiy, oltoy tillarining tarqalishi, bu tillarda gaplashuvchi aholi soni

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Excel dasturi orqali diagramma shaklida yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matndagi terminlarni aniqlang, ularni sohalari bo‘yicha guruahlarga ajrating.*

AKT ning rivojlanish tarixi

XIX asrning ikkinchi yarmigacha “qo‘l” axborot texnologiyasi rivojlangan bo‘lib, uning asosini pero, siyohdon va buxgalteriya daftari tashkil etgan. Kommunikatsiya (aloqa) paket (rasmiy xujjatlar solingan konvert) yuborish orqali amalga oshirilar edi.

“Qo‘l” axborot texnologiyasi o‘rniga XIX asr oxirida “mexanik” texnologiya kirib keldi. Yozuv mashinasi, telefon, diktafonning kashf etilishi, jamoa pochtasi tizimining takomillashuvi – bular bari avvaliga axborotni qayta ishlash texnologiyasida, so‘ng ish mahsuldarligida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishiga zamin bo‘ldi.

XX asrning 40-60 – yillarida “elektr” texnologiyasi paydo bo‘lib, u yechib almashtiriladigan elementlarga ega elektr yozuv mashinkalari, oddiy qog‘ozdan foydalanuvchi nusxa ko‘chirish mashinasi, portativ diktafonlardan iborat edi.

60-yillarning ikkinchi yarmidan esa “elektron (yoki kompyuter)” texnologiyasi yuzaga kela boshladi va axborotni shaklini emas, mazmunini o‘zgartirishga urg‘u berila boshlandi.

Axborot texnologiyasining keyingi taraqqiyoti asosan kommunikatsiya vositalari bilan bog‘liq.

Xorijiy mutaxassislar axborot texnologiyalari rivojlanishiing beshta asosiy tendensiyasini ajratib ko‘rsatadi:

1. Axborot mahsulotlarining murakkablashuvi. Axborot vositasi ko‘rinishidagi axborot mahsuloti, ekspert ta’minoti xizmatining ma’lumotlar bazasi strategik ahamiyat kasb eta boradi. Turli shakldagi (nutq, ma’lumot, tasvir) axborot mahsulotlari eshitish, ko‘rish va anglash uchun foydalanuvchining talabiga ko‘ra ishlab chiqiladi hamda unga qulay vaqtida va shaklda mahsulotni yetkazib berish vositasi mavjud bo‘ladi.

2. Birgalikda harakat qilish qobiliyati. Axborot mahsulotining ahamiyati oshib borishi bilan mazkur mahsulotlarni kompyuter va inson yoki axborot tizimlari o‘rtasida ideal tarzda almashuvini o‘tkazish imkoniyati ilg‘or texnologik muammo kasb etadi.

3. Oraliq bo‘g‘inlarni tugatish. Birgalikda harakatlanish qobiliyatining rivojlanishi axborot mahsulotlari almashish jarayonining takomillashuviga, so‘ngra, axborot manbai yo‘lidan iste`molchiga qarab oraliq bo‘g‘inlar tugatiladi.

4. Globallashtirish. Tashkilot yo‘ldosh aloqa va Internet tarmog‘ida foydalanib axborot texnologiyalari yordamida hohlagan joyda va xohlagan paytda ish olib borish mumkin.

5. Konvergensiya (uyg‘unlashish). Konvergensiya AATning zamonaviy rivojlanish jarayonining oxirigi bosqichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda mahsulotlar va xizmatlar, axborot va dam olish, shuningdek, ovozli, raqamli hamda videosignalarni uzatish kabi ish rejimlari o‘rtisidagi farq yo‘qoladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*

Videoaloqa

Butun jahon ko‘rgazmasidagi 60-yillarning reklama roligi. Orasta kiyigan uy bekasi o‘zining superavtomatlashirilgan oshxonasidan chiqmasdan, videotelefon bo‘yicha mebel tanlaydi, tushlikka yangi uzilgan mevalarni sotib oladi yoki dugonasining yangi taroshlangan sochini tanqid qiladi. Afsus, hali hatto bugunda bunday

imkoniyatlarni amalga oshirish juda qiyindir. Lekin yaqin kelajakdachi?

Hamkor bilan videotelefonda so‘zlashuv olib borish, ya’ni o‘zi hamsuhbatini ko‘rib turib gaplashish, bugungi kunda haqiqatdir, qayerdadir esa har kungi odatdir. Bir nechta foydalanuvchilarning guruh tarkibida hujjatlar va ilovalar bilan yoki uydagi ofislardan uzoqlashgan muloqotni ishlatganda birgalikdagi masofadan turib ishlashni tashkil qilish ham haqiqatdir (bu usul mutaxassislarni uydagi mehnatidan keng foydalanayotgan firmalarda samarali ishlatilmoqda). Videoaloqa bo‘yicha konsiliumlar, o‘zaro maslahatlar, seminarlarni o‘tkazish, kerakli grafikli va videomateriallarni namoyish qilib, masofadan turib o‘qitish haqiqatdir va h.k.

Videoaloqa tizimlarida juda ko‘p narsalar mumkin va haqiqatdir. Lekin qiyinchiliklar ham bor, ayniqla videokonferensiyalar o‘tkazishda muammolar tug‘iladi, lekin aynan shu videokonferensiyalar hozir videoaloqaning eng rivojlanadigan va iqtisodiy maqsadga muvofiq varianti sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni rus tiliga tarjima qiling.*

Telefon aloqa

Telefon aloqa eng keng tarqalgan tezkor ma’muriy-boshqaruvi aloqa turidir. Telefon aloqa tarmog‘ining abonentlari ham jismoniy shaxs, ham xo‘jaliklardir. Telefon aloqa firmalarda, ofislarda va sh.o‘. muhim rol o‘ynaydi. Demak, ko‘pchilik firmalar uchun telefon o‘ziga xos tashrif qog‘ozi hisoblanadi, chunki buyurtmachilar va hamkorlar bilan birinchi muloqat telefon orqali amalga oshiriladi. Ulanish qulayligi va telefonning servis imkoniyatlari (ular esa ko‘pincha ofis ATS bilan aniqlanadi) firmaning salobati to‘g‘risida birinchi tasavvurlarni shakllantiradi, bu esa juda muximdir.

Lekin hamma ham telefon tizimlarining imkoniyatlari telefon aloqa tizimining o‘z abonentlariga ko‘rsatadigan va ko‘rsata olishi mumkin bo‘lgan servis xizmatlari to‘g‘risida bilavermaydi. Bu hamma servis xizmatlar hozirgi zamonda 600 nomdan ko‘proq bo‘lib ularni sanab o‘tishning imkoni yo‘q, lekin ularning ba’zi birlari bilan qisqacha tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Telefon aloqa bunday bo‘lishi mumkin:

- umumiyl foydalaniladigan telefon aloqa (shahar, xalqaro va b.);
- muassasa ichidagi telefon aloqa.

Radiotelefon aloqa, videotelefon aloqa telefon aloqaning alohida turlariga mansubdir. Telefon aloqa tizimi telefon tarmog‘idan va abonent terminallaridan tashkil topgan. Umumiyl holda telefon tarmog‘i – bu kommutatsiya uzellari majmuidir, ularning rolini avtomatik telefon stansiyalar (ATS) va ularni birlashtiruvchi aloqa kanallari bajaradi.

Abonent terminallari (ularga abonentning telefon apparatlari, ofis ATSi yoki kompyuterlar misol bo‘laoladi), odatda, tarmoqqa ikki juft nis sim-abonent liniyasi bilan ulanadi. Abonent liniyasi tarmoqda o‘zning yagona nomeriga (abonent nomeriga) ega; uning uzunligi, odatda, 7-8 km dan oshmasligi kerak va u orqali ma’lumotlarni uzatish ko‘pincha analog shaklda olib boriladi.

ATSlar bir-biri bilan ulovchi liniya deb ataladigan liniya orqali ulanadi-hozir deyarli barcha umumiyl foydalanish tarmoqlarida 4 ta simli raqamli liniyalar qo‘llaniladi (bir juft sim signallarni har bir yo‘nalishda-bir ATS dan boshqasiga va teskarisiga – uzatish uchun qo‘llaniladi).

Telefon tarmog‘i iyerarxik strukturaga ega. Pastki darajada oxirgi ATS lar joylashgan, ularga abonent terminallari ulanadi; bunday ATS, abonent nomerining oldingi raqamlari bilan mos keladigan nomerga ega bo‘ladi (masalan, 2670202 nomerga ega bo‘lgan abonent 267-ATS ga ulangan; ATS ichida bu abonent 0202 nomerga ega). Agar ATS 10000 tadan ortiq abonentni kommutatsiya qilsa (masalan, 5ESS stanciyasi 350000 tagacha abonentga xizmat ko‘rsatadi), u holda u o‘zini alohida nomeriga ega bo‘lgan bir nechta mantiqiy kichik stanciyalarga bo‘linadi.

Biror geografik hududga xizmat ko'rsatadigan ATS lar majmui mamlakat ichida o'zining yagona nomeriga bo'lgan zonani tashkil etadi (masalan, Sankt-Peterburg-bu 812 zona, Moskva-095 zona va b.). Zona orasidagi aloqa ierarxiyaning yuqog'iroq darajasidagi ATS yordanida-shaharlararo ATS yordanida amalgalashiriladi. Shaharlararo ATS ikkita nomerga ega bo'ladi: o'zini ichki ATS lari uchun nomer-8, u Rassiyaning hamma ATS lari uchun bir xiddir; Tashqi shaharlararo ATS uchun nomer-uning yagona nomeri (812,095 va b.).

SHunday tamoyil bo'yicha shaharlararo ATS yuqori darajada turgan ATS ga-xalqaro ATSGa ulanadi. Rossiyada xalqaro ATS ga chiqish uchun uning mamlakat uchun yagona bo'lgan nomerini – 10 ni terish kerak, boshqa mamlakatning xalqaro ATS ga kirish uchun esa shu mamlakatning kodini terish kerak.

Shunday qilib, to'liq, umumjahon yagona abonentlik nomeri mamlakat kodidan, mamlakat ichidagi ATS nomeridan va ATS ichidagi abonent terminali nomeridan tashkil toptan. Agar abonent terminali ofis ATS ko'rinishiga eta bo'lsa, u holda abonentni identifikasiya qilish uchun ofis ATS ichidagi qo'shimcha nomer talab qilinishi mumkin.

Zamonaviy ATS-bu raqamli signallar bilan ishlaydigan, dastur bilan boshqariladigan kommutaciya tizimidir. Bu shuni bildiradiki, abonent liniyasidan kelayotgan analog signal ATS ga kirganda raqamli shaklga aylantiriladi va shu shaklda telefon tarmog'i bo'yicha tarqaladi, keyin boshqa abonentning abonentlik liniyasiga tushganda yana analogli shaklga aylanadi.

Ichki abonent ATS ga murojaat qilganda unga aniq bir tashqi kanal ajratiladi: ATS da tashqi kanallar soni unga ulangan abonentlar sonidan ko'p marta kichikdir. ATS abonentlari sonining uning tashqi kanallari soniga nisbati konsentratsiya koeffisienti deb ataladi. Bu koefficientning me'yordagi kiymatlari 8:1–10:1 tartibli kattaliklar hisoblanadi (8:1 koefficient shuni bildiradiki, agar hamma abonentlar birdaniga ATS dan ulanishini so'rashsa, u holda u ularning faqat 12,5 % so'rovini qondirishi mumkin; lekin bir vaqtning o'zida 10000 abonentdan 1250 tasining murojaat qilish ehtimolligi, bitga abonentlik kanalining statistik o'rtacha yuklanganligi darajasidan yuqori emas, shuning uchun yuqorida keltirilgan koncentraciya koefficientlari to'la

qoniqarlidir). Telefon apparatlari va ofis ATS larning turlari va servis imkoniyatlari to‘g‘risida birmuncha batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*

Aloqa tizimining ba’zi servis imkoniyatlari

Dasturlashtiriladigan klavishalar. Telefon apparatining qo‘lli panelida uch xil rangli svetodiod indikatorli bevosita teriladigan 12 yoki 24 ta klavisha bor, ularning har birining bosilishi bilan 25 ta turli xil vazifalardan bittasi bajarilishi mumkin, chunonchi: nomerni tez terish, qoldirilgan axborotlarni eshitib ko‘rish va b. Svetodiodli indikatorlar, masalan, yashil rangli klavisha bilan siz ilgari qo‘ng‘iroq qilgan abonent nomerlarini, sariq rang bilan siz qo‘ng‘iroq qilgan, lekin so‘zlasha olmagan, qizil rang bilan siz hali qo‘ng‘iroq qilmagan abonent nomerlarini ko‘rsatadi.

Intellektual display. Telefon apparatida mavjud bo‘lgan ikki satrli suyuq kristalli display kirayotgan va chiqayotgan qo‘ng‘iroqlar to‘g‘risida (shu jumladan, sizni boshqa abonent bilan so‘zlashuv vaqtingizdagi kirish qo‘ng‘iroqlari va aniq bir vaqtga belgilangan chiqish qo‘ng‘iroqlari haqida) va qoldirilgan tovushli xabarlar haqida ko‘pgina foydali ma’lumotlarni berib turadi.

Nomerni aniqlagich. Kirish nomerini aniqlagich displayda sizga qo‘ng‘iroq qilayotgan telefondagি abonentning nomerini va familiyasini ko‘rsatadi hamda siz boshqa abonent bilan so‘zlashayotgan paytingizda qo‘ng‘iroq qilayotgan abonentning nomerini va familiyasini displayda aks ettiradi va maxsus gudok bilan sizga ma’lum qiladi. Bunda 250–500 familiyaga mo‘ljallangan apparat ichidagi elektron telefon kitob ishlatiladi. Qo‘ng‘iroq qilayotgan abonentning nomerini tizim xotirasiga bitta knopkani bosish bilan yozib qo‘yish mumkin, so‘zlashuv tugagach va liniya bo‘shagandan keyin, yana eslab qoltingan nomer bo‘yicha yana bitta knopkani bosib, abonentga qaytadan qo‘ng‘iroq qilish mumkin.

Tovushli terish. Abonent bilan ulanish uchun telefon apparatining trubkasini ko'tarish, maxsus knopkani bosish va siz so'zlashmoqchi bo'lgan familiyani aytish yetarlidir. Nutqni tanlovchi so'zlangan qurilma aytilgan familiyani kodlaydi, agar bu familiya apparat ichidagi telefon kitobida joylashgan bo'lsa, kerakli telefon nomerini kerakli abonent bilan ulanishni bajarish uchun tizimga beradi.

Tez terish. Tez terish kerakli abonent nomeriga dasturlangan bitta klavishani bosish bilan yoki telefon kitobidan foydalanib, uning ichidagi ro'yxatni displayda ko'rib chiqish yo'li bilan abonent familiyasi bo'yicha kerakli nomerni tanlash (va yana bitta klavishani bosish bilan) amalga oshirilishi mumkin.

Tovushli pochta qutisi. DCS tizimi tashqi abonentlarga qo'ng'iroq paytida o'z joyida bo'lмаган ofis xodimlari uchun yetarli darajada uzun xabarlarni qoldirish imkonini beruvchi avtojavob beruvchi (tovushli pochta qutisi) elementiga ega. Qoldirilgan xabar to'g'risidagi ma'lumot tegishli apparatga uzatiladi; axborotni bitta knopkani bosish bilan eshitib ko'rish mumkin.

Konferens-aloqa. Tizim bir vaqtning o'zida 5 ta tashqi abonent yoki qo'shimcha ichki abonentlar bilan ixtiyoriy kombinatsiyada konferens-aloqani tashkil etish imkoniyatiga ega. Audio-konferensiya qatnashchilari, umumiyl guruhli ulanishni buzmagan holda ixtiyoriy vaqtda unga qo'shilishlari va undan chiqib ketishlari mumkin.

Avtokotib. Elektron avtokotib, siz telefonda so'zlashib turganingizda, istalgan miqdordagi kirish qo'ng'iroqlariga javob berish qobiliyatiga ega. Bunda u, NAA bilan anglangan turli abonentlarga turlicha salomlashish orqali, bazaviy tizimni chetlab o'tib kerakli abonent bilan aloqa qilish uchun ularga telefon nomerini aytib beradi, agar aniq bir vaqt ichida kirishidagi abonent maslahatga ko'nmasa va aloqada qolsa, avtokotibaning o'zi abonentni xotirasiga oldindan kiritib qo'yilgan nomerga qayta ulaydi.

Uy telefoni. Tizim uy telefoni va kirish eshigining qulfini ochuvchi mexanizm bilan jixozlangan, bular, qulfini mehmon shaxsini yana telefon bo'yicha aniqlagandan keyin, to'g'ridan-to'g'ri telefon apparatining klaviaturasidan ochish maqsadi uchun kerak.

Statistikani yig‘ish. Tizim aniq bir vaqt oralig‘i uchun ofisdagi har bir xodimning so‘zlashuvlari to‘g‘risida to‘liq statistik hisobotni shakllantirishi mumkin: qo‘ng‘iroqlarning umumiy soni; liniya band bo‘lgan paytidagi qo‘ng‘iroqlar soni; qo‘ng‘iroqlarni o‘rtacha davomiyligi; trubkani ko‘tarmasdan oldin gudoklarning o‘rtacha soni; kutishning o‘rtacha va maksimal davomiyligi; so‘zlashuvlarning umumiy bahosi.DCS tizimi quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin: budilnik; o‘zgarib turadigan ichki abonentlarni qayd qilish (uni,

masalan, mehmonxonada ishlatilganda); ichki abonentlarning shaharlararo va xalqaro so‘zlashuvlari qiymatini hisoblash va hisobga olib borish; berilgan ichki nomerlar o‘rtasidagi so‘zlashuvlarni blokirovka qilish va b. Mohiyatiga ko‘ra bu tizim ofis ATS lar uchun xos bo‘lgan ko‘pchilik vazifalarni bajaradi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni uslub jihatdan tahlil qiling.*

Dunyoning yetti mo‘jizasi haqida

Odamlar qadimda o‘zлari dunyoning yetti mo‘jizasi deya nom bergan inshootlarning qachonlardir yo‘q bo‘lib ketishiga ishonishi, albatta, qiyin bo‘lgan. Aslida esa ularning barisi, faqat bittasini istisno qilganda, bu dunyodan ko‘chishini ko‘targaniga ancha bo‘ldi!

Bizning zamonamizga qadar yetib kelgan mo‘jizalardan yagonasi va ular orasida oldin tilga olinadigani Misrdagi **Xeops ehromidir**. Bundan qariyb 5000 yil muqaddam qurilgan bu inshoot fir’avn va uning zavjasи dafн etilgan joy salanadi.

Hozirgi Iroq o‘rnida bo‘lgan **Bobil devorlari** dunyoning ikinchi mo‘jizasi hisoblanadi. Ularni miloddan qarib 600 yil avval mashhur podsho Navuxodonsorning hukmiga binoan bunyod etilgan, balandligi 100 m bo‘lgan , g‘ishtdan terilgan ushbu devorlar hozirda vayronalar uyumiga aylanib qolgan.

Yunon haykaltaroshi Fidiy tomonidan Olimpiya (Yunoniston) shahrida yaratilgan **Zebs haykali** dunyoning uchinchi Mo‘jizasi deb e’tirof etilgan. U oltin libosga burkangan 12 metr balandlikka ega bo‘lib, Zebsning tanasi fil suyagidan tarasahlangan, ko‘zlar esa qimmatbaho toshlardan tarkib topgan edi.

Haykal bizga qadar yetib kelmagan.

Hozirgi Turkiya hududida joylashgan Efesdagı iloha **Diana ibodatxonasi**-to‘rtinchi mo‘jiza. Qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar tomoni suyab turar, butxona ichida esa yunon musavvirlarning eng a’lo asarlari joylashtirilgan edi. Miloddan avvalgi 262-yilda bostirib kelgan gotlar unga o‘t qo‘yishgan.

Hozirgi Turkiya hududiga Galikarnas shahrida miloddan avvalgi 353-yilda vafot etgan **podshoh Mavzolning xilxonasi** dunyoning beshinchi mo‘jizasi bo‘lib qoldi. Inshoot shu qadar dabdabali bo‘lgan va hashamatiga yarasha qimmatga tushgan ediki, biz bugun dabdabali bezatilgan xilxonalarni mavzoley deb ataymiz.

Quyosh ilohi **Geliosning bronzadan ishlangan Kollos Roddoskiy** degan haykali dunyoning oltinchi mo‘jizasi edi. Bo‘yi 32 m. bo‘lgan bu haykal Rodoss orolida o‘rnatilgan. Miloddan avvalgi 224-yilda zilzila uni buzub yuborgandi.

Forosdagi mayoq dunyoning yettinchi mo‘jizasi sanaladi. Uning qurilishi taxminan miloddan avvalgi 283-yilda Misr sohillaridan uzoq bo‘lмаган Foros orolida boshlanadi. Mayoq deyarli 180 m balandlikda bo‘lgan, tepasida esa kemalarga bandargoh yo‘lini ko‘rsatib turuvchi mash`ala lang‘illab turgan deb hisoblanadi. Mayoq shu`iasi, u zilzila oqibatida vayron bo‘lguniga qadar, 1500 yildan ortiq xizmat qilgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Matnni uslub jihatdan tahlil qiling.*

MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR

1.Qaysi javobda sinonim so‘zlar berilgan?

- a) Yuksalmoq, o‘snoq, rivojlanmoq, taraqqiy etmoq
- b) Yuz, aft, rang, soz
- c) Yakka, tanho, yolg‘iz, betaraf
- d) Uchramoq, yo‘liqmoq, duch kelmoq, urilmoq

2. Leksik ma’no bildirmaydigan so‘zlar qatorini belgilang

- a) Axir, hatto, kabi
- b) Bahor, bosh, bolta
- c) Kiyik, ketmon, kema
- d) Axir, tarix, kema

3. Nutq uslublari qaysi qatorda to‘liq berilgan?

- a) ilmiy, publitsistik, badiiy, rasmiy, so‘zlashuv
- b) Ilmiy-ommabop, so‘zlashuv, rasmiy-idoraviy
- c) Badiiy, so‘zlashuv, ilmiy, ommaviy.
- d) Rasmiy-idoraviy, publitsistik, ilmiy, og‘zaki

4. Ilmiy uslub janrlari:

- a) ilmiy maqola, referat, tezis, dissertatsiya
- b) maqola, ocherk, she’r, hikoya
- c) referat, drama, komediya, qissa
- d) maqola, g‘azal, qissa, konspekt.

5. Terminlar asosan qaysi uslubda ishlataladi?

- a) Ilmiy uslubda
- b) Publitsistik uslubda
- c) Rasmiy-idoraviy uslubda
- d) So‘zlashuv uslubida

6. Badiiy uslub janrlari qaysilar?

- a) Roman, hikoya, she’r, g‘azal, tragediya
- b) Hikoya, roman, ilmiy maqola
- c) G‘azal, qissa, referat, taqriz
- d) Maqola, ocherk, konspekt, doklad

7. O‘zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berilgan?

- a) 1989 yil 21 oktyabr
- b) 1990 yil 21 oktyabr
- c) 1991 yil 1 sentyabr
- d) 1992 yil 8 dekabr

8. Lingvistika qanday fan?

- a) Tilshunoslik haqida
- b) Atamashunoslik haqida
- c) Dialektizmlar haqida
- d) Adabiyotshunoslik haqida.

9. Imlo qoidalari nima?

- a) to‘g‘ri yozish qoidalari
- b) Talaffuz qoidalari
- c) so‘z yasash qoidalari
- d) Tinish belgilarining ishlatalishi

10. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?

- a) o‘zbek, qozoq, uyg‘ur, tatar, qirg‘iz
- b) o‘zbek, tojik, eron, hind
- c) Qirg‘iz, fors, pushtu
- d) turk, afg‘on, fors, arab

11. Qaysi til turkiy tillar turkumiga kirmaydi?

- a) tojik
- b) turk
- c) ozarbayjon
- d) uyg‘ur

12. Qo‘shma so‘zni toping.

- a) uchburchak
- b) o‘quvchi
- c) kursdosh
- d) tez-tez

13. Juft so‘zni toping.

- a) katta-kichik
- b) temir yo‘l
- c) katta hovli
- d) ko‘zoynak

14. Lug‘aviy birliklarga nimalar kiradi?

- a) so‘z, ibora, termin, qo‘shma so‘z
- b) termin, frazeologizm, gap
- c) so‘z birikmasi, ibora, gap
- d) sifat, ot, ravish, bog‘lovchi

15. Qaysi tushuncha lug‘aviy birlik hisoblanmaydi?

- a) gap
- b) so‘z
- c) ibora
- d) qo‘shma so‘z

16. Tasviriy ifodani toping

- a) oq oltin
- b) paxta
- c) paxtakor
- d) tilla

17. Iborani toping

- a) og‘zi qulog‘ida
- b) oltin kuz
- c) katta uy
- d) qizil olma

18. Misollarning qaysi biri termin?

- a) fonema
- b) kitob
- c) dunyo
- d) insoniyat

19. Qaysi tushuncha lug‘aviy birlik hisoblanadi?

- a) so‘z
- b) gap
- c) so‘z birikmasi
- d) sodda gap

20. Adabiy janrlar qaysi?

- a) epik, lirik, dramatik
- b) she’riyat, publitsistika
- c) komediya, nasr, drama
- d) nazm, tragediya, roman

21. Qo‘shma so‘zni toping

- a) oliyjanob
- b) kursdosh
- c) Kitobxon
- d) o‘qituvchi

22. Epik asarlarga nimalar kiradi?

- a) roman, qissa, hikoya
- b) She’r, g‘azal, ruboiy
- c) Drama, komediya, tragediya
- d) Ballada, qissa, pyesa

23. Juft so‘zni toping

- a) besh-olti
- b) katta-katta
- c) tez-tez
- d) hozirjavob

24. Lirik janrga nimalar kiradi?

- a) g‘azal, ruboiy, sonata, she’r
- b) roman, hikoya, drama
- c) qissa, fard, tuyuq
- d) tragediya, komediya, novella

25. Takror so‘zni toping

- a) asta-asta
- b) katta-kichik
- c) gap-so‘z
- d) bordi-keldi

26. Dramatik janrlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping

- a) drama, komediya, tragediya
- b) ballada, she’r, qissa
- c) roman, hikoya, ocherk
- d) maqola, ruboiy, g‘azal

27. Ommaviy axborot vositalari bu –

- a) gazeta, jurnal, televideniye, radio, internet
- b) maqola, reportaj, axborot
- c) intervyu, maqola, ko‘rsatuv
- d) axborot, jurnal, reklama

28. Ommaviy axborot vositalarining uslubi –

- a) publitsistik uslub
- b) ilmiy uslub
- c) rasmiy uslub
- d) so‘zlashuv uslubi

29. Birinchi o‘zbek romani qaysi?

- a) O‘tgan kunlar
- b) Mehrobdan chayon
- c) Jimjitlik
- d) Dunyoning ishlari

30. Qaysi uslub faqat og‘zaki shaklga ega?

- a) So‘zlashuv uslubi
- b) Badiiy uslub
- c) Ilmiy uslub
- d) Publitsistik uslub

31. Birinchi o‘zbek romani muallifi kim?

- a) Abdulla Qodiriy
- b) Abdulla Qahhor
- c) Said Ahmad
- d) O‘tkir Hoshimov

32. Qo‘shma so‘zni toping

- a) chinnigul
- b) qizil olma
- c) kitobxon
- d) el-yurt

33. Qaysi so‘z ko‘chma ma’noda?

- a) keng yurak
- b) keng ko‘ylak
- c) keng ko‘cha
- d) keng dala

34. Qaysi birikmadagi so‘z o‘z ma’nosida qo‘llangan?

- a) sovuq shamol
- b) sovuq xabar
- c) sovuq ko‘ngil
- d) turqi sovuq

35. Ko‘p ma’noli so‘z bu –

- a) polisemantik
- b) monosemantik
- c) omonim
- d) sinonim

36. Ko‘p ma’noli so‘zni toping

- a) qulinq
- b) choynak
- c) daraxt
- d) ko‘cha

37. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar –

- a) antonimlar
- b) sinonimlar
- c) omonimlar
- d) shakldosh so'zlar

38. Faqat bir ma'noga ega so'zlar

- a) monosemantik
- b) polisemantik
- c) iboralar
- d) omonimlar

39. Dialektizmlar qaysi uslubda qo'llaniladi?

- a) so'zlashuv
- b) ilmiy
- c) badiiy
- d) publitsistik

40. Yasama so'zni toping

- a) ixtirochi
- b) tashabbus
- c) modda
- d) keling

41. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?

- a) televide niye, radio, gazeta, jurnal
- b) gazeta, maqola, hikoya
- c) internet, risola, o'quv qo'llanmalar
- d) saytlar, maqola, ma'ruza

42. Frazeologizm berilgan javobni toping

- a) Yuragiga qil sig'maydi
- b) Tez gapiradi
- c) Asta yurmoq
- d) Tuflisi sig'maydi

43. Qo‘shma so‘zni toping

- a) temir yo‘l
- b) katta hovli
- c) oldi-qochdi
- d) ish bitdi

44. Qaysi qatorda ibora yo‘q?

- a) Vazifani bajardi
- b) Ko‘zi uchib turibdi
- c) Dili xira bo‘ldi
- d) Boshi qotdi

45. Publitsistik uslubning qanday janrlari mavjud?

- a) maqola, intervyu, reportaj
- b) esse, hikoya, roman
- c) ilmiy maqola, tezis, konspekt
- d) lavha, dialog, monolog

46. Maqolaning qanday turlari bor?

- a) ilmiy, publitsistik, ilmiy-ommabop
- b) ilmiy, rasmiy, esse
- c) ommaviy, badiiy, rasmiy
- d) ilmiy-ommabop, feleton, intervyu

47. Ilmiy uslubga xos terminlarni aniqlang

- a) Kvant, teorema, molekula
- b) Siyosat, ixtiro, mavzu
- c) Fan, dastur, kitob
- d) Maqola, musiqa, sport

48. Qaysi so‘z termin emas?

- a) universitet
- b) fonetika
- c) kosinus
- d) molekulyar

49. Quyidagi birikmalar qaysi uslubga xos: kvadrat tenglama, katetlar yig‘indisi

- a) ilmiy
- b) so‘zlashuv
- c) badiiy
- d) publitsistik

50. Maqolalar qanday qismlardan iborat?

- a) Kirish, asosiy qism, xulosa
- b) Boshlang‘ich va yakuniy qismlar
- c) Faqat asosiy qismdan
- d) Asosiy qism, xulosa

51. Tilshunoslikka doir terminlarni aniqlang

- a) Fonema, unli va undosh tovushlar
- b) Gap, dialog, maqola
- c) Uchburchak, ko‘p qirrali
- d) Modda, zarra, atom

52. AKT terminlarini aniqlang

- a) Axborot, kompyuter, dastur
- b) Monolog, dialog, disput
- c) Tovush, unli, undosh
- d) Simmetrik, to‘g‘ri, uchburchak

53. Uslubini aniqlang: Vodiylarni yayov kezganda Bir ajib his edi menda

- a) badiiy
- b) ilmiy
- c) publitsistik
- d) so‘zlashuv

54. Maqolaning qismlari:

- a) Kirish, asosiy qism, xulosa
- b) Boshlang‘ich va yakuniy qismlar
- c) Faqat asosiy qismdan

d) Asosiy qism, xulosa

55. So‘zning eng kichik bo‘linmas qismi

a) o‘zak

b) qo‘shimcha

c) negiz

d) so‘z

56. AKT terminlarini aniqlang

a) Interfeys, ma’lumotlar bazasi

b) Kub, kvadrat, sinus

c) Atom, yadro, issiqlik,

d) Konvergensiya, molekula

57. Ilmiy uslubga xos xususiyatni toping

a) Terminlar ishlatalishi

b) Jargonlar ishlatalish

c) Shevaga xos so‘zlar ishlatalishi

d) Tub so‘zlarni ishlatalish

58. Ma’ruza qaysi uslubga xos?

a) Ilmiy uslubga

b) Rasmiy uslubga

c) Publitsistik uslubga

d) Badiiy uslubga

59. Intervyu matni qaysi uslubga xos?

a) publitsistik

b) ilmiy

c) badiiy

d) rasmiy

60. Reportaj qaysi uslubda yoziladi

a) publitsistik

b) badiiy

c) bilmiy

d) so‘zlashuv

61. Dissertatsiya qaysi uslubda yoziladi?

- a) ilmiy
- b) badiiy
- c) publitsistik
- d) rasmiy

62. Darslik, o‘quv qo‘llanmalar qaysi uslubga xos?

- a) ilmiy
- b) so‘zlashuv
- c) ommabop
- d) badiiy

63. Dramatik asarlar qaysi uslubda yoziladi?

- a) badiiy
- b) ilmiy
- c) publitsistik
- d) so‘zlashuv

64. Lirik asarlar qaysi uslubda yoziladi?

- a) badiiy
- b) ommabop
- c) so‘zlashuv
- d) ilmiy

65. Roman janri qaysi uslubga xos?

- a) badiiy
- b) publitsistik
- c) so‘zlashuv
- d) rasmiy

66. Adabiy til nima?

- a) grammatik, fonetik, leksik, frazeologik va stilistik tomonidan puhta ishlangan til
- b) hamma bemalol so‘zlasha oladigan til
- c) shevaga mos so‘zlardan holi bo‘lgan til
- d) jargonlardan tozalangan til

67. “Orfoepiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘gri ko‘rsatilgan?

- a) adabiy tilning to‘gri talaffuzini belgilovchi qoida
- b) to‘g‘ri so‘zlash
- c) shevadan holi
- d) to‘g‘ri talaffuz

68. Nutqning qanday shakllari bor?

- a) yozma va og‘zaki
- b) she’riy, yozma
- c) musiqiy, og‘zaki
- d) tasviriy, yozma

69. Tovushlar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

- a) fonetika
- b) orfografiya
- c) uslubiyat
- d) grammatika

70. Badiiy tasvir vositalari qaysi uslubda ko‘proq ishlatiladi?

- a) badiiy
- b) so‘zlashuv
- c) ommabop
- d) ilmiy

71. Badiiy tasvir vositalariga nimalar kiradi?

- a) epitet, o‘xhatish, metafora,
- b) metonimiya, qo‘shma so‘zlar
- c) iboralar, tasviriy ifoda
- d) juft so‘zlar, takror so‘zlar

72. Shevaga xos so‘zlar qaysi uslubda ishlatiladi?

- a) so‘zlashuv
- b) badiiy
- c) ommabop
- d) ilmiy

73. Uslubini aniqlang: hunarni asraban netkumdir ohir, Olib tuproqqamu ketkumdir ohir

- a) badiiy uslub
- b) ommabop uslub
- c) so‘zlashuv uslubi
- d) ilmiy uslub

74. Uslubini aniqlang: Nutq tovushlari unli va undoshlarga bo‘linadi

- a) ilmiy uslub
- b) badiiy uslub
- c) ommabop uslub
- d) rasmiy uslub

75. Uslubini aniqlang: Ta’lim tizimini yangilash lozim

- a) publitsistik
- b) badiiy
- c) ilmiy
- d) ilmiy-ommabop

76. Internet bu –

- a) global tarmoq
- b) local tarmoq
- c) mintaqaviy tarmoq
- d) ichki tarmoq

77. Intervyu bu –

- a) muxbirning (umuman so‘zlovchining) biror mashhur shaxs bilan ma’lum bir masala bo‘yicha savol-javobidir.
- b) muxbir o‘z savollarini tayyorlab qo‘yishidir.
- c) shu kunda hammani qiziqtirgan muhim masalalar haqida maqola.
- d) muxbirdan bilimdonlikni, notiqlikni, turli etik qoidalarga amal qilishlikdir.

78. Matn bilan ishlash asoslari qaysi bandda to‘gri ko‘rsatilgan?

- a) asarning g‘oyasini aniqlash, muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrini mantiqiy tahlil qilish orqali

- b) matnni yod olish orqali
- c) urg‘u oluvchi so‘zlarni belgilash orqali
- d) matnni ko‘chirib olish

79. Bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi nima deyiladi ?

- a) lahja
- b) monolog
- c) dialog
- d) shevachilik

80. Nutq uslublarida asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?

- a) uslubiy xususiyatlarga
- b) tinish belgilariga
- c) terminlarga
- d) so‘zlarga

81. Toshkent shahridagi muzeylar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- a) Amir Temur, O‘zbekiston tarixi, Tabiat muzeyi, qatag‘on qurbanlari
- b) Amir Temur, O‘zbekiston tarixi, Tabiat muzeyi, Ermitaj
- c) Amir Temur, Luvr, Tabiat muzeyi, qatag‘on qurbanlari
- d) Amir Temur, O‘zbekiston tarixi, Registon, qatag‘on qurbanlari

82. “Muzeylar tog‘risida” gi qonun qachon qabul qilingan?

- a) 2008 yil 12 sentabr
- b) 2016 yil 12 sentabr
- c) 2017 yil 12 sentabr
- d) 2018 yil 12 sentabr

83. Amir Temurning maqbarasi nechinchi yillarda qurilgan?

- a) 1403-1424
- b) 1336-1340
- c) 1560-1561
- d) 1221-1223

84. Amir Temur muzeyi qaysi shaharda joylashgan?

- a) Toshkent
- b) Samarqand
- c) Buxoro
- d) Xorazm

85. So‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi fan nima deyiladi?

- a) leksikologiya
- b) anonim
- c) sinonim
- d) fonetika

86. Ichandal’ a qaysi shaharda joylashgan?

- a) Xiva
- b) Buxoro
- c) Toshkent
- d) Samarqand

87. ... bir manoli va ko‘p ma’noli bo‘ladi?

- a) So‘zlar
- b) Fellar
- c) Iboralar
- d) Antonimlar

88. Nechinchi yil uyali radiotelefon aloqa tarmog‘i ishga tushgan?

- a) 1991 yil
- b) 2003 yil
- c) 2005 yil
- d) 2008 yil

89. ... adabiy yoki ilmiy mazmunda bo‘lib hajm jihatdan ancha katta bo‘ladi

- a) maqola
- b) leksikologiya
- c) aforizm
- d) iboralar

90. ... bunda tanlagan mavzuning dolbzarligi belgilanadi

- a) Kirish
- b) Asosiy qism
- c) Xulosa
- d) Mundarija

91. ... mualif tomonidan rejalangan fikr, muammo yo‘ki yangilik bayon qiladi?

- a) asosiy qism
- b) kirish
- c) maqola
- d) xulosa

92. ...mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi

- a) xulosa
- b) kirish
- c) maqola
- d) aforizm

93. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi ?

- a) matbuot, radio, televideniye
- b) kino, serial va qo‘shiqlar
- c) so‘zlar, maqolalar va iboralar
- d) radio, gazeta, kino

94. Oksford markaziy kutubxonasi nima deb ataladi?

- a) Bodlian
- b) Eshmolin
- c) Oksford
- d) Gerbert

95. Oksford kutubxonasiga qachon va kim tomonidan asos solingan?

- a) 1598-yil Ser Tomas Bodli
- b) 1600-yil Toni Bleyer
- c) 1800-yil Bob Xouk

d) 1680-yil Ali Bxutto

96. Atamalarni (termin) o‘rganuvchi soha nima deb ataladi?

- a) atamashunoslik(terminologiya)
- b) fonetika
- c) leksika
- d) audit

97. Oksford universitetiga raqobatchi universitet qaysi?

- a) Kembrij
- b) Garvard
- c) Turin
- d) Inha

98. Oksford universitetida joylashgan muzey nomi nima?

- a) Eshmolin
- b) Libr
- c) Mur
- d) Jons

99. Oksford universitetini kim boshqaradi?

- a) kansler
- b) rektor
- c) direktor
- d) dekan

100. M.V.Lomonosov universiteti qachon tashkil topgan?

- a) 1755-yil
- b) 1605-yil
- c) 1900-yil
- d) 2000-yil

101. Oksford universitetida nechta semestr mavjud?

- a) 3
- b) 2
- c) 4
- d) 8

102. Nutq uslublari nechta?

- a) 5 ta
- b) 3 ta
- c) 2 ta
- d) 4 ta

103. Abdulla Qodiriyning mashhur bo‘lgan tahallusi nima?

- a. Julqunboy
- b. Olim
- c. Kalvak
- d. Mushtum

104. Abdulla Qodiriyning mashhur romani nima?

- a) “O‘tkan kunlar”
- b) “Uloq”
- c) “Odina”
- d) “Manba”

105. Badiiy asar turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qator qaysi?

- a. epik, lirik va dramatik asarlar
- b. komediya va tragediya
- c. drama va musiqa
- d. opera va balet

106. O‘zbek adabiy tili qaysi tillar oilasiga mansub?

- a. Turkey tillar
- b. Forsiy tillar
- c. Yunon tillar
- d. Hind tillar

107. Har yili 21-oktabr sanasida qaysi bayram nishonlanadi?

- a. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani
- b. Navruz bayrami
- c. Mustaqillik bayrami
- d. Xalqaro ona tili kuni

108. Til haqidagi fan qanday nomlanadi?

- a. lingvistika
- b. meteologiya
- c. geologiya
- d. adabiyot

109. Qo'shma so'zlarni ko'rsating.

- a. asalari , guldasta, uchburchak
- b. qayiq , katta , muz
- c. baland, past, yuqori
- d. otboqar, xontaxta, olma

110. Turkiy tillarni belgilang.

- a. o'zbek, qozoq, qirg'iz
- b. rus, fransuz, arab
- c. ingliz, nemis, eron
- d. tojik, arab, qozoq

111. Informatsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a. ma'lumot, tushuntirish, axborot
- b. tabiat haqida tushuncha
- c. o'qish, yozish, chizish
- d. bilish, egallash

112. Terminlar qatorini belgilang.

- a. ega, sinus, hosila
- b. kuchukcha, asalli, qurbaqa
- c. deraza, olmos, uzuk
- d. qilich, cho'mich, tegirmon

113. Maqolni davom ettiring: Do'stsiz boshim-...

- a. tuzsiz oshim
- b. qufsiz eshigim
- c. pishmas ovqatim
- d. tinimsiz qo'lim

114. Jumlani davom ettiring:
Til – millatimiz faxri,

- a. g‘ururidir
- b. mehnati
- c. Boshlig‘i
- d. Do‘sti

115. Quyidagi qo‘shma so‘zning tarkibiy qismlarini yozing:
Uchburchak

- a. son+ot
- b. fe'l+sifat
- c. ot+ot
- d. ravish+son

116. Frazeologizm so‘zining ma’nosi qanday?

- a. ibora
- b. matal
- c. g‘azal
- d. maqol

117. Siyosiy-ijtimoiy doira munosabatlariga xizmat qiluvchi uslub qaysi?

- a. publitsistik uslub
- b. badiiy uslub
- c. ommaviy uslub
- d. ilmiy uslub

118. Adabiy terminlarni ko‘rsating

- a. masal, g‘azal, hikoya
- b. protsessor, taqa, afisha
- c. odillik, metall, molekula
- d. tomir, leykotsit, yurak

119. Uslubini aniqlang: Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o‘zbegim

- a. badiiy

- b. ilmiy
- c. publictik
- d. so‘zlashuv

120. Ilmiy maqolaning tarkibiy qismlari:

- a. kirish, asosiy qism, xulosa
- b. boshlang‘ich va yakuniy qismlar
- c. faqat asosiy qismdan
- d. asosiy qism, xulosa

121. Matematik terminlarini aniqlang

- a. kub, kvadrat, sinus
- b. interfeys, ma’lumotlar bazasi
- c. atom, yadro, issiqlik
- d. konvergensiya, molekula

122. Ilmiy uslubga xos xususiyatni toping

- a. terminlar ishlatalishi
- b. jargonlar ishlatalish
- c. shevaga xos so‘zlar ishlatalishi
- d. tub so‘zlarni ishlatalish

123. Kurs ishi qaysi uslubga xos?

- a. ilmiy uslubga
- b. rasmiy uslubga
- c. publitsistik uslubga
- d. badiiy uslubga

124. Intervyu matni qaysi uslubga xos?

- a. publitsistik
- b. ilmiy
- c. badiiy
- d. rasmiy

125. Reportaj qaysi uslubda yoziladi?

- a. publitsistik
- b. badiiy

- c. ilmiy
- d. so‘zlashuv

126. Dissertatsiya qaysi uslubda yoziladi?

- a. ilmiy
- b. badiiy
- c. publitsistik
- d. rasmiy

127. Darslik, o‘quv qo‘llanmalar qaysi uslubga xos?

- a. ilmiy
- b. so‘zlashuv
- c. ommabop
- d. badiiy

128. Dramatik asarlar qaysi uslubda yoziladi?

- a. badiiy
- b. ilmiy
- c. publitsistik
- d. so‘zlashuv

129. Lirik asarlar qaysi uslubda yoziladi?

- a. badiiy
- b. ommabop
- c. so‘zlashuv
- d. ilmiy

130. Fantastika janri qaysi uslubga xos?

- a. badiiy
- b. publitsistik
- c. so‘zlashuv
- d. rasmiy

131. Orfografiya bo‘limida nimalar o‘rganiladi?

- a. to‘g‘ri yozish qoidalari
- b. to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari
- c. to‘g‘ri urg‘u qo‘yish qoidalari

d. to‘g‘ri gapisish qoidalari

132. Adabiy til nima ?

- a. grammatik, fonetik, leksik, frazeologik va stilistik tomonidan puxta ishlangan til
- b. hamma bemalol so‘zlasha oladigan til
- c. shevaga xos so‘zlardan holi bo‘lgan til
- d. jargonlardan tozalangan til

133. Lug‘atlar qanday turlarga bo‘linadi?

- a. Izohli, lingvistik
- b. Ensiklopedik, filologik
- c. Tarjima, izohli
- d. Qomusiy, izohli

134. Izohli lug‘at lug‘atning qaysi turiga kiradi?

- a. Filologik
- b. Terminologik
- c. Ensiklopedik
- d. Tarjima

135. Referat so‘zining ma’nosini to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- a. Izoh berish
- b. Ma’lumot berish
- c. Bildirish, xabar berish
- d. Tushuncha berish

136. Referat qanday bo‘limlardan tashkil topgan?

- a. Kirish, asosiy qism, xulosa
- b. Reja, asosiy qism, xulosa
- c. Titul varag‘i, reja, asosiy qism
- d. Titul varag‘i, reja, kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar

137. ... – ilmiy uslubga xos bo‘lgan matn. U oldindan tayyor matn asosida yaratiladi?

- a. Annotatsiya

- b. Referat
- c. Taqriz
- d. Maruza

138. Matn ko‘rinishlari qaysi qatorda berilgan.

- a. Dialogik matn
- b. Monologik matn
- c. Badiiy, tasviriy matn.
- d. Mikromatn, Makromatn

139. Matnning turlari.

- a. Dialogik, Monologik
- b. Mikromatn
- c. Makromatn
- d. Ma’lumotnoma

140. Nutqning suhbat turi qaysi matnga xos?

- a. Monologik matnga
- b. Mikromatnga
- c. Dialogik matnga
- d. Makromatnga

141. Replika qanday matn turlarida uchraydi?

- a. Dialogik matnda
- b. Monologik matnda
- c. Ijtimoiy – siyosiy mavzudagi matnda
- d. Ma’ruza matnida

142. Lug‘atlar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

- a. Stilistikada
- b. Morfologiyada
- c. Leksikografiyada
- d. Sintaksisda

ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.
2. M.Abdurahmonova, D.Fattohova, U.Holmuhamedova, N.Inagamova. “O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanma. O‘zMU, 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони / ЎзР КХТ, 2017. – 6-сон, 70-модда; 20-сон, 354-модда.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.-56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.-488 б.
4. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X.O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
5. Normatova SH., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
6. Fayzullaeva SH., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma).-Toshkent: Iqtisodiy, 2012.-108 b.
7. Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b.
8. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at (2 jildli).-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
9. 6. O‘zbek tilining izohli lugati (5 jildli).-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.

Internet saytlar

- 1.<http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> -
Самоучитель узбекского языка.
- 2.<http://solver.uz/translate.php> -Русско-узбекский
переводчик.
- 3.http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx -Узбекско-русский
переводчик.
4. <http://library.ziyonet.uz/>-таълим порталы

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu. O‘zbekiston-yagona Vatan. O‘zbek tili-Davlat tili. O‘zbek tilining imlo qoidalari. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.....	5
2-mavzu. Muzeylar-o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik. Tilning leksik qatlamlari. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Atamalar. Sohaviy terminlar	16
3-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim. O‘zbek tilida sinonimlar. Til va terminologiya	29
4-mavzu. Kitob mutolaasi. Adabiyot-ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba. Men sevgan asar.Nutq uslublari. Badiiy uslub. Badiiy tasvir vositalari	37
5-mavzu. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari .	51
6-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar. Ilmiy uslub. Davrimizning global muammolari. Maqola va uning turlari	58
7-mavzu. Ommaviy axborot vositalari. Internet hayotimizda. Intervyu olish va reportaj tayyorlash qoidalari.....	66
8-mavzu. O‘zbekistonda oliy ta’lim. Ilm maskanimiz hayotidan. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so‘zlar	74
9-mavzu. Bo‘lajak kasbim. Kasbim tarixi. Matn va uning ko‘rinishlari. Dialogik va monologik matn.....	85
10-mavzu. Yetuk mutaxassis. Soha lug‘atlari.Matn tahlili va tahriri. Rezyume	94
11-mavzu. Sharq akademiyalari. Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.....	106
12-mavzu. Ilm sari yo‘l. Soha olimlari hayotidan. Taqriz. Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari	114
13-mavzu. Kasb etikasi. Nutq odobi. Me’yor tushunchasi.....	128

14-mavzu. Rasmiy-idoraviy uslub	139
15-mavzu. Ish yuritish tili va uslubi. Ish yuritish terminlarining lug‘ati. Hujjat turlari va xususiyatlari	145
Ilovalar.....	156
Mavzular yuzasidan testlar.....	184

M.X.AXMEDOVA,
K.A.GAYUBOVA

O‘ZBEK TILI

O‘quv qo‘llanma.

Toshkent – «Aloqachi» – 2020

Muharrir:	Q.Matqurbanov
Tex. muharrir:	A.Tog‘ayev
Musavvir:	B.Esanov
Musahhiha:	F.Tog‘ayeva
Kompyuterda sahifalovchi:	B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.

Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2019. Bichimi 60x841 /16.

Shartli bosma tabog‘i 13,75. Nashr bosma tabog‘i 13,25.

Adadi 100. Buyurtma №50.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.